

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

**“ISTIQLOL DAVRI ADABIYOTI
MUAMMOLARI”**

fanidan

**O‘QUV – USLUBIY
MAJMUA**

Bilim sohasi:	200000	- San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	230000	Tillar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100	Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

Namangan-2024

Fanning ishchi o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil "29" avgustdagi MD-5A120101-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan va tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan "Nazariy poetika" fan dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchi:

O. Karimov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchi:

B. Karimov – filologiya fanlari doktori, professor

O'quv uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Kengashininig 2024-yil "... " avgustdagi "... " - son yig'ilishida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

1. O'quv materiallari.....	
2. Ma'ruzalar.....	
3. Amaliy mashg'ulotlar.....	
4. Seminar mashg'ulotlar.....	
5. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari.....	
6. Kurs ishlari mavzulari	
7. Glossariy	
8. Ilovalar:	
- fan dasturi;	
- ishchi fan dasturi	
- tarqatma materiallar	
- testlar	
- baholash mezonlari	
- majmuaning elektron varianti	

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi filologiya fakulteti Kengashining 2024-yil 28-avgustdagi 1-sonli umumiy yig'ilishida muhokamadan o'tgan va foydalanishga tavsiya qilingan o'quv dasturi asosida tuzildi.

Tuzuvchi: O.Y. KARIMOV, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchi: M. HAMIDOVA, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining 2024-yil 27-avgustdagi 1-sonli umumiy yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet Kengashidan so'ralgan.

Kafedra mudiri: U. QO'ZIYEV

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi filologiya fakulteti Kengashida muhokamadan o'tgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2024-yil 28-avgustdagi 1-sonli bayonnoma).

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

O`zbek tili va adabiyoti kafedrası

Filologiya fakulteti o`zbek tili yo`nalishi 1-kurs talabalari uchun

Hozirgi adabiy jarayon

fanidan

N a z a r i y m a ` l u m o t l a r

1-MAVZU: Kirish. «Hozirgi adabiy jarayon» kursining maqsad va vazifalari, uning asosiy tamoyillari. Istiqlol va adabiyot. (2 soat).

REJA:

1. “Hozirgi adabiy jarayon” kursining maqsad va vazifalari haqida ma’lumot.
2. “Hozirgi adabiy jarayon” fanining mazmuni va qo’llanilish tarixi.
3. Fanning asosiy tamoyillarot haqida.
4. Istiqlol va adabiyot
5. Xulosa

Asosiy tushunchalar: “san’at”, adabiyot, adabiyotshunoslik, badiiy adabiyot, poeziya, yozma adabiyot, iqtisodiy adabiyot, texnika adabiyoti, siyosiy adabiyot, adabiy turlar va janrlar, folklor. adabiy portret, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, badiiy asar, tazkira, adabiy jarayon.

“Hozirgi adabiy jarayon” fani bevosita adabiy jarayondagi yangilanshlardan talabalarni boxabar qilishi bilan birga ularni baholashga o’rgatadi. Amaliy jihatdan esa talaba adabiy jarayonning ishtirokchisiga aylanishi ham mumkin. “Hozirgi adabiy jarayon” fani nafaqat o’zbek adabiyoti, balki jahon adabiyotida kechayongan yangilanishlar bilan ham talabani boxabar qiladi. Fan ana shunday masalalari bilan dolzarblik kasb etadi.

“Hozirgi adabiy jarayon” fani talabani faol kitobxonlikka, badiiy asarni tahlil qila olish malakasini hosil qilishga, adabiy jarayonda faol qatnashayotgan ijodkorlar to’g’risida yaxlit tasavvur berishi jihatidan ahamiyatli sanaladi.

Ushbu ishchi dastur mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingi yillardagi adabiy jarayondagi o’zgarishlar, jahon adabiyotidagi yangiliklar, o’zbek adabiyotining bugungi yutuq va kamchiliklari, o’zbek adiblarining hozirgi adabiy jarayondagi o’rni, adabiy tanqidning hozirgi adabiy jarayonga munosabati masalalarini qamraydi.

Mazkur fanni o’qitishning asosiy maqsadi – adabiy jarayondagi asosiy tamoyillar yuzasidan chuqur bilim berish, epik, lirik, dramatik asarlarning hozirgi davr bilan bog’liq qirralarini, xususan, milliy istiqlool g’oyachlariga daxldor jihatlarini talabalarga uqtirish mazkur fanning asosiy maqsadi hisoblanadi. Fanni o’qitishning vazifalari:

- eng muhim epik, lirik, dramatik asarlarni tahlil qilish;

- adabiy tanqidchilik bilan hozirgi adabiy jarayonni bog'lab tushuntirish;
- bugungi adabiyotda kechayotgan jarayonlarni tahlil qilish;
- o'zbek adabiyotining bugungi holini dunyo adabiyotida kechayotgan jarayonlarga qiyoslash;
- talabani badiiy asarni tushunib, anglab, tahlil qilib o'qishga o'rgatish;
- badiiy ijod falsafasini, psixologiyasini adabiy siymolarning ijod laboratorisi misolida tushuntirish vva boshqa qator masalalar ushbu fanning vazifalariga kiradi.

“Hozirgi adabiy jarayon” fani bo'yicha chuqur nazariy bilimga ega bo'lish, istagan badiiy asarni tanqidiy jihatdan xolis tahlil qilish, badiiy asarga estetik baho berish, adabiy jarayonni ilmiylik asosida baholash ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Xalq og'zaki ijodi, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, estetika, psixologiya, falsaf fanlarida o'rganiladigan muammolarning umumiyligi bilan bir-biriga bog'langan.

Bu fan 5120100- filologiya (o'zbek tili) yo'nalishiga kirgan "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "O'zbek mumtoz adabiyoti", "O'zbek adabiy tanqidchiligi", "Yangi davr o'zbek adabiyoti" fanlariga asoslanadi.

Talabalarda hozirgi adabiy jarayon fani bo'yicha bilimlarni shakllantirish, adabiy-badiiy asar nuqtai nazaridan tahlil qilishga doir muayyan bilimga ega bo'lish va ularni amaliyotda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita adabiy-ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Talabalarda hozirgi adabiy jarayon fani bo'yicha bilimlarni shakllantirish, adabiyotshunoslik metodlarini, badiiy asar metodologik nuqtai nazardan tahlil qilishga doir muayyan bilimga ega bo'lish va ularni amaliyotda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita adabiy-ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda amaliy ahamiyat kasb etadi.

“Hozirgi adabiy jarayon” fanini o'zlashtirishda o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar mashg'ulotlari shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari magistr talabalarga mustaqil ta'lim sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning ilg'or metodlari orqali hamda slaydlar, mul timedia namoyishlari bilan o'tkaziladi.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

«Hozirgi adabiy jarayon» kursini o'qitish yuqorida ta'kidlangan ta'lim texnologiyalariga asoslanishi va quyidagi konseptual yondoshuvlarga asoslanishi kerak:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jaryonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondashuv o'quv jarayoni ishtirokchilarning psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratlilik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi subektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash – kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

Keltirilgan konseptual yo'riqlarga asoslangan holda, «Hozirgi adabiy jarayon» kursining maqsad va vazifasi, tarkibiy tuzilishi va ta'lim jarayonida tutgan o'rni, o'quv axborotining mazmuni va hajmidan kelib chiqib, ma'lum

sharoit va o'quv rejasida belgilangan vaqtda o'qitish, kommunikatsiya, axborot va ularni birgalikdagi boshqarishni kafolatlaydigan usullar va vositalar tanlovi amalga oshirildi.

o'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord va loyiha usullari, amaliy ishlash usuli.

o'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

o'qitish vositalari o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

Mustaqillik davri badiiy-estetik tafakkurining taraqqiyot tamoyillari ko'p asrlik adabiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va yangicha baholashdan iborat umumiy jarayon bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda xalqning ming-ming yillik ma'naviyat xazinasini istiqlolni ma'naviy poydevorini mustahkamlashga kamarbasta bo'layotganligi ham ana shunda dir "Meros Javoxir" va boshqa turkumlarda adabiyot, fan, madaniyat va san'at soxalaridagi bebaho nashrlar yuzaga chiqdi. Bular xalqimizning yana bir karra tayin etishdan, eng muhimi, mustaqillikning dastlabki odimlari umumbashariy qadriyatlarni qaror toptirish bilan mustahkamlanayotganligidan dalolatdir. Mustaqillikning ma'naviy poydevorini mustahkamlashda hali oldimizda hayot masulyatli vazifalar turibdi. Istiqlolni adabiyoti aslida xalqimiz ongi, dunyoqarashdagi sifat o'zgarishlarini, umummilliy – ijtimoiy uyhonishning estetik ifodasidir. Bugungi tarixiy yangilanishlar ildizini millatning erk-ozodlik uchun olibborgan kurash oyalaridan, vatanparvarlikdan holi tasavvur qilish mumkin emas. Erklarparvarlik, hurfikirlilik, ozodlik ideali, imon salomatligi, e'tiqod butunligi, Vatan kamoli singari azaliy qadriyatlar bugungi adabiyotning g'oyaviy mazmunini tashkil etayotir. Millatning o'z-o'zini anglash, o'zlikni qadrlashi va ulug'lashi, milliy iftixor tuyg'ularining

shakllanishida badiiy tafakkur madaniyatining sifat o'zgarishlari namoyon bo'layotir. Adiblarimiz xoh tarixiy voqelikka, xoh diniy g'oyalarga xoh bugungi kunga murojaat etishsin ularning asarlarida mohiyatan millat butunligini ta'minlashga varatilgan ishtimoiy – falsafiy konsepsiya yahhol namoyon bo'lmohda. Bu narsa badiiy tahakkurning “labbaychilik” dan hutilib inson ruxiyatining falsafiy pisixalogik tahlili orhali shahsni kamolga yetkazishga intilishi, komillik alomatlarini uluhlashida ko'zga tashlanayotir. Odamdagi odamiylikni kashf etish - ustivor tamoyilga aylanib bormohda. Avvalgi o'n yilliklarda hozirjavoblik, zamonaviylik, dolzarblik, rostgo'ylik, siyosiy faollik badiyatning muhim belgilari sifatida ilgari surilgan bo'lsa, endilikda milliylik, tarixiylik, go'zallik, ezgulik, adolat singari bashariy hadiyatlar estetik mezon sifatida badiiy tahakkurdagi o'zgarishlarni anihlovchi va belgilovchi yetakchi mezon bo'lib borayotir. Hozirgi adabiy jarayonning, xususan, mustaqillik davrida o'zbek adiblari yaratgan lirik, epik va dramatik asarlarni tadqiq etganda, o'zbek adabiyotida alohida shaxslar olamini, ularning o'ziga xos tuyg'ularini aks ettirish borasida qator yutuqlar qo'lga kiritganligiga amin bo'lamiz. To'g'ri, har bir odamning o'zi alohida shaxs. Ayni chog'da, u o'zigagina xos olamga, intellektual – ruhiy xususiyatlarga ega. Shu jihati yuksalgan sayin inson o'ziga xos xislatlarini, o'z individualligini yanada teranroq, yorqinroq aks ettiradi. O'zbek yozuvchilari ayni shu hayot haqihatini o'z ruhiyatini taftish etib, o'zligini anglashga intiladigan qahramonlar vositasida, odamlarga ham boshqalar kabi emas, o'ziga xos munosabat bildirish, o'z qahramoni orqali atrofdagi odamlarni o'zimizga ma'qul kelish yo kelmasligiga qarab emas, balki boricha, qanday yaratilgan bo'lsa, shundayligicha ziddiyatli va murakkab inson sifatida qabul qilish zarurligini, muhimi, insonni anglash ekanini ta'kidlashga urinayotganliklari milliy mustaqillik davri o'zbek adabiyotiga xos muhim xususiyatdir. Shunisi ham borki, insonni tushunishga da'vat etish insonni anglash falsafasini talab qiladi. Insonni tasvirlash orqali esa ana shu hayot falsafasi yaratiladi. Zotan, adabiy janrlar taraqqiyotining yangi davrida hodisalarga va inson shaxsiga yondashish tamoyillarining o'zgarib, takomillashib borishi tabiiy va zaruriy jarayon hisoblanadi. Ammo badiiy ijodning azaliy qonunlari barcha davrlar uchun o'zgarmasdir: yozuvchi voqeanavis emas, insonshunos sifatida ish ko'rib inson qalbi haqida aytilmagan haqiqatlarni badiiy kashf etsagina, u yaratgan asar estetik qimmat kasb etadi. Ushbu ma'ruza matnida hozirgi adabiy jarayonning o'ziga xos taraqqiyot tendentsiyalari, yetakchi estetik tamoyillar haqida so'z boradi. Shunisi ham borki, adabiy jarayon yildan-yilga o'zgarib, taraqqiy etadi, badiiy ijod va estetik fikr taraqqiyotiga bog'liq holda ravnaq topadi. Muallif hozirgi adabiy jarayon muammolariga diqqatni qaratish orqali mustaqillik davri o'zbek adabiyoti namunalarini tahlilga tortdi va muayyan xulosalarni bayon etdi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. “Hozirgi adabiy jarayon” fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat? (misollar bilan)
2. Adabiyotning vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
3. Adabiyotshunoslikning tasvir ob'yekti nima?
4. Hozirgi adabiy jarayon o'z ichiga qaysi yillarni oladi?
5. Adabiyotshunoslikka oid qanday kitoblarni bilasiz?
6. Adabiyot - so'z san'ati deganda nimani tushunasiz?
7. Adabiyot nazariyasi nimani o'rgatadi?
8. Adabiyot tarixi nimani o'rgatadi?
9. Adabiy tanqid haqida ma'lumot bering.
10. Adabiy tanqidchilardan kimlarni bilasiz?
11. Adabiy jarayon haqida tushuncha bering.
12. Adabiy tur deganda nimalarni tushunasiz?

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Т.: “Маънавият”, 2000.
2. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Т.: «Шарқ», НМАК, 2007.
3. Улуғов А. Асл асарлар сеҳри. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007.
4. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: “Шарқ”, 2004.

Электрон манбалар

1. www.ziё-net.uz
2. www.magazine.rus.ru...
3. www.Google.co.uz.....

Test va tarqatma materiallar

1. Hozirgi adabiy jarayon deyilganda o'zbek adabiyotining qaysi davri tushuniladi?
*A) Mustaqillikni qo'lga kiritgan davrdan shu kungacha bo'lgan davr.
B) 1980 yildan shu kungacha bo'lgan davr.
C) XX asr ikkinchi yarmidagi davr.
D) II jahon urushidan keyingi davr.
2.
2. Adabiyotning quroli ...
A) *so'z B) obraz C) badiiy asarlar D) tarixiy voqelik
3. Adabiyotshunoslikning qo'shimcha sohalari haqida ma'lumot bering ?
A) O'tmish adabiy manbashunoslik
B) Adabiy matnshunoslik
* A) Adabiy manbashunoslik, adabiy matnshunoslik, bibliografiya.

C) Ilmiy tadqiqot, ilmiy – axborot.

4. Ijtimoiy ong nima ?

A) Siyosat, iqtisod, shakl, rassomlik

D) Falsafa, fan, san'at, teatr

E) Fan, ob'ekt, sharoit, san'at

* D) Siyosat, mafkura, huquq, ahloq, fan

5. Adabiyotning tasvir ob'ekti ?

A) qushlar

V) hayvonlar

S) tabiat

*D) inson

6. "Insonshunoslik" nima ?

A) fiziologiya

V) astronomiya

S) san'atshunoslik

*D) badiiy adabiyot

7. Obrazlilik deganda nimani tushunasiz ?

A) san'atga oid asarlarni

V) she'riyatni

F) epik asarlarni

*D) adabiy ijodning mohiyati va umumiy xususiyatlarini

8. Obraz yaratish yo'llari necha turga bo'linadi ?

*A) 2 turga

V) 3 turga

C) 1 turga

D) 4 turga

9. Ijodiy metod taqozosiga ko'ra obrazlar qanday turlarga bo'linadi ?

A) Romantik, fantastik, murakkab, oddiy

V) Mifologik, afsonaviy, ijobiy, afsonaviy

S) Salbiy, simvolik, romantik, ijobiy

D) Romantik, realistik, simvolik, mifologik

2 -MAVZU: Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. (2 soat).

REJA:

1. Adabiyotga bo'lgan e'tibor haqida.

2. Istiqlol davrida adabiyotimizda bo'layotgan o'zgarishlar.

3. Bugungi asarlarimizning mavzu ko'lami va uning rivojlanib borishi.

4. Istiqlol, adabiyot va tanqid.

Asosiy tushunchalar: adabiyot, istiqlol, adabiyotshunoslik, poeziya, lirika, drama, tragediya, adabiy-nazariy tafakkur, tazkira, qofiya, aruz, poetik san'at. so'z san'ati, adabiyot, davrlashtirish.

Hozirgi adabiyotimizga, jarayonga yalpi nigoh bilan nazar tashlasak, mavzu va tasvir-ifoda jihatidan farqlanuvchi uch yo'nalish mavjudligini ko'ramiz: tarixiy mavzudagi asarlar; ramz, rivoyat tarzidagi asarlar; zamonaviy mavzudagi asarlar. Tarixiy mavzu gurkirab rivojlanishi kutilgan edi va bu qonuniy holdir. Zero, Istiqlol o'z tariximizga xolis va tashqi mafkuraviy tazyiqlarsiz nazar tashlashga imkon yaratdiki, bundan foydalanmaslik mumkin emasdi. Buning ustiga Respublikamizning Birinchi Prezidenti asarlarida ishlab chiqilgan milliy mafkura – istiqlol mafkurasi xalqimiz o'tmishida kechgan voqea-hodisalar, yashab o'tgan tarixiy shaxslarni qayta, chinakam baholash va badiiy yo'sinda tasvirlash zaruratini yuzaga keltirgani aniq. Birinchi Prezident "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida shunday yozgan edi: "Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman" [1:13].

Adabiyot yomonlikdan, badbinlikdan asranmog'i lozim. U hech qachon ma'naviy tahdid quroliga aylanmasligi, aksincha, bunday tahdidga qarshi faol kurashmog'i kerak. Adabiy tanqid esa hamisha ma'naviy sog'lom adabiyot tarafida qoim turishi lozim. Maqolamiz boshida bejiz tarixiy mavzuni birinchi o'rinda tilga olmadim. Bu sohada adiblarimiz g'ayrat va shijoat bilan ijod qilmokdalar. CHunonchi, O'zbekistan xalq yozuvchisi Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasi o'zbek adabiyotini haqli ravishda boyitgan asar bo'ldi. Muallif to'rt raqamining mantiq va falsafasi haqida fikr yuritib jumladan, yozadi: "Bas, Sohibqiron haqidagi kitob tetralogiya-epopeya bo'lishi va to'rt kitobning har biri ramziy ma'noda bir o'g'il ismi bilan atalishi lozim, nomi "Ulug' saltanat" deb qo'yilsin, degan qarorga keldim. Epopeyaning bosh qahramoni Amir Temurdir". Tarixiy mavzu ichki, faqat o'ziga xos qonuniyatlarga egaki, ularni o'rganish, tadqiq etish adabiyot ilmi zimmasidagi vazifadir.

Hozirgi adabiyotimiz taraqqiyotida ramz, rivoyat tarzidagi asarlar ko'plab yaratilmoqda, ayrim adabiyotshunoslar fikricha, yetakchi mavqega ko'tarilmoqda. Bu, bir jihatdan, jahon adabiyotida, o'zimizning mumtoz adabiyotimizda mavjud shunday tamoyillar ta'sirida bo'lsa, ikkinchidan, bizga yaqin meros bo'lgan sho'ro adabiyoti aqoyidlari bunday yo'lni xushlamas, unga ko'pam izn beraver-mas ediki, endi ijodiy erkinlik qo'lga kiritilgach, shu zayldagi asarlar ko'plab yaratila boshlandi. Ramz o'z tabiatiga ko'ra umumlashtiradi. Olamdagi, voqelikdagi rang-barang hodisotni obraz shaklidagi belgi holiga keltiradi. Ramzning butun mohiyati o'zi yondosh bo'lgan ushbu kategoriyalar, obraz va belgi bilan chambarchas bog'liq ravishda to'la namoyon bo'ladi.

Binobarin, ramziy tasvir jahon adabiyoti va o'zimizning mumtoz so'z san'atimizda o'z o'rni va nufuziga ega. Lekin u hech qachon jonli hayotning real

tasviri o'rnini bosmaydi. Biroq real tasvirlar, u san'at darajasida bo'lsa, albatta, keyinchalik, keyingi bosqichda ramziylik, ramziy ma'no kasb etishi mumkin, ya'ni real voqelik tasviri ramz darajasiga ko'tarilishi mumkin. Bu endi – pirovard bosqichdagi ramziylikdir.

Ramziy tasvir ham adabiyotda mavjud yo'llardan biri, bittasi, shunday ekan bu yo'l mutlaqlashtirilmasligi, adabiyotimizning yangilanish mezonini sifatida talqin etilmasligi, shunday tushunilmasligi lozim. Ramziy tasvir adabiyotning dunyoni (dunyolarni) anglash va anglatishda imkoniyati katta ekanligi haqiqat. Lekin unga ruju qo'yish, ortiqcha mayl ko'rsatish ham noo'rin. Zamonaviy voqelikni badiiy o'zlashtirish joriy adabiyot uchun hamisha qiyin kechgan. Lekin baribir jamiyat o'zining adabiyotdagi tasvirini ko'rishni istaydi va bu qonuniy istak, hatto talab. SHu o'rinda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzuridagi "Ijod" jamoat fondi tomonidan chop etilgan "Kim edigu kim bo'ldik" badiiy-publitsistik to'plamini alohida ta'kidlashni istardim. Bu kitobning fazilati hozirgi voqeligimizni turli tomondan o'rganish va tadqiq qilishda, deyish mumkin.

Bugungi adabiy jarayonda o'zbek adabiyotining ma'naviy va g'oyaviy mustaqilligi g'oyasini olg'a surish kerak. Mahdudlik yaxshi narsa emas, hozirgi globallashtirish zamonida o'z qobig'iga o'ralashib qolish imkonsiz, albatta. Lekin faqat chetga qarab adabiy ongimizni shakllantirish, faqat chetda, asosan, G'arbiy Yevropa zaminida vujudga kelgan "izm"lar bilan o'zimizga, yaratayotgan badiiy mahsulotimizga baho berish ham yaxshi emas. Unda bizga Istiqlol qaytib bergan O'zligimiz qayerda qoladi? Yana qaytarib aytamiz, gap mahdudlikda emas. "Istiqlol, adabiyot, tanqid..." kitobida adabiyotshunos I.Yoqubovning shunday fikriga ko'zim tushdi: "Milliy poetik tafakkur hosilasi bo'lgan bizning bugungi adabiyotimizda hech qanday "izm" yo'q va bo'lishi mumkin emas" [12:111].

XX asrning 90-yillari boshidan e'tiboran o'zbek xalqi o'z tarixining tamomila yangi bosqichiga kirdi. Va millat hayotining estetik ifodasi o'laroq istiqlool adabiyoti deb atalmish badiiy hodisa yuzaga keldi. Istiqlol davri o'zbek adabiyoti ko'p asrlik milliy adabiyotning mantiqiy davomi edi. Bu adabiyot milliy adabiyot taraqqiyotidagi shunchasi bir bosqich bo'lmay, qator belgilarga ega bo'lgan o'ziga xos badiiy-estetik fenomendir.

Bugungi o'zbek adabiyoti millat ahlining ko'ngli, sezimlari va ruhiyatini tasvirlashga e'tibor qaratishi natijasida inson asosiy badiiy qadriyatga aylandi. Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti chinakamiga xilma-xil adabiyot bo'ldi. Unda sinab ko'rish, ochilmagan yo'llardan yurish, hatto, xato qilish imkoniyati bor. Bu adabiyotga qanday yozish kerakligi to'g'risida ko'rsatma berilmaydi. Bu hol birovga o'xshamaydigan, o'zgalarni takrorlamaydigan o'ziga xos iste'dodlarning yuzaga kelishiga imkon yaratadi. Xilma-xil yo'nalishdagi asarlarning vujudga kelishi badiiy didi har xil bo'lgan o'quvchilarni paydo qiladi.

Bu davr she'riyatida o'tkir gap aytish, dono fikr bildirish, nasihat qilish, aql o'rgatish emas, balki inson ruhining murakkab, ismsiz manzaralarini aks ettirishga

e'tibor kuchaydi. Hissiyot qatlamlarini tadqiq qilish, odam ruhiyatidagi boy va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga urinish kuchaydi.

Milliy poeziyamiz tarixida birgina qatordan iborat butun boshli she'r hech qachon bo'lmagan. Anvar Obidjon, Tohir Qahhor, Faxriyor, Ulug'bek Hamdam shunday she'rlar yozishdi. Quvonarlisi shundaki, bunday she'rlar atama yasash yoki axborot berishga emas, balki muayyan ruhiy kayfiyatni ifodalashga, o'zgacha tuyg'u baxsh etishga xizmat qilgan: "Go'rlar qisir-tug'ishdan qolgan" (Faxriyor). Istiqlol davri she'riyatining qisqalikka intilishi shunchaki modaning ketidan quvish bo'lmay, chuqur ichki mantiqqa ega. Bu she'riyat o'quvchiga ishonch, uni badiiy so'zning iste'molchisigina emas, balki she'riy holatni tuyish, badiiy manzaralarni jonlantirish jarayonining ishtirokchisi martabasiga ko'tarishning natijasidir.

Poeziyaning o'z asl manbasiga qaytganligi, ko'ngil rozlarini, ruhiy tovlanishlarni nozik ishoralar, nazokatli ifodalar orqali tasvirlashga o'tilganligi istiqlool davri o'zbek she'riyatiga xos asosiy xususiyatlardan bo'ldi deyish mumkin.

Nasr mustaqillik davrida ham milliy adabiyotning salmoqli turi bo'lib qolaverdi. Keyingi o'n yillikda Sh.Xolmirzaev, O'.Hoshimov, O.Muxtor, T.Malik, Tog'ay Murod, Murod Muhammad Do'st, A.Dilmurod, X.Sultonov, N.Norqobilov, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqulov, T.Rustamov, Luqmon Bo'rixon, A.Yo'ldoshev, Zulfiya Qurolboy qizi singari turli avlodga mansub ijodkorlar o'ziga xos yo'sinda qalam tebratib, milliy proza taraqqiyotiga hissa qo'shdilar.

Ijodiy tajribalar qilish, kutilmagan tasvir yo'sinlarini qo'llash, badiiy ifodaning tutilmagan, yangi tamoyillaridan foydalanish o'zbek nasrining bu bosqichi uchun yetakchi xususiyatlar bo'ldi. Sh.Xolmirzaev "Olabo'ji", "Dinozavr" romanlari, "Bulut to'sgan oy", "Ozodlik", "Navro'z, navro'z" hikoyalari, N.Norqobilov "Oqbo'yin", "Qoyalar ham yig'laydi" qissalari, "Oriyat", "Quvonchli kun" hikoyalari, Sh.Bo'taev "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasi, "Darvesh" hikoyasi, Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani, O.Muxtorning tamomila yangicha ifoda usullarida yaratilgan "Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba", "Ffu", "Ayollar saltanati va mamlakati", "Maydon" romanlari, Nazar Eshonqulning jahon prozasining eng ilg'or tajribalarga tayanib, sof milliy obrazlar yarata olgan "Qora kitob" qissasi, "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Tobut shahar", "Quyun" hikoyalari, Sh.Bo'taevning "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasi tasvirning quyuqligi, inson ruhiyati qirralarini aks ettirish miqyosiga ko'ra milliy adabiyotimiz uchun yangi badiiy hodisalar bo'ldi. Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romani inson konseptsiyasiga yangicha yondashuv sababli adabiyotimizga o'zgacha havo olib kirdi.

Asr boshidan buyon “ko’rsatib berish”, “fosh etish”, “aniqlab olish” bilan shug’ullanib kelgan milliy adabiyotshunoslik asr adog’iga yetganda tadqiq va talqinga mayl ko’rsatmoqda. “Talqin etmoq-ochiq mazmundan yashirin mohiyat sari bormoqdir”,-deydi fransuz olimi Pol Rikyor. Endilikda XX asr o’zbek adabiyoti tarixi yangilanayotgan badiiy tafakkur talablari asosida qayta idrok etilib, bu davrda yaratilgan asarlarning asl mohiyatini ochishga harakat qilinmoqda. Adabiyotshunoslik uzoq vaqt mobaynida badiiy asarlarni asosan ijtimoiy nuqtai nazardan tekshirishga moslashgan bo’lsa, endi, mavjud ilmiy qoliplarni tark etaroq ularga estetik talablar asosida yondashishga urinmoqda, natijada, ko’plab bitiklarning asl badiiy qiymati, bir qator adiblarning millat estetik tafakkuri taraqqiyotidagi tarixiy o’rni xolisona belgilanayotir.

Istiqlol adabiyoti deganda asosan 90 йиллардан hozirgi kadam vujudga kelgan adabiyot anglashiladi. (Mazkur ishda asosan ana shu davrning mahsuli bo’lgan she’riy, nasriy va dramatik asarlar tahlil doirasiga kiritilgan). Bu yangi adabiyotning o’ziga xos va mos yutuqlari bor va ular tobora ko’paymoqda.

Mustaqillik davri adabiyotidagi eng katta yutuq shuki, bu davrda o’zbek yozuvchilari o’tmish va hozirgi hayotni aks ettirishda avvalgi cheklanish-chegaranish iskanjalaridan butunlay qutildilar. O’tmish hayotni ham, hozirgi hayotni ham butun borlig’i va murakkabligi bilan tasvirlash imkoniyatiga ega bo’ldilar. Chin hayot-xalq hayoti bilan aloqani yanada mustahkamlab, haq so’zni dangal yoza boshladilar.

Mustaqillikning o’tgan dastlabki yillari ko’p yozuvchilarimiz uchun astoydil izlanish va qizg’in ijod qilish davri bo’ldi. Buning dastlabki natijalari quvonchlidir. Zotan, o’tgan qisqa davrda so’z san’atining hamma janr va turlarida muayyan yutuqlar qo’lga kiritildi. Adabiyot yangi mavzular, yangi g’oya va obrazlar, yangicha talqin va tasvirlar bilan boyidi.

Mustaqillik tufayli tarixiy, madaniy, diniy, adabiy merosni qayta ko’zdan kechirish, umumbashariy qadriyatlar nuqtai nazaridan baholash tamoyili ko’chaydi. Buning kutlug‘ samarasi sifatida qadriyatlarga munosabat, tushunchalarga baho, tasavvurga nuqtai nazar o’zgardi. Dunyoqarash o’zgarayotgan ekan, tabiiyki, badiiy tafakkur yangilanishi, buning samarasi o’laroq adabiyot o’zgarishi muqarrar.

Adib dunyoqarashining ko’zgusi sifatida davr nafasini, nafis san’at taraqqiyotining bosqichlarini aks ettiradi. Keyingi yillar badiiy-estetik tafakkurdagi sifat o’zgarishlari, yangilanish xususiyatlari- bu istiqlol sharofatidir.

Xalqimizning siyosiy-iqtisodiy va ma’naviy mustaqillikka erishishi hamda uning ruhoniy asoslarini mustahkamlash jarayonidagi milliy ong takomilini o’ziga xos ko’rinishi, tarkibiy qismi tariqasida zohir bo’ldi.

Birinchidan. Hozirgi adabiy jarayondagi badiiy tafakkurning yangilansh hodisasi-XX asr tongi ijtimoiy ongda kechgan milliy o'yg'onishning o'zviy davomi, amaliy tasdig'idir.

Ikkinchidan, Ijtimoiy fikrning badiiy g'oyaga aylanishi va muayyan adabiy qahramonlar faoliyatida estetik ma'no kasb etishini san'atkor dunyoqarashidagi o'zgarishlar samarasi tariqasida kuzatish lozim.

Uchinchidan, adiblar fikrlash tarzidagi o'zgarish belgilari, estetik prinsiplarining shakllanishi va muayyan tamoyilga aylanishi sof individual fenomen.

XX asr oxiri- XX1 asr boshlarida badiiy-estetik tafakkurdagi yangilanishlar tabiatini o'zida mujassamlashtirgan mazkur qonuniyat qanday xususiyatlarda zohir bo'ldi? Yetmish yillik sho'ro davri adabiyoti sotsialistik realizm prinsiplariga (tipiklik, g'oyaviylik, sinfiylik, partiyaviylik, voqelikni revolyusion taraqqiyotda aks ettirish singari) asoslinib ma'naviy-intellektual qadriyatlar yaratishga intildi. Va, lekin, jahon xalqlari badiiyati xazinasini boyituvchi chinakam san'at asarlarini yuzaga keltirishdan ko'ra mafkuralashgan odam va jamiyat manfaatlariga xizmat qildi.

Bugungi adabiyotning mag'zini erkparvarlik g'oyalari, hurfiylik ideali, imon salomatligi, Vatan kamoli, istiqlol istiqbolini belgilovchi ijtimoiy ideal tashkil etadi..

Istiqlol adabiyotining muhim fazilatlarini o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi bir qator yetakchi tamoyillar ko'zga tashlanayotir.

Chunonchi, millatning o'z-o'zini anglashdagi, o'zlikni qadrlash va ulug'lashda, milliy iftixor to'yg'ularini shakllanishida badiiy tafakkur madaniyatining sifat o'zgarishlari namoyon bo'layotir.

Yana bir yetakchi tamoyil- bu adabilarimiz xoh tarixiy voqelikka, xoh diniy-ahloqiy g'oyalarga, xoh bugungi kunga murojaat etishadimi, mohiyatan turkiy ulus birligini, millat iqbolini, Vatan taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasi bilan ajralib turadi. Bosh ma'no- jahon xalqlarining totuvligi va hamkor hamnafasligini alqovchi bashariy g'oyalarida ham zohir bo'layotir.

Yana bir fazilati- bu badiiy tafakkurning "labbaychilikdan qutulib borayotganida ko'rinadi. O'zbek eli turkiy ulusning jahon madaniyatini boyitishdagi tarixiy xizmatlarini ko'z-ko'z etishda, umumbashariy qadriyatlar yaratishdagi badiiy-estetik izlanishlarda namoyon bo'lmoqda.

Istiqlol adabiyoti rivojining **yana bir yetakchi xususiyati** bu- inson ruhiyatining falsafiy-psixologik tahlili orqali shaxsni kamolga yetkazishda, komillik alomatlarini ulug'lashda ko'zga tashlanadi. Odamdagi odamiylikni

kashf etish ustivor tamoyilga aylanib bormoqda. Agar avvalgi o'n yilliklarda hozirjavoblik, oddiylilik, soddalik, zamonaviylilik, aktuallik, rostgo'ylik siyosiy faollik badiiyatining muhim belgilari sifatida ilgari surilgan bo'lsa, endilikda milliylik, tarixiylilik, go'zallik, ezgulik, adolat singari bashariy qadriyatlar estetik mezon sifatida badiiy tafakkurdagi o'zgarishlarni aniqlovchi va belgilovchi yetakchi mezonlar bo'lib borayotir.

Keyingi yillarda falsafiy mushohadakorlik, publitsistik da'vat, psixologik tahlil, lirik e'tirof, inkor, iqrar va hk. Usullar adabiyotimizdagi ifoda xilma-xilliklarini ko'rsatadi.

"Sharq yulduzi" jurnalida bosilgan bir maqolada muallif istiqlool davri o'zbek adabiyotini xorijiy "izm"lar orqali tasniflab chiqibdi. Nima, bizning adabiyot, ijodkorlarimiz o'sha "izm" larga moslab, muvofiqlashtirib asar yozishadimi? Shunday bo'lganida bu tasnif egasi haq bo'lib chiqardi. Lekin bu milliy adabiyotimizga hech qanday obro' keltirmaydi-ku. Yoki bu mantiqdan borsak, gurkirab rivojlanayotgan tarixiy nasrimizni qaysi "izm"ga kiritamiz.

Shu o'rinda filologiya fanlari doktori N.Jabborovning quyidagi fikri ayni muddao: "Keyingi paytda adabiy tanqidchilikda yana bir nojoiz urf ko'zga tashlanmoqda. Bu urf bizda yaratilgan badiiy asarlarni sun'iy ravishda G'arbda paydo bo'lgan "izm"larga bog'lashga intilish bilan bog'liq. Ayon haqiqat shundaki, muayyan asar saviyasi qaysidir "izm"ga aloqadorlikda emas, muallifning badiiy mahoratida namoyon bo'ladi" ("O'zAS", 2015 yil, 9 oktyabr). Joriy adabiyotimiz – jahonda erishilgan badiiy yutuqdarni sintez qilgan holda milliy tabiiy maromga qaytishi, tom o'zbekona qiyofa kasb etmog'i darkor.

Adabiy tanqidning nafaqat amaliy, balki nazariy muammolari ham bor. Istiqlool davrida adabiy tanqidning o'rni va mavqei haqida gap borar ekan, nazarimda dastlab uning g'oyaviy-estetik printsiplarini belgilab olish va batafsil ishlab chiqish lozim. Bunga jiddiy ijtimoiy talab bor. Istiqlool va dunyoning globallashuv holati mamlakatimizda yangi adabiy muhitni hosil qildi. Yangi muhitda esa adabiy tanqid o'ziga yuklatilgan missiyani uddalashi uchun, yuqorida aytilganidek, uning g'oyaviy-estetik printsiplari ishlab chiqilishi, adabiy tanqid va tanqidchilik jarayoniga izchil tatbiq etilishi zarur. Bu printsiplar, bizningcha, quyidagilar: estetik ideal (u o'zida jamiyatning oliy maqsadlarini go'zallik qonunlari asosida jamlaydi), olijanob g'oya, sof his- tuyg'u, axloqiylik va hokazo.

Adabiy tanqid yaratilayotgan va o'zbek tiliga o'girilayotgan asarlardan ushbu printsiplar tasdig'ini talab qilishga haqli, deb o'ylayman. Adabiy tanqid o'zining yuksak nuqtalarida milliy va jahoniy badiiy tafakkurning quvvat manbaidir. Zero, adabiy tanqid yaratilgan va yaratilayotgan buyuk badiiy obidalar jismu jonidagi ulug' haqiqatlar, ezgu hissiy kashfiyotlarni qayta kashf etib, insoniyatning aqliy va ko'ngil mulkiga aylantirguvchi adabiy ijod sohasidir.

Tanqid muayyan ma'noda adabiyot falsafasi, badiiy adabiyotning yuksak ma'nodagi ko'z ko'zidir. Adabiy tanqid o'z tahlilu kashfiyotlari bilan yaratilajak buyuk asarlarga zamin hozirlaydi.

Адабиётлар

1. И.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент “Маънавият”, 2008.
- Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Т.: “Маънавият”, 2000.
2. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Т.: «Шарк», НМАК, 2007.
3. Улуғов А. Асл асарлар сеҳри. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007.
4. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: “Шарк”, 2004.
5. Истиклол. Адабиёт. Танқид. – Т.: “Турон замин зиё”, 2015.
6. Н.Жабборов. Замон. Мезон. Шеърят. – Т: “Ғафур Ғулом”. 2015.

3-MAVZU: Hozirgi adabiy jarayon fanining adabiyotshunoslikdagi o'rnini. Yangilanishlar jarayonida inson mohiyati masalasi. (2 soat).

REJA:

1. Hozirgi adabiy jarayon fani haqida ma'lumot. Badiiy asar va ilmiy asar.
2. Badiiy asarning ijtimoiy hayotdagi mazmuni va o'ziga xosligi.
3. Badiiy asar – badiiy kommunikatsiya (badiiy muloqot) vositasi.
4. Yangilanish jarayonida inson mohiyati masalasi.

Tayanch so'z va iboralar: badiiy asar, badiiy muloqot, ijodkor shaxs xususiyatlari, ijodiy niyat, badiiy ijod, ilhom, badiiy asarning betakrotligi, sistem butunlik.

Adabiyotning tarbiya vositasi ekanligi, yaxshi kitob ezgulikka, yomoni esa yovuzlikka yetaklashi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Oilada ota-onalarimiz, maktabda muallimlarimiz bizga yaxshi kitob odamning qalbini tozalashini, ruhini poklashini, kayfiyatini ko'tarishini, ezgu maqsadlar sari yo'naltirishini qayta-qayta uqtirishgan. Hatto kechasi yaxshi kitobni yostig'ining ostiga qo'yib yotsang, undagi odamlar bilan gaplashasan, nimaiki niyat qilsang yetasan, deb o'rgatishgan. Bu millatimizning qon-qoniga singib ketgan oliy fazilat bo'lib, hozirgacha qadrini yo'qotgani yo'q. Ustoz adabiyotshunos Ibrohim G'afurovning “Biz adabiyotni murabbiy deb tushunamiz. Adabiyotning muallimligi uning eng qimmatli belgisidir” degan dil so'zi hammamizning yuragimizdagi gapdir. Chindan ham, haqiqiy adabiyot insonni ezgulik sari yetaklaydigan mo'tabar ustoz sanaladi. Adabiyotning ana shu o'lmas maqomini shoir Sulaymon Rahmon quyidagicha ta'riflaydi.

Adabiyot nima? Juda jo'n savol,

Kim bilmas u asli odobiyotdir.

Bas, so'rab qoldingmi, endi quloq sol:

U ruhdir, aqlidir, hisdir, uyatdir.

Globallashuv jarayoni bugungi kunda butun dunyoda taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. Bu degani Yer kurrasining biror joyida yuz bergan voqea-hodisaning boshqa barcha xalqlar va millatlar, turli davlatlar va jamiyatlar hayotiga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishidir. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotgani-ni har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar" [1:113]. Shunday ekan, bu zamonaviy ta'lim zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Zamonaviy ta'lim qanday bo'lishi kerak? U o'zida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari asosida ilm-fan yutuqlarini yoshlar ongiga singdirishga xizmat qiladigan tizim bo'lishi lozim. Istiqlol yillarida milliy ta'limni isloh qilish ana shu tamoyillarga asoslangan holda amalga oshirildiki, bugungi kunda ta'lim sohasida erishilgan muvaffaqiyatlarimiz, to'plagan tajribalar-imiz dunyo miqyosida e'tirof etilmoqda. Vatanparvarlik tuyg'usini o'stirishda adabiyot tarixi bitmas-tuganmas manba hisoblanadi. Alisher Navoiy ijodida vatanparvarlik g'oyasi yuksak badiiy kuch bilan namoyon bo'ladi. "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod obrazi biz uchun ideal shaxs timsolidir.

Vatanparvarlik o'zi tug'ilib o'sgan yurtga sadoqat, o'zi mansub bo'lgan millatga munosib farzand bo'lish, el-yurt tinchligi, osoyishtaligi, xalq farovonligi yo'lida o'zini fido qilishga tayyor bo'lish kabi fazilatlarni o'z ichiga oladi. Bu fazilatlarni kishilarda tarkib toptirishda buyuk ajdodlarimiz – To'maris, SHiroq, Alpomish, Amir Temur, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi singari xalq qahramonlari, Imom Ismoil al-Buxoriy, Najmiddin Kubro va Bahouddin Naqshband kabi ma'naviy ustunlarimiz qoldirgan meros katta ahamiyatga ega.

Amir Temurning siyosiy faoliyati, uning o'zbek davlatchiligi tarixidagi buyuk xizmatlarini o'rganish barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim tarbiyaviy vosita sanaladi. Buyuk sobhibqiron davrida Hindiston, Frantsiya, Vizantiya, Ispaniya, Angliya, Oltin O'rda, Mo'g'uliston, Xitoy kabi mamlakatlar bilan savdo-sotiq, madaniy aloqalar o'rnatilgan. Hozirgacha bu haqda yaratilgan fundamental tadqiqotlarda o'sha davr siyosiy-ijtimoiy hayotini to'la qamrab olishga harakatlar qilingan. Bu haqda G'arb ilm-fanida ham ko'plab manbalar mavjud. Bu manbalarni chuqur o'rganish bizning buyuk bobokalonimiz, sobhibqiron Amir Temur shaxsiga hurmatning olamshumul mavqeidan dalolat beradi.

Atoqli yozuvchi Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiya-epopeyasining har bir romani Amir Temurning to'rt nafar farzandi: Jahongir

Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo, SHohruh Mirzo nomlari bilan atalgan. Albatta, bu ramziy ma'noga ega bo'lib, har bir jildda ham voqealar silsilasi Amir Temur atrofida birlashgan.

Bundan olti asr muqaddam bo'lib o'tgan voqelik, ya'ni tarixiy haqiqatni badiiy haqiqat darajasiga ko'tarish yozuvchidan teran nigohni, sinchkov nuqtadonlikni talab qilishi, shubhasiz. Tarixiy manbalarga murojaat qilish barobarida, ulardan bugungi davr kitobxoniga manzur bo'ladigan jihatlarni ajratib olish oson ish emas. Muhammad Ali shu ma'noda ham tarixchi, ham adib sifatida ish ko'rganligini alohida ta'kidlash lozim. Ayni paytda ham xayrli, ham jasoratli ijodiy faoliyat sohibidir. Tetralogiya-epopeya haqida gap ketar ekan, avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, bugungi fan-texnika mislsiz darajada taraqqiy etib borayotgan asrimizda, globallashtirilgan olamda yashayotgan zamondoshlarimizga manzur bo'ladigan tarixiy-badiiy polotnoni yaratish oson emas, albatta. Bunda davr ruhini, qahramonlar dunyosini ochib berish, til imkoniyatlaridan foydalanish eng muhim masala. Bundan tashqari, Amir Temurdek buyuk siymo jahon davlatchilik tarixida muhim o'rin tutgan tarixiy shaxs sifatida tan olingan hukmdor. Muhammad Ali "Ulug' saltanat" tetralogiya-epopeyani yaratar ekan, albatta bu jihatlarni hisobga olgan.

Shuni aytish lozimki, insoniyat turli millatu elatlardan tarkib topgan hilqat. "Tomchida quyosh aks etgani"dek har bir millatu elat insoniyat tsivilizatsiyasiga, umumbashariy madaniyatga o'z hissasini qo'shgan. Buni biz tarixiy manbalar, ilmiy-badiiy meros orqali bilamiz. SHu bois tarix har bir kelgusi avlod uchun saboq maktabidir. Tarixning buyukligi shundaki, uning tarbiyaviy ahamiyati shu jihatdan ham beqiyosdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, sohibqiron Amir Temur shaxsiga va uning ulug' dahosiga e'tiboru ehtirom aynan mamlakatimizning mustaqilligi yillarida amalga oshirilganligini har birimiz his qilib turibmiz. Tarixiy haqiqat o'zlikni anglash jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Amir Temurdek jasoratli inson hayotini o'rganish millatning o'zligini anglashini ifodalaydi.

"Ulug' saltanat" tetralogiya-epopeyasining "Shohruh Mirzo" nomli to'rtinchi jildi Amir Temur siyosiy faoliyatining eng faol davri va intiho topishini o'z ichiga olgan. SHu bois buyuk hukmdor Amir Temur va temuriy shahzodalar bilan bog'liq tarixiy voqealar o'z ifodasini topgan. Avvalo shuni unutmaslik kerakki, Amir Temur juda katta hududlarni oqilona siyosat bilan o'ziga bo'ysundirgan, millatlarning boshini qovushtirgan hukmdor. Albatta, shunga mos ravishda davlat va raiyatni boshqarish taqozosi Amir Temur siyosatining mezonini hisoblanadi. U hukmdorligi ostidagi viloyatlarni farzandlari va nabiralari ixtiyoriga berib, idora qilgan. Ammo idrok-salohiyatlari turlicha bo'lgan farzandlar va nabiralarning barchasi ham bu ishlarning uddasidan omilkorlik bilan chiqqan deb bo'lmaydi. Hukmdor ota va farzand, hukmdor bobo va nabira munosabatlari g'oyatda

murakkab kechganligi tarixdan ma'lum. Asarda ana shu murakkab taqdir egasi Amir Temur hayoti bor bo'yicha ko'rsatib berilgan.

Mazkur jildda Amir Temurning uchinchi farzandi Mironshoh Mirzoning ayshishratga berilib, o'zi boshqarayotgan viloyatda boshboshdoqlikka yo'l qo'yilganligi, og'ir vaziyat vujudga kelganligi tasvirlanadi. Oqibatda Amir Temur o'zining harbiy rejalarini orqaga surib, Eron zaminiga katta qo'shin bilan yurish boshlaydi. O'g'li Mironshoh Mirzoga nisbatan jazo berish kabi voqealar asarda qiziqarli yoritilgan. Bunda hukmdor qalbida kechayotgan kechinmalarni his qilish mumkin.

Samarqandda qolgan va valiahd nabirasi Muhammad Sultonning o'zboshimchalik bilan Jetega qo'shin tortish niyatida Turkistonga kelishi vaziyatni yanada chigallashtirishga sabab bo'ladi. Ayni shu paytda Andijonda hokimlik qilib turgan shahzoda Iskandar Mirzo tomonidan qo'shinning Jetega undan oldinroq yo'lga chiqqanligi ma'lum bo'ladi. Bu kabi harbiy ishlarning maslahatsiz, o'zboshimchalik va o'ylamasdan amalga oshirilishi, shuhratparastlik ilinjida qilinishi Turon hukmdori Amir Temur hayotining qanchalik murakkab kechganligini ko'rsatadi. Axir davlatda parokandalik, har kim o'z bilganicha ish tutsa, buning oqibati yaxshilik bilan tugamasligi ma'lum. Bu voqealar asarda to'laqonli yoritib berilgan.

Asarda Amir Temurning zakovatli o'g'li, Xuroson hokimi Shohruh Mirzo hayoti bilan bog'liq qiziqarli voqealar tasviri tetralogiyaga o'zgacha zeb berib turibdi. Shuni aslo esdan chiqarmaslik kerakki, Shohruh Mirzo temuriylar saltanatining hukmdorlaridan biri buyuk astronom olim Mirzo Ulug'bekning otasidir. Mirzo Ulug'bekning Samarqandda ilm-fan sohasidagi ulkan ishlariga bosh-qosh bo'lganligi, buyuk olimlik darajasiga yetganligi, "Samarqand akademiyasi" ning ilm-fanda erishgan yutuqlari hamon dunyoni hayratga solib kelayotganligi hammamizga ma'lum.

Amir Temur muzaffar shoh sifatida tarixda qoldi. Uning muzaffarlik tug'ini hamisha baland tutganligi adolatli siyosat yuritishida asosiy o'rinda turgan. U zafar qozonar ekan, hech qachon mag'lub tomonga nisbatan g'oratlik yo'lini tutmadi. Aksincha, obodonchilik, qurilish, savdo-sotiq, hunarmandchilik ishlarini rivojlantirishga kuch berdi. Albatta, asarni o'qir ekansiz, mamlakat poytaxti Samarqandda va butun saltanat hududida olib borilgan bu kabi bunyodkorlik ishlarining go'yo guvohiga aylanassiz.

Asarning badiiy va tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritgan akademik B.Nazarov shunday deydi: "Badiiyatdagi "ong oqimi" deyilganda, darhol g'arb modernizmi, xususan, Kafka, Prust, Joys, Folknerlarni yodga olamiz. "Ong oqimi"ning o'ziga xos milliy, adabiyotdagi o'zbekona ko'rinishlari bo'lishi mumkinligiga "Ulug' saltanat"ning to'rttala kitobini o'qib ishonch hosil qilamiz.

Bu o'rinda, ayniqsa, Amir Temurning o'nlab ichki monologlari o'zining badiiy ko'rkamligi, falsafiy teranligi bilan ajralib turadi" [2:16]. "Ulug' saltanat" tetralogiya-epopeyasi tarixiy-badiiy polotno darajasiga ko'tarilishi bilan ma'lum tarixiy davrni bugungi globallashgan dunyo manzarasida ko'rsatib berganligi madaniy hayotdagi muhim voqea hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan biri o'tmish madaniy-ma'naviy merosimiz asosida milliy qadriyatlarimizni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda yosh avlodni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdir. Vatanga sadoqat, fidoyilik, mustahkam e'tiqod yoshlarimizni hech qachon globallashuv jarayonining salbiy illatlari ta'siriga tushib qolishlariga yo'l qo'ymaydi.

Адабиётлар

1. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Т.: "Маънавият", 2000.
2. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Т.: «Шарк», НМАК, 2007.
3. Улуғов А. Асл асарлар сеҳри. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007.
4. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: "Шарк", 2004.
5. Истиқлол. Адабиёт. Танқид. – Т.: "Турон замин зиё", 2015.
6. Н.Жабборов. Замон. Мезон. Шеърят. – Т: "Ғафур Ғулом". 2015.
7. Назаров Б. Барҳаёт асар (сўзбоши) / Мухаммад Али, "Улуғ салтанат", Эпопея, биринчи китоб. "Жаҳонгир Мирзо" – Т.: "Sharq", 2014.
8. Маҳаммад Али. Улуғ салтанат. – Т.: "Шарк", 2003-2013.
9. Тўраев Д. Улуғ салтанатнинг ёрқин саҳифалари. . –Т.: "Ўзбек тили ва адабиёти", №3, 2016.

4-MAVZU: Globallashuv davri o'zbek adabiyoti. Mustaqillik davrida yaratilgan asarlar. **(2 soat).**

REJA:

1. XXI asr va o'zbek adabiyoti.
2. Adabiyotimiz oldida turgan muhim vazifalar haqida.
3. Yozuvchi va kitobxon masalasi davlatimiz diqqat-markazida.
4. Bugungi kunda yaratilayotgan asarlar va ularning mavzu ko'lami.

Tayanch so'z va iboralar: globallashuv jarayoni, mustaqillik davri adabiyoti, mafkura, asar kompozitsiyasi, badiiy asar va kitobxon, badiiy til, obraz, lirika, g`oya, badiiy asar, ilmiy asar, konflikt.

80-yillar o'rtalaridan sobiq sho'rolar davlatida keskin siyosiy o'zgarishlar yuzaga keldi. Tarixga "qayta qurish" nomi bilan kirgan bu jarayon dunyoning oltidan bir qismini egallagan ulkan mamlakatni etmish yil davomida idora qilgan bolsheviklar tuzumini yemirdi, qizil imperiya qo'l ostidagi yuzlab millat va elatlar oldida o'z taqdirini o'zi belgilash imkoniyati tug'ildi. Oshkoralik va matbuot erkinligiga yo'l qo'yilgani tufayli yaqin tarixning benihoya qonli sahifalari ochildi, millionlab begunoh

qurbonlar jasadi ustiga zo'rlik bilan qurilgan "sotsialistik" tuzumning asl mohiyati namoyon bo'ldi. Mumtoz adabiy meros, ayniqsa sho'ro davri adabiyotiga yangicha qarash, avvalgi baholarni qayta ko'rib chiqish, ilgari nomini tilga olish ham xavfli sanalgan ijodkorlar va ularning asarlari xususida adolatli fikrlash mumkin bo'lib qoldi. Xususan, o'zbek adabiyoti tarixida ma'lum va mashhur ijodkorlardan tashqari ular bilan hamnafas yashab ijod etgan, shunchaki adabiy mashqlar emas, mumtoz san'at namunalarini yaratgan Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Husayn Boyqaro (Husayniy), Burhoniddin Rabg'uziy, Abulg'ozi Bahodirxon, So'fi Olloyor, Amiriy, Feruz, Avloniy, Behbudiy, Cho'lpon, Fitrat, So'fizoda, Ibrat, Nodim va yana o'nlab ijodkorlar merosi qayta nashr etildi, ilmiy-estetik tahlilga tortildi. Mustaqillik tufayli yanada kuchaygan bu yangilanishlar zamonaviy adabiyotga, haqiqatni cho'chimay yozishga, ijod erkinligiga tashna yozuvchi va shoirlarga ham zarur imkoniyatlarni tug'dirdi. Qisqa davr ichida adabiyotning barcha tur va janrlarida hayotni ro'y-rost, murakkabligi bilan tasvirlagan, ijtimoiy-ma'naviy adolatsizlik, xo'rlik va qullik sharoitida majruhlanirilgan inson ruhiyatini ilgari ko'rilmagan nuqtayi nazardan tahlil etgan o'nlab yaxshi asarlar dunyoga keldi. Milliy ong shakllanishi, ma'naviy o'z-o'zini tanish, erkin ruhni tarbiyalash ishiga safarbar etilgan adabiyot iste'dodli vakillari qiyofasida iqtisodiy, siyosiy hayotning barcha muammolariga faol aralashdi, o'zining salmoqli fikrini jamiyat qatlamlariga singdira oldi. Adabiyotshunoslikning bosh mavzusi inson bo'lgani uchun insonning xilma-xil holat, harakat, intilishlari badiiy asarning materiali bo'ladi.

XX asr oxiri –XXI asr boshlari istiqlol davri badiiy-estetik tafakkuri siyosiy lashmagan, umumbashariy qadriyatlarga tayangan azaliy va abadiy o'zanlarga qaytishida shoir yozuvchilarimiz faoliyati ham salmoqli mavqega ega. Adiblarimiz nafaqat adabiy ijodda, balki badiiyat nazariyasini yaratishdagi faoliyatlari bilan ham istiqlol madaniyatining ma'naviy asoslarini mustahkamlashga, istiqlol estetikasining nazariy printsiplarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

XX asr boshlarida Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriylar avlodi zimmasiga realistik adabiyot nazariyasini, estetik printsiplarini shakllantirishdek tarixiy vazifalar yuklatilgan edi. Ular yaratgan o'nlab asarlar realistik tasvir madaniyati asoslarini belgilashda tamal toshi vazifasini o'tadi. SHunga monand istiqlol yillarida ham adiblarimiz badiiy so'z san'ati – istiqlol adabiyotining estetik nazariyasini yaratishdek mas'uliyatli vazifani ado etishmoqda. Bu borada I.Sulton, Zulfiya, O.Yoqubov, P.Qodirov, A.Muxtor, Shukrullo, Sh.Xolmirzaev, A.Oripov, O'.Hoshimov, R.Parfi, U.Nazarov, X.Do'stmuhammad, S.Sayyid, H.Xudoyberdieva singari adiblar-ning adabiy qarashlari, nuqtai nazarlarini alohida ta'kidlash joiz. Muhimi, ularning adabiy-tanqidiy fikrlari badiiy so'z estetikasini, san'at falsafasini yaratishga qaratilgani, bashariy

qadriyatlar maqomiga mansubligi bilan e'zozli, e'tiborli. P.Qodirovning «Badiiyat mezonlari», Sh.Xolmirzaevning «Adabiyot o'ladimi?», O'.Hoshimovning «Ong va tuyg'u» singari maqolalari so'z san'atining nazariy masalalarini yoritishga bag'ishlangan. Ular yozuvchi kim, adabiyotning ijtimoiy-estetik vazifasi nimalardan iborat, qanday badiiy asar asl adabiyotga mansub, qaysilari «ko'cha adabiyoti-fahsh, oldi-qochdi, nayrangbozlik adabiyoti»ni gullatayapti, degan savollarga javob berishga intiladi. Yozuvchi shaxsi, iste'dodining jamiyat, millat va tarix oldidagi mas'uliyati masalalari alohida o'rin tutadi. Yetmish yil davomida sho'rolar san'atni siyosatlashtirdi, iste'dodlarni kommunistik mafkura dastyoriga aylantirib qo'ydi. Kommunistik tuzum aravasiga o'tirg'izib olgandan keyin hukmron mafkurani targ'ib etuvchi ashulasini ham ayttdi. «Kecha qulagan istibdod tuzumi olamda bo'lmagan. Axir, u odamzodning irodasini bukish, ruhini sindirishga qaratilgan edi», deb yozadi Shukur Xolmirzaev «Adabiyot o'ladimi?» maqolasida [1:74]. Darhaqiqat, shoir-yozuvchilardan pedagog-tarbiyachi, propagandist-targ'ibotchi, siyosatchilik talab etilar edi. Aksariyati ushbu vazifalarni o'z shaxsida mujassamlashtirgan holda bekami ko'st ado etishdi. Istiqlol davri yozuvchilarimiz estetik qarashlarida ijodkor shaxsiyati va iste'dod tabiati, so'z san'atining mohiyati bashariy qadriyatlar maqomida o'rganilayotir, baholanayotir. To'g'ri, har bir davrdagi estetik kontseptsiyalar tabiatan u yoki bu darajada ijtimoiy fikrlarni ifodalaydi. Ya'ni, har qanday falsafiy-mafkuraviy tizimlar ijtimoiy yo'nalishga ega. Aslida, sho'ro mafkurasi inson va jamiyat faoliyatini siyosatlashtirgan edi. Shukur Xolmirzaev «Adabiyot o'ladimi?» maqolasida masalaning ana shu nozik jihatiga diqqatni qaratadi. Siyosiy g'oyalar, siyosatlashtirilgan nuqtai nazarlar orasidan asl adabiyotni sof san'at namunalarini ajrata bilishga undaydi. Istiqlol davri adabiy-tanqidiy ilmi erishgan yutuqlardan biri – badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan adiblar hayoti va ijodini, badiiyatini shaxsiyati – dunyoqarashi bilan bog'liqlikda tadqiq etuvchi fan tarmoqlari vujudga keldi. Navoiyshunoslik, boburshunoslik, furqatshunoslik, hamzashunoslik, oybekshunoslik singari yo'nalishlar silsilasida qodiriyshunoslik, cho'lponshunoslik, fitratshunoslik ham alohida halqalardan biri bo'lib qoldi. Adabiyot ilmidagi yana bir muhim tamoyil – oliy va o'rta ta'lim tizimida adabiyot o'qitish saviyasini yuksaltirish, milliy ong takomili bilan bog'liq. Nafis adabiyot zimmasidagi vazifalar g'oyat mas'uliyatli. Xususan, ijodkor fenomeniga, badiiy adabiyotga, adabiy asarga, adabiy jarayonga tarixiylik hamda estetik tuyg'u nuqtai nazaridan yondashish va baholash taqozo etiladi. So'z san'atkorlarining ijodiy izlanishlari bilan adabiy asarlarini tarixiy shart-sharoit, ijtimoiy-ma'naviy muhit mahsuli sifatida tahlil madaniyati shakllanib bormoqda. «Har bir badiiy asar, - deb yozgan edi Hegel o'zining «Estetika» asarida, - o'z davriga, xalqiga va o'z

muhitiga mansub; ushbu jarayonda u ko'p jihatdan alohida tarixiy va boshqa tasavvurlarga ijodiy maqsadlarga daxldor".

Shu ma'noda, badiiy adabiyot o'z burchini tarixiy taraqqiyot bosqichlarida u yoki bu yo'lboshchilar sha'niga madh-sano yozdirishdan, hukmron mafkuralarga dastyorlik qilishdan iborat, deb bilgan emas. U tabiat –jamiyat-inson tirikligining ma'naviy ildizlarini tadqiq etishga qaratil-gan; badiiylik mundarijasiga ko'ra "millatning ma'naviy ustoz" (Gegel ta'biri) deyishga hamisha haqli.

Badiiy-estetik tafakkur masalalarini go'zallik, fojeliq, ezgulik singari bashariy qadriyatlar, shakl va mazmun birligi, adabiy janrlar xilma-xilligi va uslubiy yo'nalishlar, badiiy til va ifoda vositalari (o'xshatish, metafora, timsol va h.k.) nuqtai nazaridan o'zlashtirish, xulosalar chiqarishi bugungi adabiy jarayonning tabiiy ehtiyojiga aylandi. Mazkur tamoyil XX asr oxiri XXI asr boshlari adabiy – madaniy hayotini, badiiy asarni tanlash hamda tushuntirishdagi nazariy-metodologik kontsepsiyasi bilan e'tiborli. Mazkur fazilat quyidagi tamoyillarda zuhur topmoqda.

Birinchidan, istiqlol davri adabiy jarayoni bir necha ming yillik SHarq madaniyati, mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotining tarkibiy qismi, turkiy ulus ma'naviyatining uzviy bo'g'ini sifatida baholanmoqda.

Ikkinchidan, Abdulla Qodiriydan Xurshid Do'stmuhammad asarlarigacha, Cho'lpondan Rauf Parfigacha istiqlol davri adabiy hodisalari jahon adabiyoti kontekstida o'rganilmoqda. Turkiy xalqlarning mushtarak milliy madaniyatlarini rivojlantirishdagi o'rni va roli, jahon xalqlari badiiyatini boyitishdagi ahamiyati bilan uyg'un holda kuzatilmoqda.

Uchinchidan, badiiy adabiyot, adabiy asar "sof san'at"ning bir belgisi emas, ijtimoiy, falsafiy, ma'rifiy-axloqiy mohiyati bilan go'zallik hodisasiga mansub, degan nuqtai nazar ustuvor.

Adabiyotlar

1. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – T.: "Ma'naviyat", 2000.
2. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: «SHarq», NMAK, 2007.
3. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: "SHarq", 2004.
4. Istiqlol. Adabiyot. Tanqid. – T.: "Turon zamin ziyo", 2015.
6. N.Jabborov. Zamon. Mezon. She'riyat. – T.: "G'afur G'ulom". 2015.
7. Xolmirzaev. Sh. Adabiyot o'ladimi? – T.: "Tafakkur" jur., 1998 yil, 2-son
8. Rahimjonov.N. Istiqlol va bugungi adabiyot. – T.: "O'qituvchi" 2012.

5 – MAVZU: Hozirgi o'zbek she'riyatida janrlar, ularning asosiy xususiyatlari.

REJA:

1. Hozirgi o'zbek she'riyati haqida ma'lumot.

2. Adabiy turlar va janrlarning so'z san'atidagi o'rni va ahamiyati.
3. Aristotel "Poetika"sida adabiy turlar va janrlar to'g'risida.
4. Janrlar haqida ma'lumot.
5. Lirik tur va uning janrlari.
6. Hozirgi she'riyat janrlari va ularning asosiy xususiyatlari haqida.

Tayanch iboralar: adabiy tur, epik tur, janrlar, epopeya, latifa, ertak, hikoya, novella, ocherk, doston, roman, povest, lirika, g'azal, qasida, qo'shiq, qit'a, ruboiy, tuyuq, fard, janr, muammo, liro-epik janrlar.

Istiqlol yillarida o'zbek she'riyati hajmi va mavzusi singari janrlar, vazn shakllari jihatidan ham rang-barang bo'ldi. Davr she'riyatidan aruz, barmoq va sarbast vaznlarining har uchalasiga namuna izlab topish mumkin. Ammo zamonaviy she'riyatning yetakchi vazni sifatida baribir barmoq vaznini tilga olish mumkin. Ushbu vaznning 7, 9, 11 hijoli shakllarida she'rlar ko'proq yozilganligini kuzatish mumkin. Barmoq vaznida yozilgan she'rlar ichida, ayniqsa, 2, 4, 6, 8, 10 bandlilarida sermahsulroq ijod qilindi. Ammo ba'zi she'rlarni mutolaa qilish orqali barmoq vaznining shakliy-badiiy xususiyatlarida o'zgarishning guvohi bo'lamiz, erkin va barmoq oralig'i-dagi she'rlar ko'paydi. Bo'g'in, hijo, turog'i, qofiyalanishi aniq, ammo misralari zinapoya shaklida joylashtirilgan she'rlar; bo'g'in, turog'i aniq qofiyalanishida notekislik aks etgan she'rlar; qofiyasi aniq bo'g'inlar soni yoki turoqlar tartibi notekis joylashtirilgan she'rlar bugungi she'riyatimizning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Bunday holatni mustaqillikdan keyingi davrda, ijodkorlar qalamiga berilgan erkinlikning natijasi sifatida baholash mumkin.

Aruz vazni sobiq Sho'ro davrida yo'qotgan mavqeini tiklab oldi. Garchi she'riyatning bosh vazni darajasiga o'sib chiqmagan bo'lsa-da, o'zining tegishli o'rniga ega bo'ldi. Aruz imkoniyatlarini o'z she'rlari orqali namoyon etishga urinuvchi ko'plab shoiru shoirlar etishib chiqdilar, hattoki aruzda yozilgan she'rlarini to'plam holida chop ettirganlar ham bo'ldi. Ushbu vaznda zamonamiz she'riyati-ning yetakchi vakillaridan tortib yosh qalamkashlargacha o'zlarini sinab ko'rdilar. Ulardan A.Oripov, E.Vohidov, S.Sayyid, H.Xudoyberdieva kabi birqancha ijodkorlar nomlarini sanab ko'rsatish mumkin. Ushbu vaznning keng tarqalgan ko'rinishlari sifatida yana o'sha hazaj, ramal, rajaz bahrlarini tilga olishimiz mumkinki, davr she'riyatining aksariyat namunalari shu bahrlar orqali hosil qilinuvchi vaznlarga to'g'ri keladi.

Bugungi o'zbek she'riyatida mumtoz she'r va uning yetakchi vazni bo'lgan aruzdan foydalanish ikki xil tarzda kechmoqda:

1. Mumtoz she'riyat janrlari aynan aruzning qaysidir vaznida yozildi.

2. Ayrim she'rlar mumtoz she'riyatda odatda aruz vaznida yoziladigan g'azal, ruboiy, tuyuq, hatto nazira tarzida bog'langan bo'lsa-da, uning vazni barmoqqa to'g'ri keladi. Masalan, Azim Suyun, Zulfiya Mo'minovalarning ayrim she'rlari aynan shunday usulda yozilgan. Zulfiya Mo'minova o'zining bir she'riga Zahiriddin Muhammad Boburning:

*Jahondin menga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa,
Ne g'am, yuzmuncha ham bo'lsa, seningdek g'amgusorim bor.*

satrlarini epigraf qilib oladi va xuddi shu "bor" radifi hamda shoir g'azaliga mos qofiyalanish tartibiga rioya qilgan holda unga nazira bog'laydi. Ammo she'r vazni an'anaviy mumtoz g'azallardagi kabi aruzda yozilmagan:

*Qizilguldek qirqilsa, jonkim oh urar, kimlar terar,
Qirq jonimni qaytib berar seningdek jon nisorim bor.*

Barmoq vaznidaligidan qat'i nazar she'r nihoyatda ohangdor, mazmunli va o'quvchining diqqatini tortadigan bir ifoda tarziga ega. Zulfiya Mo'minova Bobur ifodalagan poetik fikrni davom ettirar ekan, ustoz shoir izhor etgan ma'shuqaga oshiqning cheksiz shaydoligi va sadoqati, ishonchi bayoniga qo'shimcha ravishda (bunda seviluvchi shaxs erkak kishi) yuksak darajadagi ulug'vorlik, suyanch bo'lishga loyiq shaxsriylik sifatlariga ko'proq urg'u beradi. SHoiraning so'z tanlash mahorati, betakror ifoda tarzi g'azalning aruzda yozilmaganligi aybini to'sib qoladi va bu holat bugungi o'zbek she'riyatining yana bir o'ziga xosligi tarzida namoyon bo'ladi.

Erkin vazndagi she'rlarga namunalar ham juda ko'p bo'lmasa-da hozirgi she'riyatimizda tez-tez uchrab turadi. Sho'ro davridagi kabi nuqul his tuyg'uga boy ko'tarinki ruh va shodiyonalik aks etgan pafosni o'ziga singdirgan dabdabali she'rlar emas, balki lirik qahramon ning shaxsiy holatlari, qolaversa, ko'proq dolzarb ijtimoiy-falsafiy, odamzot taqdiri va uning tanazzuliga sabab bo'luvchi fojialar haqida bahs etuvchi jiddiy mavzudagi ishe'rlar sarbast vaznida yozildi. Masalan, Miraziz A'zamning quyidagi she'ri erkin vaznda yozilgan:

*Men bir yomg'ir bo'lib yog'gim keladi
O'zbekiston yerlariga
Men keksa chinorlarning salobati bo'lib
Qayrag'ochning metinligi bo'lib
Yashagim keladi O'zbekistonda.*

Ushbu she'r vatanparvarlik mavzusida bo'lib, uning bo'g'inlari soni, qofiyalanish tartibi, qolaversa, ohangi ham erkin vaznda yozilganligini ko'rsatib turadi.

Shuningdek, bugungi o'zbek she'riyatida Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Azim Suyun, Shahriyor, Ikrom Otamurod, Bahrom Ro'zimhammad kabi otash qalb ijodkorlar erkin vazn taraqqiyotiga samarali hissa qo'shdilar.

Zamonaviy she'riyatimiz janrlari masalasiga keladigan bo'lsak, ularning nihoyatda

xilma-xil ekanligiga guvoh bo'lamiz. Aruzda g'azal, qasida, fard, qit'a, muxammas, musaddas, masnaviy, ruboiy, tuyuq kabi mumtoz she'riyatning deyarli barcha janrlariga namunalarni, hattoki taxmisu naziralarni uchratish mumkin.

Barmoq vazni imkoniyatlaridan foydalanish asosida yuzaga keladigan janrlardan esa to'rt bo'g'inlidan o'n olti bo'g'inligacha bo'lgan she'riy namunalar kuzatilishini ta'kidlasa bo'ladi. Shuningdek, hozirgi zamonda xokku, tanka, sonet kabi G'arb adabiyoti orqali kirib kelgan janrlarga namunalar ham bor. Bular ichida uchliklar, ayniqsa davr she'riyatining asosiy janrlari qatoriga qo'shildi. Ma'lumki, zamonaviy ko'rinishdagi, barmoq vaznida yozilgan she'rlar ichida adabiyotimizning yaqin tarixida uchlik shaklida yozilgan she'rlar deyarli uchramasdi. Bugungi davrga kelib esa bu janr o'zining ko'plab namunalariga ega bo'ldi. Masalan, Rauf Parfi ushbu janrning salmog'ini o'zbek she'riyatida yanada boyitdi. Qolaversa, H.Sharipov, Fahriyor, M.Toirov va shularga o'xshash ko'plab ijodkorlar falsafiy, ijtimoiy, abadiy mavzulardagi fikrlarini shu janr imkoniyatlaridan foydalanish asosida bayon etdilar. Shoiri Farida Afro'z esa "Tasbehlar" nomli to'plamidagi she'rlarini aynan uchliklar asosida yaratdiki, bu janrning alohida to'plamlarni to'ldirish darajasida mavqei oshganligini kuzatish mumkin. Shuningdek, bugungi o'zbek she'riyatida ayniqsa, sonet, to'rtlik, sakkizlik vaznlarida yozilgan she'rlarga namunalar ko'p uchraydi. Ayniqsa, sonet modern she'riyatda qalam tebratayotgan shoirlar uchun badiiy mazmunni ifodalashda eng qulay poetik shakl vazifasini o'tadi, desak, yanglishmasmiz. Masalan, birgina shoir Faxriyor ijodiga mansub "Ayolg'u" to'plamini kuzatadigan bo'lsak, undagi 38 ta she'r aynan shu vaznda yozilgan. Xulosa qilib aytganda, istiqlol davri she'riyati shakl jihatidan ham rang-baranglashib, taraqqiy etib bormoqda.

Ulug' nemis mutafakkiri Gyote "*Shoir lirikada benihoya ko'p rol ijro etuvchi aktyordir*" degan edi. Hozirgi she'riyatimizning yetakchi tamoyillarini belgilab berayotgan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Usmon Azimov, Xurshid Davron, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayidov, Eshqobil Shukurov, Farida Afro'z, Halima Ahmedova, Iqbol Mirzo kabi shoirlarning keyingi yillarda yaratgan she'rlari bu fikrimizni to'la tasdiqlaydi, deb barilla ayta olamiz. Bular Mustaqillik yillarida barakali ijod qilishayotgan bo'lsada, A.Oripov, E.Vohidov, R.Parfi, H.Xudoyberdiyeva, Sh. Rahmon, Muhammad Yusuf kabi mashhur shoirlarimiz bugun oramizda yo'qlar, lekin asarlari bilan mangulikkka muhrlanib qolaveradilar. Bugungi she'r hayot qadar rang-barang va murakkab, an'anaviy va kutilmagandir. Unda yuz yillardan so'ng qayta mustaqillikka erishgan, biroq erkning tamini unutib yuborgan xalqqa ajdodlar ruhidan madad iltijosi, qizil imperiyaning jon talvasasi qurboni bo'lgan shahidlar timsolidagi ibrat bedorlikka chaqiruv, "to'rdagilar hokimu mutlaq, pastdagilar yumuqko'z" zamonada sarson kezayitgan devonani haqgo'y ruhidagi qaysarlik manzaralari bo'rtib ko'zga tashlanadi.

Lirikada inson hayoti, muhabbati va nafrati, sevinchi va iztirobi, qalb qo`ri o`zining lirik ifodasini topadi. Lirik asarlarning sertsirligiii oshiruvchi muhim xususiyatlardan biri sub'yektivligidir. She'riyatda tasvirlanayotgan voqea va hodisalar ijodkorning ichki dunyosi orqaln o`z ifodasnii topadi. She'riyatdagi shoirning nchki kechinmalari o`quvchi nazarida o`zining shaxsiy kechinmalariga aylanadi. Shuning uchun bo`lsa kerak shoir bilan o`quvchi o`rtasida o`ta yaqinlik paydo bo`ladi. Lekin ijodkordagi shaxsiy kechinmalar ham ko`pchilk uchun xizmat qila olgandagina o`quvchi qalbidan joy oladi. Barcha badiiy asarlardagi kabi lirikada ham mazmun ijtimoiy ahamiyat kasb etmog`i kerak.

She'riyatda shoir o`zi boshidan o`tkazgan voqea va hodisalarni, xayoliga kelgan biron muhim fikrni yoki o`zining boshidan o`tadigan voqealarni ham ishonarli qilib bayon etish mumkin. Masalan shoir A. Oripovning «Birinci muhabbatim» she'rini o`ta shaxsiy, avtobiografik ruhdagi she'r yoki har qanday o`quvchining his-tuyg`usiga aylana olgan she'r deyishimiz ham mumkin.

*Kecha oqshom falakda, oy bo`zarib botganda
Zuhro yulduz miltirab, xira xanda otganda
Ruhimda bir ma'yuslik sokinlik uyg`otganda
Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim,
Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.*

Boshqa badiiy asarlarda bo`lgani kabi lirikada ham syujet mavjuddir. Lirikada syujet ifoda etilmoqchi bo`lgan badiiy g`oyaniig rivoji tarzida maydonga keladi.

... So`nggi yillar she'riyatimizga nazar tashlasak, inson hayotidagi hissiy holatni, alam-iztiroblarga to`la onlarni tasvirlashga o`ziga xos yo`sinda yondashishga harakat qilinayotgan badiiy ijod namunalarini uchrayotgani e`tiborlidir. Xususan, bugungi she'riyatimizning taniqli vakili Zebo Mirzaeva ijodida hijron motivlari o`ziga xos badiiy talqinda namoyon bo`lmoqda. Bu shoira she`rlaridagi jismoniy o`limga bog`liq bo`lmagan, vafosizlik, oshiqning yordan zorlanishi emas, aksincha, yorning oshiqdan ozorlanishidan tug`ilgan hijron talqini masalasidir. Zebo Mirzoda bevafoqlik, g`anim, ag`yorning makr-hiylasi, goh esa oshiqning o`zi nazarda

tutiladi. Shoirada hijron motivi kitobxonning qalbiga chuqur bir dard bilan kirib boradigan, qalbini larzaga soladigan tarzda namoyon bo`ladi. Shoira she`rlaridagi hijron to`rt obraz: oshiq, yor, ag`yor, Olloh bilan bog`langan. U faqat Ollohg munajaat qiladi. Dardiga, baxtu baxtsizligiga Haqdan najot tilaydi. Unga talpinadi, zorlanadi. Ishqini, iztiroblarini, sog`inchini butunicha u bilan baham ko`radi:

*Qavs bog`lariga tun tushayotir,
Yurakni bir sog`inch o`rtadi yomon.
Hech kimga bildirmay uning yoniga
Borgim kelyapti, Xudojon! [1:17]*

She'rdagi oshiq suyuklisi uchun o'zi yozganidek "jannat ko'klaridan" tushib kelmoqqa-da tayyor. Tangri uni ne ko'yga solsa ham rozi. Faqat yoridan ayirmasa bo'lgani. Shuning uchun ham: "Qayda qilsang qilgin, ne qilsang qilgin, meni mahrum etma undan, xudojon!, – deya nola qiladi.

Ko'ngil yolg'izlanib, mahramsiz qolar ekan, Ollohdan yupanch qidiradi. Butun borlig'i-la unga talpinadi:

*Gulning ovozini eshitgim kelar
Yomg'irning tushini ko'rgim keladi.
Yaproqqa aylanib Odam tilida
Sen bilan gaplashgim kelar, Xudoyim! [2:34]*

Shoira she'rlaridagi, qahramon nutqida o'z taqdiri ustidan o'zi hukm chiqarish, ya'ni o'zini o'zi o'limga hukm etmoqlik – Yaratganga isyon tasvirlari ham bot-bot uchrab turadi. Shoiraning bir she'rida oshiq qalbida «Nimaga sevdirding uni» deya g'alayon ko'tarilib, Tangrini so'roq qila boshlasa, boshqa bir she'rida lirik qahramonning Haqqa isyoni borgan sari kuchayib boradi:

*Men uning hammadan yashirgan siri,
Jon ichida joni bo'lgim kelyapti.
Lablarining qaynoq haroratidan
O'lgim,O'lgim,O'lgim kelyapti!.. [1:17]*

Yoki keyingi bir she'rdam ham yuqoridagi manzaraning davomi aks etgandek:

*...Sizni eslolmayman,
Sizni eslasam,
Do'zaxiy og'riqlar keladi bosib.
Dunyomni qoplaydi qop-qora tuman,
O'lgim,O'lgim kelar...O'zimni osib!.. [2:56]*

Zebo Mirzo bu kabi she'rlarida yorning vafosizligidan, uning sevgisiga munosib javob olmayotganidan ozorlanadi. Shoira ijodida esa, yorga buyuk ishq bilan talpinish bilan birga, gohida nafrat, uni o'zidan uzoqlashtirish, gohida unga yana intilish tasvirlari uchraydi:

*Keting, sizga ehtiyojim yo'q,
Sevib bo'ldim sizsiz o'limni.
Yana ming yil yashasangiz ham
Tushunmaysiz mening ko'nglimni.
Kutmang, sizga bermayman ortiq,
Umrinning bir lahzasini ham
Yuragimni yulib tashlayman,
Azoblarga topaman chidam. [2:65]*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Hozirgi o'zbek she'riyati haqida tasavvurlarimiz.
2. Lirika deganda nimani tushunasiz?
3. Lirikada syujet bormi?
4. Konfliktchi?
5. Lirikaning asosiy janrlarini sanang.
6. G'azal janri nima?
7. Qo'shiq qanday janr turiga kiradi?
8. Mustazod nima?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – T.: “Ma’naviyat”, 2000.
2. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: «SHarq», NMAK, 2007.
3. Istiqlol. Adabiyot. Tanqid. – T.: “Turon zamin ziyo”, 2015.
4. Rahimjonov.N. Istiqlol va bugungi adabiyot. – T.: “O’qituvchi” 2012.
5. M.Boboyev. "She'r ilmi ta'limi. Toshkent, 1996 yil.
6. A.Xojiahmedov. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent, 1998 yil.
7. Azimov U. «Uyg'onish azobi» SHMKBT. Toshkent.1994.
8. Faxriyor. Ayolg'u. She'rlar, dostonlar –T; SHarq, 2000 yil.
9. Bahrom Ro'zimuhammad. Soyalar suhbat. She'rlar. –T.: Zarqalam nashriyoti. 2006. 9-10-betlar.
10. Farida Afro'z “Tasbehlar”.Toshkent, 1999.

6 – mavzu: Lirika sohasidagi izlanishlar. Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Eshqobil Shukur, Xurshid Davron ijodi.

Reja:

1. Lirika sohasidagi izlanishlar.
2. She'riyatda obraz muammosi.
3. Badiiy g'oya. Bosh g'oya va yordamchi g'oyalar.
4. Mavzu va g'oya — yaxlit hodisa.
5. Yangi nomlar, janrlar takomili.
6. Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Eshqobil Shukur, Xurshid Davron ijodi.

Tayanch tushunchalar: lirika, mavzu, adabiy asardagi bosh va yordamchi mavzular, mavzular doirasi, badiiy obraz muammosi, she'riy shakllar, g'oyaviy-emotsionallik, mavzu va g'oya — yaxlit hodisa.

Kichik lirik janrlardan biri bo'lgan birlik she'rlarda badiiy voqelikning kulminatsion nuqtasigina tilga olinadi. Voqelikning qolgan qismlarini tasavvur qilish va xulosa chiqarish o'quvchi ixtiyoriga qoldiriladi. Bunda “Matndan

tashqaridagi strukturalar o'zining u yoki bu elementining ahamiyatini o'zgartiradi: bu elementlarning so'zlovchi struktura – muallif yokieshituvchi struktura – o'quvchiga mansubligidan kelib chiqadigan murakkab muammo-larga bog'liq" [3]. Chunki o'quvchi va muallif she'rning matndan tashqaridagi qismini turlicha tushunadi va talqinqiladi. Lekin kulminatsion nuqtada ularning fikrlari birlashadi. Aynan ana shu xususiyat Anvar Obidjonning birlik she'rlarida ham uchraydi. Chunki shoir voqelikka munosabatini teran fikr, ehtiros va xalqona soddalik bilan ifodalaydi, natijada she'rda xarakterning ma'lum qirrasi namoyon bo'ladi. Masalan, *Voh! O'liklar o'ldirdi uni!!!* Ushbu she'rda shoir kinoya usuli yordamida butun boshli jamiyat fojeasini mohirlik bilan ochib bergan. Shoir undov so'z, takror va ohang yordamida she'rga o'zining poetik g'oyasini, dardini singdirib yuborgan. Ayniqsa, she'rning g'am, alam, afsus va og'riqni ifodalaydigan undov bilan boshlanishi va u orqali tushunilayotgan mazmunni kuchaytirish uchun undov belgisining takror qo'llanishi shoirning mahoratidan darak beradi. Shoir lirik sub'ektning hissiyoti orqali mazmundagi fojeani o'quvchiga jonli tarzda yetkazgan. Bu orqali qahramonning milliy qiyofasini chiza olgan. Shuningdek, mazkur she'rdagi badiiy voqelikning yuzaga chiqishida ob'ektiv yondashuv bor. Unda voqelikni bayon qiluvchi voqeaning ishtirokchisi emas, balki kuzatuvchisidir. Bunday tipdagi she'rlarga "*Tilamchiga gul tutdi qizcha*" she'rini ham kiritish mumkin. Mazkur she'rda so'zlovchining xayolidagi oniy lahzada yuz bergan, hali to'la anglanib ulgurilmagan voqelik muhrlangan. Boshqa she'rda badiiy voqelikni tashkillashda hayotiy xulosadan foydalanilgan:

Sharqda uxlab, uyg'onar G'arbda.

Kiygizimning tagida yurting.

Shuningdek, voqelikka sub'ektiv yondashgan she'rlar ham ko'pligi aniqlandi.

Masalan: 1. *Omin!.. G'arbga yiqil*

terakjon! 2. Cheksiz machit bormi Mashrabga?! 3. Qarmoq solsam, kulfat ilindi.

Shoir she'rlaridagi yana bir xususiyat o'quvchiga o'zining kechinma darajasini, fikrini, qanday usulda, qay vosita yoki shakl yordamida yetkazishidadir. "Lirik she'r mazmuni ... abstrakt va keng qamrovlilikda roman, novella, drama mazmunidan ajralib turadi". Masalan,

Tepolmadim medalli itni. Mazkur she'rda mavzuning qamrovi keng. Bu yerda it obrazi ramziy bo'lib, subutsiz, ikkiyuzlamachi odam ma'nosini anglatadi.

She'rning ikkinchi, asosiy mazmuni nisbatan kengroq bo'lib, unda sobiq tuzum davrida odatga aylangan unvon berish an'anasi kulgi ostiga olingan. Ya'ni, o'sha davrda yuritilgan biryoqlama siyosat va mafkurani maqtasa, ularning kamchiligini oshkor qilmasa, badiiylik mezonlariga unchalik mos kelmaydigan asarlar ham taqdir lanar, davlat mukofotlari berilardi. Lirik qahramon jamiyatdagi bu nuqsonni dadillik bilan ko'tarib chiqadi, jamiyatni bulg'ayotgan

ana shu “it”ni tepolmasligidan afsus chekadi. Shoir she’rda ana shularni ifodalash uchun so’zdan juda unumli foydalangan. “She’r qalb va hayotning qo’shiluvidan dunyoga keluvchi farzanddir,” degan fikrga asosan har she’rga so’zlarni ustalik bilan tanlagan. Ma’lumki, she’rda lirik qahramon aniq shakl-shamoyili bilan gavdalanmaydi, balki ba’zi detallar, ishora orqali uning xarakteridagi u yoki bu chizgilar beriladi, xolos. Shakldagi bu qadar ixchamlilik va mazmundagi teranlik lirik tur xususiyati bilan bog’liqdir. *Yana o’qing menbop hadisdan!*

She’r ikki qismdan iborat bo’lib, kinoya usuliga qurilgan. Birinchi qism “Yana o’qing” degan jumladan tashkil topgan. Unda lirik qahramon o’zining suhbatdoshiga murojaat qilarkan, uning gapi va o’zining tutishidagi o’ziga yoqmagan ba’zi jihatlarini tanqid qiladi. Ya’ni u to’g’ri ish qilyapti, ammo qaerdadir kimningdir diliga ozor ham bergan. Lekin asl niyati yaxshilik. Shuning uchun ba’zi ayb, nuqsonlarimni kechiring-da, mening to’xtab qolmasdan olg’a intilishimga xizmat qiladigan gaplardan gapiring demoqchi. Bu uning qat’iy, kurashuvchan va o’ziga ishongan xarakter egasi ekanidan darak beradi. “Yana o’qing” jumlasini poetik matritsa bo’lib, “muayyan badiiy informatsiyani yetkazadigan, unga munosabatni ifodalaydigan va o’quvchiga muayyan ta’sir o’tkazadigan tarzda joylashtir..”ilgan. O’quvchiga mavjud holat va kutilayotgan hodisa haqida umumiy tushuncha beradi.

“*Menbop hadisdan!*” jumlasini esa ikkinchi qism bo’lib, bu yerda lirik qahramon o’ziga soxta voqea, ertak aytib berayotgan obrazga murojaat qilmoqda. Bu obraz matn tashqarisidagi strukturada mavjud. Shu yerda shoirning niyati, she’rning poetik g’oyasi aniqlashmoqda. Ya’ni, bu yerda men hamma narsani bilaman, degan o’y bilan o’zini baland tutgan kishiga nisbatan istehzoli kulgi namoyon. Matndan tashqaridagi elementlarni boshqa bir rakursdan olib qaraganda esa “*Yana o’qing menbop hadisdan!*” she’rining yana bir mazmuni ochiladi. Undagi lirik qahramon ateistik jamiyatda yashab, hadislariga nisbatan ishonchsizlik ruhida tarbiyalangan edi. Ammo mustaqillikdan keyin milliy va diniy qadriyatlarga yo’l ochilgach, u ham hadis eshita boshladi va tushundiki, hadislar unga uqdirilgandek yomon emas. Balki, hadislar ham inson tafakkurining mahsuli sifatida odamlarni ezgulikka undovchi, hayotda yo’l ko’rsatuvchi, kelajakka ishonch bilan qarashga o’rgatuvchi vosita ekan. Faqat hozir o’zi uchun eng tushunarliharini, bugungi hayotga yaqin hadislarini eshitgisi kelyapti. Ignabarg she’r shaklan qancha ixcham, mazmunan teran bo’lmasin, unda ham xarakter, obraz bor. Zero, “Eng qisqa she’rlarda ham xarakterning nozik bir nuqtasi aks etgan...”bo’ladi. Masalan, “*Dazmollarga bo’ysunma shimim*”, “*Meni o’ldir, qushchaga tegma*”, “*Erkli mushuk quchoqda yotmas*” kabi birlik she’rlarda real hayotda uchraydigan shaxs xarakterining jasurlik, qat’iyat, kuchli iroda kabi qirralari ochilgan. Mazkur she’rlardagi obrazlar yaxlit holda hayot tasvirini, undagi

kishilarning qiyofasini chizib beradi. Ana shunday shtrixlar ko'plab xalqlar shoirlari ijodida ham uchraydi. Chunki "sanoye nafisa – shunday bir transport vositasidirki, uning yordamida muallifning g'ayriixtiyoriy fikri, mamlakatlar, tillar va avlodlar osha ko'chib yuradi". Xulosa qilib aytish kerakki, o'zbek she'riyatida birlik she'riy janri mavjud. Birlik matn va matndan tashqaridagi struktura, ya'ni muallif yaratgan matn va o'quvchi tasavvurining o'zaro munosabati mahsuli o'laroq yanada teranlashadi. Bunda assotsiativ fikrlash, tasavvur va taassurot kabi mazmuniy xususiyat she'r strukturasini belgilaydi.

Natijada birlik she'r ixcham shakl va teran mazmun kasb etadi. Istiqlool yillarida o'zbek she'riyati hajmi va mavzusi singari janrlar, vazn shakllari jihatidan ham rang-barang bo'ldi. Davr she'riyatidan aruz, barmoq va sarbast vaznlarining har uchalasiga namuna izlab topish mumkin. Ammo zamonaviy she'riyatning yetakchi vazni sifatida baribir barmoq vaznini tilga olish mumkin. Ushbu vaznning 7, 9, 11 hijoli shakllarida she'rlar ko'proq yozilganligini kuzatish mumkin. Barmoq vaznida yozilgan she'rlar ichida, ayniqsa, 2, 4, 6, 8, 10 bandlilarida sermahsulroq ijod qilindi. Ammo ba'zi she'rlarni mutolaa qilish orqali barmoq vaznining shakliy-badiiy xususiyatlarida o'zgarishning guvohi bo'lamiz, erkin va barmoq oralig'idagi she'rlar ko'paydi. Bo'g'in, hijo, turog'i, qofiyalanishi aniq, ammo misralari zinapoya shaklida joylashtirilgan she'rlar; bo'g'in, turog'i aniq qofiyalanishida notekislik aks etgan she'rlar; qofiyasi aniq bo'g'inlar soni yoki turoqlar tartibi notekis joylashtirilgan she'rlar bugungi she'riyatimizning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Bunday holatni mustaqillikdan keyingi davrda, ijodkorlar qalamiga berilgan erkinlikning natijasi sifatida baholash mumkin.

Aruz vazni sobiq Sho'ro davrida yo'qotgan mavqeini tiklab oldi. Garchi she'riyatnig bosh vazni darajasiga o'sib chiqmagan bo'lsa-da, o'zining tegishli o'rniga ega bo'ldi. Aruz imkoniyatlarini o'z she'rlari orqali namoyon etishga urinuvchi ko'plab shoiru shoirlar etishib chiqdilar, hattoki aruzda yozilgan she'rlarini to'plam holida chop ettirganlar ham bo'ldi. Ushbu vaznda zamonamiz she'riyatining yetakchi vakillaridan tortib yosh qalamkashlargacha o'zlarini sinab ko'rdilar. Ulardan A.Oripov, E.Vohidov, S.Sayyid, H.Xudoyberdieva kabi birqancha ijodkorlar nomlarini sanab ko'rsatish mumkin.

1. Mumtoz she'riyat janrlari aynan aruzning qaysidir vaznida yozildi.
2. Ayrim she'rlar mumtoz she'riyatda odatda aruz vaznida yoziladigan g'azal, ruboiy, tuyuq, hatto nazira tarzida bog'langan bo'lsa-da, uning vazni barmoqqa to'g'ri keladi. Masalan, Azim Suyun, Zulfiya Mo'minovalarning ayrim she'rlari aynan shunday usulda yozilgan. Zulfiya Mo'minova o'zining bir she'riga Zahiriddin Muhammad Boburning:

*Jahondin menga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa,
Ne g'am, yuzmuncha ham bo'lsa, seningdek g'amgusorim bor.*

satrlarini epigraf qilib oladi va xuddi shu “bor” radifi hamda shoir g’azaliga mos qofiyalanish tartibiga rioya qilgan holda unga nazira bog’laydi. Ammo she’r vazni an’anaviy mumtoz g’azallardagi kabi aruzda yozilmagan:

*Qizilguldek qirqilsa, jonkim oh urar, kimlar terar,
Qirq jonimni qaytib berar seningdek jon nisorim bor.*

Barmoq vaznidalgidan qat’i nazar she’r nihoyatda ohangdor, mazmunli va o’quvchining diqqatini tortadigan bir ifoda tarziga ega. Zulfiya Mo’minova Bobur ifodalagan poetik fikrni davom ettirar ekan, ustoz shoir izhor etgan ma’shuqaga oshiqning cheksiz shaydoligi va sadoqati, ishonchi bayoniga qo’shimcha ravishda (bunda seviluvchi shaxs erkak kishi) yuksak darajadagi ulug’vorlik, suyanch bo’lishga loyiq shaxriyorlik sifatlariga ko’proq urg’u beradi. SHoiraning so’z tanlash mahorati, betakror ifoda tarzi g’azalning aruzda yozilmaganligi aybini to’sib qoladi va bu holat bugungi o’zbek she’riyatining yana bir o’ziga xosligi tarzida namoyon bo’ladi. Erkin vazndagi she’rlarga namunalar ham juda ko’p bo’lmasa-da hozirgi she’riyatimizda tez-tez uchrab turadi. SHo’ro davridagi kabi nuqul his tuyg’uga boy ko’tarinki ruh va shodiyonalik aks etgan pafosni o’ziga singdirgan dabdabali she’rlar emas, balki lirik qahramon ning shaxsiy holatlari, qolaversa, ko’proq dolzarb ijtimoiy-falsafiy, odamzot taqdiri va uning tanazzuliga sabab bo’luvchi fojialar haqida bahs etuvchi jiddiy mavzudag ishe’rlar sarbast vaznida yozildi. Miraziz A’zamning quyidagi she’ri erkin vaznda yozilgan:

*Men bir yomg’ir bo’lib yog’gim keladi
O’zbekiston yerlariga
Men keksa chinorlarning salobati bo’lib
Qayrag’ochning metinligi bo’lib
Yashagim keladi O’zbekistonda.*

Ushbu she’r vatanparvarlik mavzusida bo’lib, uning bo’g’inlari soni, qofiyalanish tartibi, qolaversa, ohangi ham erkin vaznda yozilganligini ko’rsatib turadi. Shuningdek, bugungi o’zbek she’riyatida Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Azim Suyun, Shahriyor, Ikrom Otamurod, Bahrom Ro’zimuhammad kaab ijodkorlar erkin vazn taraqqiyotiga samarali hissa qo’shdilar. Zamonaviy she’riyatimiz janrlari masalasiga keladigan bo’lsak, ularning nihoyatda xilma-xil ekanligiga guvoh bo’lamiz. Aruzda g’azal, qasida, fard, qit’a, muxammas, musaddas, masnaviy, ruboiy, tuyuq kabi mumtoz she’riyatning deyarli barcha janrlariga namunalarni, hattoki taxmisu naziralarni uchratish mumkin.

Barmoq vazni imkoniyatlaridan foydalanish asosida yuzaga keladigan janrlardan esa to’rt bo’g’inli o’lti bo’g’inligacha bo’lgan she’riy namunalar kuzatilishini ta’kidlash bo’ladi. Shuningdek, hozirgi zamonda xokku, tanka, sonet kabi G’arb adabiyoti orqali kirib kelgan janrlarga

namunalar ham bor. Bular ichida uchliklar, ayniqsa davr she'riyatining asosiy janrlari qatoriga qo'shildi. Ma'lumki, zamonaviy ko'rinishdagi, barmoq vaznida yozilgan she'rlar ichida adabiyotimizning yaqin tarixida uchlik shaklida yozilgan she'rlar deyarli uchramasdi. Bugungi davrga kelib esa bu janr o'zining ko'plab namunalariga ega bo'ldi. Masalan, Rauf Parfi ushbu janrni salmog'ini o'zbek she'riyatida yanada boyitdi. Qolaversa, H.Sharipov, Fahriyor, M.Toirov va shularga o'xshash ko'plab ijodkorlar falsafiy, ijtimoiy, abadiy mavzulardagi fikrlarini shu janr imkoniyatlaridan foydalanish asosida bayon etdilar. SHoira Farida Afro'z esa "Tasbehlar" nomli to'plamidagi she'rlarini aynan uchliklar asosida yaratdiki, bu janrning alohida to'plamlarni to'ldirish darajasida mavqei oshganligini kuzatish mumkin. Shuningdek, bugungi o'zbek she'riyatida ayniqsa, sonet, to'rtlik, sakkizlik vaznlarida yozilgan she'rlarga namunalar ko'p uchraydi. Ayniqsa, sonet modern she'riyatda qalam tebratayotgan shoirlar uchun badiiy mazmunni ifodalashda eng qulay poetik shakl vazifasini o'tadi, desak, yanglishmasmiz. Masalan, birgina shoir Faxriyor ijodiga mansub "Ayolg'u" to'plamini kuzatadigan bo'lsak, undagi 38 ta she'r aynan shu vaznda yozilgan. Xulosa qilib aytganda, istiqlol davri she'riyati shakl jihatidan ham rang-baranglashib, taraqqiy etib bormoqda.

Адабиётлар

1. Azimov U. «Uyg'onish azobi» SHMKBT. Toshkent.1991.
2. Azimov U «G'ussa» Toshkent.Yangi asr avlodi.1994.
3. Faxriyor. Ayolg`u. She'rlar, dostonlar –T; SHarq, 2000 yil.
4. Bahrom Ro'zimuhammad. Soyalar suhbatlari. She'rlar. –T.: Zarqalam nashriyoti. 2006. 9-10-betlar.
5. Фаарида Афрўз "Тасбеҳлар".Тошкент, 1999.
6. Анвар Обиджон. Танланган шеърлар. Тошкент: Шарқ, 2006.
7. Генис Александр. Қалб фотографияси. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. - Тошкент."Маънавият". 2010.
8. Расулов А. Бадийлик-безавол янгилик. –Тошкент.«ШАРҚ» НМАК. 2007.
9. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати.- Тошкент. "Академнашр". 2010.

7 – mavzu: Hozirgi nasr xususiyatlari. Hikoyachilikdagi yangilanishlar haqida.

R e j a :

1. Istiqlol va adabiyot.
2. Hozirgi o'zbek nasri rivojiga adiblarning qo'shayotgan hissalar.
3. Bugungi prozada inson ma'naviyati sarhadlarini yangicha aks ettirish.

4. Bugungi nasrning badiiyati va o'ziga xosligi.
5. Xulosa.

Tayanch so'z va iboralar: san'at, atamaliy san'at
moddiy ehtiyoj, badiiy san'at, ma'naviy-ruhiy ehtiyoj, estetik faoliyat,
sintezlashuv

Istiqlol tufayli barcha sohalarda bo'lgani kabi milliy adabiyotimiz ham o'z taqdirini o'zi hal etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Milliy zaminda qat'iy turgan holda jahon adabiy-badiiy tafakkuri jarayonlari bilan bo'ylashishga intilish bugungi kunda ijod ahlining yetakchi maslagiga aylanib ulgurdi.

Hikoya epik turning eng sermahsul janrlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillik davri adabiyotida hikoya janri yanada takomillashdi, o'z rivojining yangi bosqichiga ko'tarildi. Bu davrda hikoyaning janriy imkoniyatlari yanada kengaydi, yangicha tasvir tamoyillari yuzaga chiqdi, voqeani tasvirlash ko'lami rang-barang tusga kirdi. Bugungi kunda o'zbek adabiyoti xazinasini o'ziga xos betakror badiiyatga ega bo'lgan hikoyalar bilan boyib bormoqda.

Xurshid Do'stmuhammadni "Beozor qushning qarg'ishi" hikoyasi *qoliplash* asosiga qurilgan bo'lib, voqealar *hikoya ichida hikoya* usuliga qurilgan. Yozuvchi asosiy voqeani to'g'ridan-to'g'ri hikoya qilmay, uni qahramonlarning xotiralarida yoritadi. Hikoya qahramonlari Qadriya va Fozilbek. Ular bozorda qarama-qarshi turib savdo qilishadi. Fozil gapga chechan yigit. U Qadriyaning oydin jamoliga, pok qalbiga shaydo. Fozil Qadriyaning bozorda sut qatiq sotib o'tirishidan norozi. Axir bozordagi aksar ayollar ancha beti qotgan, janjalkash bo'lishadi. Bozorning tabiati ham, undagi vaziyatlar ham ancha-muncha oqila ayolni qo'pollashtirib borishi tabiiy. Shuning uchun ham bu to'pori va samimiy yigit uning bozor muhitiga moslashib ketishini istamaydi.

Uch yildirki, "Jahon adabiyoti" jurnalida "Jahonga bo'ylashib" rukni ostida bir qator o'zbek adiblarining she'riy, nasriy asarlari e'lon qilib kelinayotir. Qisqa vaqt ichida Abduqayum Yo'ldoshevning "Puankare" hikoyasi keng adabiy jamoatchilik e'tiborini o'ziga jalb etdi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" muntazam tarzda jahon adabiyoti durdonalari yangiliklarini yoritib borayotir. "Kitob dunyosi" esa milliy adabiyotimiz yangiliklari bilan yonma-yon jahon adabiyoti mashhur namoyandalari bisotidan namunalar berib borishni odat tusiga aylantirgan.

Ayniqsa, jahonga mashhur hikoyalarning avvallari bo'lgani kabi, asosan, ruschadan emas, bevosita originaldan tarjima qilinayotgani diqqatga sazovor. O'sha mashhur hikoyalarning ona tilimizdagi tarjimalarini, ular yonida berilgan o'z adiblarimiz qalamiga mansub hikoyalar mutolaasi chog'ida ularni chog'ishtirib borish g'oyat maroqlidir. Men adabiyotshunos sifatida Odil Yoqubovning "Onaizor", Nazar Eshonqulning "Bepoyon osmon", SHahodat Isaxonovanning

“Bolakay”, Muhammad SHarifning “Bola”, Abduqayum Yo’ldoshevning “Dahshat”, Jo’ra Fozilning “Sevgi” kabi hikoyalari ular bilan yonma-yon berilgan jahon novellalari namunalaridan aslo qolishmasligiga amin bo’ldim.

Azal-azaldan ma’lum: millatning dardi – bashariyatning dardi, armoni, qolaversa, faxri, iftixori darajasiga ko’tarilsagina, bir millat yozuvchisini qiynagan, qalbini o’rtagan dard, muammolar yoki kishida faxr-iftixor tuyg’usini junbushga keltirgan omillar o’zga el-yurt odamlari–kitobxonlari qalbini ham tug’yonga solsa, o’y-mushohadalarga toldirsa yoki quvontirsa, u chinakam san’at namunasi bo’la oladi. Baxtimizga, ana shunday asarlar, xususan, hikoyalar yaratilyapti. Keyingi yillarda o’z nomi bilan **qahramon** deyishga arzirlik personajlarning hikoya janri bag’ridan qad rostlab kelayotgani ardoqqa loyiq.

Eng muhimi, chindan-da bosh harflar bilan yozilishga, **qahramon** deyishga loyiq bu tur personajlar bevosita hayotning qoq o’zidan, girdobidan olingan, bizga o’ta tanish, mualliflar uchun esa qondosh-jondosh shaxslardir; ularning hayot yo’li, qismati, bir jihatdan, oddiy, samimiy, tabiiy, ayni paytda ular favqulodda mard, tanti, fidokor, shijoatkor tabarruk siymolardir. Oddiylik bilan ulug’vorlikning bir shaxs timsolida bu xilda namoyon bo’lishi e’tiborga loyiq fenomendir.

Odil Yoqubovning “Onaizor” hikoyasi qahramoni – tanish siymo – jafokash, mard, muallif ta’rifi bilan aytganda, “mushtdekkina” tinib-tinchimas onaxon tasviri, talqini o’zgacha – beqiyos, o’ta ta’sirchan. Mas’ul lavozimlarda xizmat qilgan umr yo’ldoshi Egamberdi Yoqubshayx o’g’li qatag’on davri qahriga uchrab hibsga olingach, besh norasida farzandlari bilan beva qolgan ayol boshiga tushgan kulfatlar, ta’qibu tahdid, sarson-sargardonliklar, shafqatsiz zamonaning shafqatsizlik-lari tasviri o’qilganda ayol zotiningbardoshi hayratlanarli darajada yoritib berilgan. Ajab hol, o’sha mash’um zamonda ham jabrdiydalarni, “xalq dushmani” deya la’natlangan zotning sadoqatli umr yo’ldoshini, beshta norasida go’dagini yurak yutib himoya qilgan, ularga boshpana berib, boshini silagan mardu maydonlar borligini ko’rib hayratda qolasan kishi. Eng muhimi, ana shunday mash’um zamonda “bo’ylari bir qarichgina, eti ustixoniga borib taqalغان ozg’ingina, nimjongina bir ayol” – onaxon To’marisdek afsonaviy qahramon kabi beqiyos iroda, matonat bilan o’zininggina emas, norasida go’daklari hayotini, sha’nini ham saqlab qoladi, o’zini o’tga, cho’qqa urib manaman degan erkak zoti dosh berishi mushkul bo’lgan jabhalarda shijoat ila mehnat qilib uning evaziga ham o’zi, ham norasidalar hayotini, qolaversa, shu tarzda o’zi – qatag’on qurboni umr yo’ldoshi sha’nini himoya qiladi. Bular to’qima emas, chindan-da hayotda yuz bergan real voqelar ekani bilan ham qadrlidir, azizlar... Ayni shunday hodisani ardoqli adibimiz Said Ahmad oilasi qismatida ham yuz berganligini, Saida opamiz umr yo’ldoshi Said Ahmad qatag’on qahriga uchraganida mislsiz jasorati bilan el-yurt ardog’iga sazovor bo’lgani ko’pchilikka ma’lum. Bu xil hayotiy matonat,

jasorat qissasini jahon ahli bilishi kerak... “Onaizor” hikoyasi shunisi bilan qimmatli.

Ajab qiyosiy holat. “Onaizor” haqidagi mulohazalarni qog’ozga tushirish chog’i belarus adibasi Svetlana Alekseevichning ikkinchi jahon urushi davri shafqatsizliklari qalamga olingan, inson, xususan, ayol zoti urushdan ham qudratli ekani tarannum etilgan asarlari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo’lgani xabari e’lon etildi. Buni qarangki, ayni shu ruhdagi asarlar o’zimizda ham bor. Jahon urushidan-da vahshatliroq zamona to’zonlaridan eson-omon chiqqan oddiy, ammo mislsiz matonat, jasorat timsoli darajasiga ko’tarilgan Odil akaning onaxoni, Said Ahmadning Saidasi millatimizning faxr-iftixori – munosib chin qahramonlari deyishga loyiq obrazlardir. Odil Yoqubov, Said Ahmad qalamiga mansub mazkur hayrat, mehr-muruvvat tuyg’usi bilan yo’g’rilgan, mislsiz matonat, cheksiz sadoqat qissalari, ijodiy fantaziya mahsuli emas, chin haqiqat ifodasi ekani bilan qadrli, ular ayni Svetlana Alekseevich asarlari kabi jurnalistika – xotira, badia-esse uslubida yozilganligi tasodifiy emas.

Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasi voqealari aynan hayotda bo’lib o’tganmi yoki to’qimami – biror narsa deya olmayman. Surishtiruvlar shundan dalolat berayotirki, ko’pchilik o’quvchilar uni aynan hayotda bo’lib o’tgan voqea tarzida qabul qilayotir. Boz ustiga, hikoyadagi voqealar adibning qator asarlaridagi kabi yozuvchining o’zi tug’ilib o’sgan ona yurtida yuz beradi, hikoya qahramonlari muallifga yaqindan tanish zamondosh, ba’zilar tengdosh shaxslardir. Hikoya uchun asos qilib olingan voqea ham oddiy bir qishloq oilasining maishiy turmushiga oid hayotiy mojaro asosiga qurilgan: bir qiz, ikki o’g’lonlik oila – xonadonning barcha farzandlari tinib-tinchigan, bola-chaqa, o’g’il-qizlik bo’lib farovon umr kechirishadi. Ammo o’g’lonlardan biri – befarzand, tirnoqqa zor. SHu kemptik tufayli xonadonda tinchlik yo’q. Biri-biriga cheksiz sadoqatli er-xotinning tashvishi bu yoqda qolib, og’a-inilar, ayniqsa, singil betinim jazavada: “tug’mas kelin”ning pattasini qo’liga tutqazib, akasini boshqa ayolga uylantirish payida. Bu yo’lda u hech narsadan qaytmaydi. Singilning yuzsizlarcha behayo tahqir, haqorat-nadomatlari charxpalakdek kunlar, oylar, yillar osha betinim aylanib jafokash “tug’mas kelin” Oyto’ldi boshiga suvdek zahrini to’kaveradi-to’kaveradi; bu xildagi zahri zaqqum haqoratlar aka bilan kelin diliga qanchalar ozor yetkazmasin, ular orasidagi ajib munosabatga aslo soya sololmaydi. Er-xotinning cheksiz sadoqati bora-bora oddiy oilaviy maishiy hayot doirasidan chiqib, ko’tarilib hamqishloqlar nazarida xalq dostonlaridagi vafodor qahramonlar maqomi tusini oladi. Bugina emas, asar poyonida oshkor bo’lgan sir tufayli oddiygina “tili qisiq” - kamsuqum, “tug’mas” qishloq ayoli vafo-sadoqat, chin insoniylik bobida beqiyos **qahramon** darajasiga ko’tariladi. Er ham, ayol ham hayotdan o’tib ketgach, oradagi bir umrlik sir oshkor bo’ladi. Asrandi o’g’il uchun qoldirilgan noyob

meros – quti ichida saqlangan hujjatdan ma'lum bo'ladiki, bu oiladagi farzandsizlikning aybdori ayol emas, aslida, er ekan... Eri sha'nini, or-nomusini himoya qilish, saqlash niyatida hamma aybni o'z bo'yniga olib butun umr bo'yi ta'na-dashnomlarga, haqoratlarga dosh berib bu foniylar dunyoni tark etib ketgan alomat ayol qiyofasi ko'z oldimizda qaytadan butun salobati – qalbining, qalb saxovatining bepoyon osmondek cheksizligi ila namoyon bo'ladi; endi u Sizu biz uchun oddiy – xokisor, jabrdiyda mute ayol emas, farishtadek begunoh, beozor, vafodor, matonatli, odam zoti uchun beqiyos ibrat namunasi sifatida gavdalanadi. Endi boshqa bir oilaviy-maishiy mojarodan boshlangan hikoya – SHahodat Isaxonovanning “Bolakay” hikoyasidagi talqinlarni ko'zdan kechiraylik. Hikoya voqealari “Bepoyon osmon”dagidan farqli o'laroq, chekka o'zbek qishlog'ida emas, jahonning taraqqiy etgan mamlakatida, aniqrog'i, Amerika shaharlaridan birida sodir bo'ladi. Darvoqe, hikoya SHahodatning Amerika safari taassurotlari asosida yaratilgan.

Alloh bashariyatga ato etgan muqaddas kitoblardan ma'lum, yer yuzida shu kunlarga yetib kelgan turli millat, irq'larga mansub inson zoti borki – barcha-barchasi birgina juftlik – Odam Ato va Momo Havodan tarqagan. Ming afsus, turli mintaqalarga tarqalib turli millat, irqlar qiyofasida yashovchi, aslida, bir oila ajdodlari bo'lmish tabarruk inson zoti, qavmi asrlar davomida milliy, irqiy ziddiyatlar jabrni chekib keladi. Hozirgi globallashuv asrida ham shu xil nizolarning uchrab turishi achinarli holdir. “Bolakay” hikoyasi mutolaasi chog'ida kitobxon ayni shu xil achinarli, hatto fojeyi hodisaga ro'baro' keladi. Pishiq-puxta hayotiy vaziyat asosiga qurilgan hikoya syujeti – voqealar oqimi, yechimi personajlar qismati ifodasi orqali hikoyanavisning ezgu niyati baralla namoyon bo'ladi. Hikoyadagi hodisalar silsilasi, personajlar qismatini eslab ko'ring-a: qora tanli Joze bilan Tom bir-biriga mehr qo'ygan. Birdan Joze ruhiyatida o'zgarish yuz beradi, o'z irqidan or qilib, naslini o'zgartirish payiga tushadi; betayin bir oq tanli talaba bilan yaqinlashadi, niyati ro'yobga chiqib oq tanli bolakay o'g'lonning onasi bo'lish sharafiga muyassar bo'ladi.

Joze bolakayni bir o'zi yeru ko'kka ishonmay tarbiyalab voyaga yetkazdi. Uni o'zi orzu qilganday oq tanli jononga uylantirdi. Dunyoning ishlarini qarangki, o'zi orzu qilgan kelin qora tanli qaynonasini yoqtirmaydi, undan hazar qiladi, uydan quvib haydaydi, erini ham shunga ko'ndiradi. Ne umidda katta qilgan oq tanli o'g'lon o'shanday tubanlikka boradi... Taqdir o'yinini qarangki, Joze orzu qilgan juftlik – oq tanli o'g'lon va kelin oilasida qora tanli o'g'lon tug'iladi... Ajab hol: havoyi orzu-havaslar girdobida halokat chohida qolgan Jozega bir vaqtlar o'zi yuz o'g'irgan qora tanli Tom chin, ilk sevgi hurmati odamiylik yuzasidan madad qo'lini cho'zadi. Ko'rinib turibdiki, asar syujeti jahon novellistikasining nodir namunalari

tajribalariga xos ajib taqdirilar, qismatlar o'yini, olijanob insonlarning qalb saxovati ifodasiga xos tarzda berilgan.

Hikoyadan chiqadigan saboq shuki, inson bolasining baxti, tolei, qismati uning irqi, millatida emas, balki qalbi, hulqi, e'tiqodi, maslagi – bir so'z bilan aytganda, odamiyligidadir. Alloh ayni shu inson zotini hulqi, e'tiqodi, maslagi – noyob tuyg'u, xislatlardan benasib etmasin. Aminmanki, bu hikoyani jahonning istalgan mamlakat kishisi – kitobxoni o'z ona tilida maroq bilan o'qiydi, unda adibamiz ilgari surgan ezgu tuyg'u, tilaklarini so'zsiz qo'llab-quvvatlaydi.

A. Yo'ldoshevning "Dahshat" hikoyasidagi to'y libosi zamiridagi dahshatli voqea tasviriga e'tibor beraylik. Inoq bir zahmatkash oila oilaviy hayotining eng mas'uliyatli pallasi. CHorak asrlik juftlik mevasi – voyaga yetgan o'g'il va qizni uylantirish, uzatish tashvishlari boshlangan. Tasodifni qarangki, ayni o'shanday tig'iz pallada ayol og'ir bedavo dardga muhtalo bo'lib qoladi. Nima qilish kerak – to'yni to'xtatib avval davolanish kerakmi?! Aslo! Er-xotin har xil xayollarga berilib, qudalar orasida baland-past so'zlar chiqib qolishidan andishaga borib to'yni o'tkazishga, o'tkazganda ham barcha rasm-rusumlarni joyiga qo'yib ado etishga qaror qiladilar. Ish ko'ngildagi-dek kechadi, shu jarayonda xasta ayol ko'z oldimizda miltirab turgan shamdek so'nib boraveradi; oxirgi ilinj – endi ayol uchun davolanish daqiqasi kelganda oilaning qiziga yaxshi joydan sovchi chiqib qoladi, tabiiyki, davolanish yana ortga suriladi... Ramoqda qolgan jon egasi ayni shu yo'lni tanlaydi...

Hikoya bejiz "Dahshat" deb atalgan emas!.. "Dahshat" personajlari tutgan yo'lni qoralash oson, ammo o'zgacha yo'lni tanlash har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Bir chekkasi, xasta onaning farzandlari baxti deb o'z oromi, jonidan voz kechishi – jasorat! Millatning qon-qoniga singib ketgan odat! Bir asrlik tarixiy yo'limizga nazar tashlab ko'ring-a, azizlar. Jadid bobolarimiz hashamatli to'y marosimlar, turli bid'at, xurofotlarga qarshi bosh ko'targan, ularni qoralab ash'orlar, nasriy va dramatik asarlar yozgan edilar; so'ng sho'rolar hokimiyati bu borada johilona yo'l tutdi... Ammo u ham buning uddasidan chiqolmadi. Serxarajat, tinkani quritadigan marosim-lar goh pinhona, goh oshkora davom etaverdi, hamon davom etayotir. Mustaqillik yillarida jaholatga qarshi ma'rifat yo'li tanlandi, bu borada ko'p xayrli ishlar qilindi, qilinyapti. Afsus, muammo oxirigacha hal etilgani yo'q; viloyatlarni qo'yib turaylik-da, mustaqil mamlakatimiz poytaxti Toshkentdek shahri azimda "Navro'z", "Versal", "Florentsiya", "Farovon", "Sayohat", "Osiyo", "Ezidiyor" kabi dabdabali nom bilan atalgan yuzlab koshonalarda har kuni bir emas, ikki-uch bor necha ming-minglab odamlarga to'y oshi tarqatilayotgani yoki aza, xayri ehson, tug'ilgan kun, nikoh marosimlar o'tkazilayotgani, bir tomondan, savob, quvonchli voqea, xalqimizning saxovatidan dalolatdek tuyulsa, ikkinchi tomondan, bu qadar

hashamatlarga berilish zalolatdan dalolat emasmi, degan o'yg borasan kishi.

Ana shu dabdabali marosimlarning zamirida marosim sohiblarining qanchadan-qancha mashaqqatlari, sog'lig'i, umri zavoli yotibdi. Abduqayum o'z hikoyasini bejiz "Dahshat" deb atagan emas; hikoyaning ayni shunday nomlanishi o'quvchini hushyor torttiradi... Boshqalarini bilmadim, kamina bu hikoya bilan tanishgach, tuni bilan uxlo olmay chiqdim. Qani endi bu hikoya respublikamizdagi har bir xonadonga kirib borsa, xonadon egalari uni mutolaa qilsa, mahallalar jamoasi muhokamasiga qo'yilsa... Qalb saxovati, xayri ehson, savob ko'rinishidagi dabdabali ehsonlarning asl mohiyatini barcha birdek anglash payti keldi, hodisaning oldi olinmasa, bu yog'i dahshat... Hikoya Sizu bizni, boringki, millatni shunday xatardan ogoh etuvchi bong kabi yangraydi. Hikoyani o'qib tugatar ekansiz, mushkul holatda qolasiz: o'zi tug'ib, ardoqlab voyaga yetkazgan ikki jigarbandi – o'g'il va qizining baxti, taqdirini deb o'z hayotini qurbon qilishga tayyor turgan ona haqida uzil-kesil hukm chiqarishga haddingiz sig'maydi, uni koyishga ham, oqlashga ham tilingiz bormaydi. SHunday mushkul vaziyatda muallif-hikoyanavisning o'zi madadga keladi. U mardona turib o'z hukmini chiqaradi. Abduqayumning hech qaysi asarida muallif shaxsi, mayli, iztiroblari bunchalik oshkora yorqin namoyon bo'lgan emas edi. Bu ham bir ijodiy tajriba-da, axir. Aslida, jahon adabiyotida ayni shunday tajriba bor. Muallif undan mohirona foydalangan.

O'tgan XX asr 20-30-yillari dunyoga kelib bugunga qadar barhayot adiblar ikkita urush, ya'ni ikkinchi jahon hamda yon qo'shnimiz Afg'on urushi ofatlari shohididirlar. Ular qalbida, qolaversa, ijodida ayni shu ofat asoratlari chuqur iz qoldirgan, XXI asrda ham hamon ular aks-sado berib turibdi. Muhammad SHarifning "Bola", Jo'ra Fozilning "Sevgi" hikoyalari buning yorqin dalillaridir. Boshqalarni bilmadim-u, ayni bolalik, o'smirlik yillarim, ikkinchi jahon urushi davrida kechgan kamina uchun "Bola" hikoyasidagi voqealar nihoyatda tanish; urush va urushdan keyingi yillari biz ayni shu urush asoratlari, taassurotlari ta'sirida yashaganmiz, asosan, urush haqidagi kinolarni ko'rib katta bo'lganmiz, bo'sh paytlardagi o'yinlarimiz ham "urush-urush"lardan iborat bo'lgan, "nemis" – "dushman" zoti borki, barchasini "fashist" deb bilganmiz, ulardan nafratlanganmiz. Ochig'i, pedtexnikumda o'qigan kezlarim boshda men hadik bilan qaragan nemis tilidan dars beruvchi nemis millatiga mansub o'qituvchimiz SHreder amakini chinakam mehribon inson ekanini ko'rib hayratdan yoqa ushlab edim. Ayni shu alomat zot talay kursdoshlarim qatori meni Gyote "Faust"idan tortib zamonaviy nemis adabiyoti nodir namunalari olamiga olib kirgan edi. Muhammad SHarifning "Bola" hikoyasi bilan tanishganda ayni o'sha salkam yetmish yil burungi hodisalar yodimga tushdi. Hikoya qahramoni bolalik davri ayni urush va urushdan keyingi yillari qishloqda kechgan, urush keltirgan musibatlar asorati

to'zoni ichra voyaga yetgan, nemis fashistlariga nisbatan nafrat ruhida tarbiyalangan, urush-urush o'yinlari chog'i hamisha nemislarning "dodini bergan" bolakay oilasi boshiga musibat tushganda – onasi hayoti jar yoqasiga kelib qolganda ayni o'sha – o'zi nafrat ila munosabatda bo'lgan nemis millatiga mansub shifokor joniga aro kiradi, onasini o'limdan saqlab qoladi.

Qolaversa, bolakayning o'ziga ham mehr-muruvvat ko'rsatadi. SHunda dovdir, qasoskor bolakayning ko'zi yarq etib ochiladi: bolakay o'ylaganidek, nemis millatiga mansub zotlarning barchasi fashist emas ekan, ular orasida munis – mehribon tabarruk zotlar ham bor ekan. Mana shu chin insoniy ezgu tuyg'u hikoyada g'oyat tabiiy, ta'sirchan, jozibador tarzda ifoda etilgan. Qani endi shu xil hikoyalарimiz xorijiy tillarga, jumladan, nemis tiliga o'girilsa, mehridaryo o'zbekning qalb saxovatidan nemis birodarlarimiz ham bahramand bo'lsa...

O'ttiz besh yilga cho'zilgan yon qo'shni Afg'onistondagi urushdan eng ko'p jabr chekkan, qurbonlar bergan, u haqida eng ko'p qayg'urgan, ular uchun haqiqiy najot yo'lini qidirgan biz o'zbekistonliklardir, desam mubolag'a bo'lmas. Bu mavzuda adiblarimiz ko'p yozdi, xo'p yozdi, yozishda davom etayotir. SHu mavzudagi so'nggi asarlardan biri Jo'ra Fozilning "Sevgi" hikoyasidir. "Sevgi" shu paytgа qadar Afg'on urushi mavzusida yozilgan asarlarning birortasiga ham o'xshamaydi, avvalgilarini mutlaqo takrorlamaydi. Asar talaba, havaskor shoir, oshiq yigit tilidan hikoya qilinadi. Bu yigit kursdoshi sohibjamol qizga oshiqi shaydo bo'lib, unga atab oshiqona she'rlar bitib, sevgilisidan tayinli javob ololmay yurganida birdan armiya xizmatiga chaqirilib, Afg'on urushi girdobiga tushib qoladi. Muallif bu ma'nisiz muhorabaning vahshatu dahshatlarini bor holicha o'quvchi ko'z oldida gavdalandiradi, shu olovli hodisalar girdobida ham yigit sevikli talaba qizni bir daqiqa bo'lsin unutmaydi, unutilmaydi; tom ustida turgan ayni sevgilisini eslatadigan begunoh sohibjamol afg'on qizining o'z safdoshlari o'qidan halok bo'lganini ko'rganida xayoli, dardu dunyosi ostin-ustun bo'lib ketadi; ma'nisiz jang vahshatini qarangki, uning uchun do'stu dushmanning, gunohkoru begunohning, nafosatu qabohatning farqi yo'q. Oshiq yigitga shunisi alam qiladi. Yana bir ajab hol, bu yorug' dunyoning jahannamga teng urush vahshatlari girdobidan oshiq yigit omon chiqqan ekan, bu sirli, sehrli kuch ayni shu yigit qalbi tubidagi noyob sevgi tuyg'usidir, degan fikr-g'oyani ilgari suradi adib. Bunga ishonging keladi. Boshda oshiq shoir yigit mayliga beparvo yurgan sohibjamol qiz yigit sardaftaridan ogoh bo'lgach, munosib bahosini berajagiga ishonging keladi...

O'zimiz shohid bo'lgan tarixiy hodisa – afg'on urushi vahshatlari ichidan omon chiqqan Sizu bizga tanish zamondoshimizning mazkur sevgi qissasi ibratlari, latofatlari, jozibasilаn jahon adabiyotidagi ayni shu xil afsonaviy sevgi qissalaridan qaeri kam!

Sinchkov munaqqid Q. Yo'ldoshev "Nasr: bugun va ertaga" davra suhbatida ("O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 2015 yil 6 noyabr) "kundalik turmushning adoqsiz ikir-chikirlariga o'ralashib yashayotgan oddiy odamlar"ni tasvirlash bugungi nasrimizning yetakchi tamoyillaridan biri bo'lib borayotganini to'g'ri ta'kidlaydi. Ammo hozirgi adabiy jarayon g'oyat xilma-xilligi bilan jozibador. "Qahramon bo'lmagan qahramonlarni tasvirlash" hozirgi milliy adabiyotimizdagi xilma-xil tamoyillardan biri, xolos. Milliy adabiyotimizni qo'yib turing, har kuni kino va teleekranlarda namoyish etilayotgan jahonning son-sanoqsiz kino, serial, teatr asarlariga bir nazar tashlang-a, ularning aksariyatida "qahramon bo'lmagan qahramonlar" bilan barobar oila, millat, bashariyat taqdirini o'ylab, insonlik sha'ni yo'lida yonib yashayotgan qahramonlar hayoti, taqdirini ko'rasiz, o'y-mushohadalari bilan tanishasiz. Faqat bir, bir yarim yil ichida birgina "Kitob dunyosi"da chiqqan, birgina hikoya janriga oid, bir qarashda oddiy, aslida, qahramonona ruh bilan yo'g'rilgan jozibador, ibratli siymolar bilan uchrashuv, tanishuv Sizu biz, aslida ham kitobxon, ham milliy adabiyotimiz uchun bayramdir. Muayyan sabablarga ko'ra bir oz e'tibordan chetda qolgan milliy adabiyotimizdagi, xususan, hikoyachilikdagi qahramonlik an'anasi-ning umumbashariy ma'no-ko'lam kasb etgan holda o'zgacha ko'rinishlarda qayta jonlanayotganligi quvonchli voqeadir.

So'nggi yillarda epik turning kichik janrlari hisoblangan hikoya va novellalarda ixchamlikka, katta muammolarni kichik hajmda ifodalashga intilish kuchayganligi quvonchlidir. Qisqalikka esa yozuvchilar ko'proq ramziy timsollar orqali fikrlash hisobiga erishmoqdalar. Q.Norqobilning "Samodil" novellasi, A.Suyunning nasriy qayirmalari, A.Jo'raevning "Chimdim hikoyalar"i bu janrlarning hajman ixchamlashib, mazmunan teranlashib borayotganligini isbotladi.

Shuni alohida ta'kidlash jozki, keyingi paytda badiiy adabiyotning og'irkavon turi nasrda ham samarali ijod qiladigan ayol-adibalar xiyla ko'paydi. Oydin, Saida Zunnunovalardan so'ng ma'lum bir muddat adabiyotimizda hikoya, qissa, roman yozadigan ayollar kamayib ketgandi. 80-90-yillarda yarq etib ko'zga tashlangan Shahodat Isaxonova, Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi kabi iste'dodli adibalar qatoriga Bahor, Gulchehra Asronova, Gulnoza Odilova, Dildora Abdurahmonova singari talantli ijodkorlarning qo'shilishi quvonarli hodisa bo'ldi. Bulardan ayniqsa, Bahorning "SHamol hikmati" hikoyasi haqida iliq fikrlar aytish mumkin. Adabiyotshunos U.Hamdamoshbu hikoyaga bag'ishlangan maqolasida adiba ramziy timsollar orqali yuksak g'oyaviy niyatini, shu kunning og'riqli tomonlarini ifodalashga erisha olganligini hikoyadan ko'ra kattaroq sharhida isbotlashga uringanini alohida ta'kidladi. Chindan ham atigi ikki betlik bu hikoya o'quvchini chuqur o'yga toldi-radi, qalbini junbushga keltiradi, mol-dunyoga emas, aql-farosatga qarab ish tutishga o'rgatadi.

Ammo ayol-adibalarning ba'zilar o'z jinsdoshlarining turmush qiyinchiliklarini yengish borasidagi urinishlarini tasvirlashda yengil-yelpi yo'l tutayotganligi

ko'pchilikni ranjitmoqda. Ayol zoti azaldan ro'zg'orining bekami-ko'st bo'lishini, oilasining gullab-yashnashini istaydi va bu yo'lda o'zini qurbon qilishga ham tayyor turadi. Biroq ana shu jarayonni tasvirlashda ayrim adibalar chegaradan chiqib ketmoqdalar. Ustoz adabiyotshunos U.Normatov shu masalada alohida to'xtalib, o'zbek ayolining qadr-qimmatini tushiradigan intim holatlarni uyalmay-netmay badiiy adabiyotga olib kirayotgan va ikir-chikirigacha ishtiyoq bilan tasvirlayotgan ijodkorlarga "Azizlarim! O'zbek ayoli – onamiz, opa-singlimiz, yorimiz obrazini tasvirlashda hayo pardasini bunchalik ko'tarib yubormang! Ehtiyot bo'ling! Shunday payt kelganda qalamingizni to'xtatishga o'zingizda kuch toping!" deb murojaat qilganida to'la haqlidir. Demak, o'quvchilar ham bunday behayo tasvirlardan tashvishga tushayotir. Shuningdek, ayrim hikoyalarda voqeanavislik, ocherknamolik qusurlari uchrayotganligini aytib o'tishimiz ham lozim. Ularni nomma-nom tilga olsak, maqolamiz cho'zilib ketadi deb, nuqta qo'ydik.

Adabiyotlar

1. Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot. – T.: "O'qituvchi" 2012.
2. Yo'ldoshev.Q. Nasr: bugun va ertaga. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 2015 yil 6 noyabr
3. Yoqubov O.Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. – T.: Sharq, 2005-2006.
4. Nazar Eshonqul. Bepoyon osmon. – "Kitob dunyosi" gaz., 2011 yil 23 iyul.
5. "Jahon adabiyoti" jurnali. 2014-2016 yillar.
6. "Kitob dunyosi" gazetasi, 2014-2016 yillar.
7. Yo'ldoshev A. Puankare. – T.: Akademnashr, 2014.

8-9- MAVZU: Hozirgi o'zbek qissalari.

(4 soat)

REJA:

1. Hozirgi o'zbek qissachiligi haqida tasavvurlarimiz.
2. Obraz – san'atga xos hodisa, obraz va obrazlilik.
3. Badiiy obraz va uning asosiy xususiyatlari.
4. Bugungi qissachilikdagi muammolar.
5. Yangi nomlar, yangi qahramonlar.

Tayanch so'z va iboralar: obraz, obrazlilik, badiiy obraz, adabiy qahramon, romantik obraz, personaj, xarakter, tip, xayoliy-fantastik obraz, majoziy obraz, realistik obraz, romantik obraz, ijobiy obraz, salbiy obraz, murakkab obraz.

Hozirgi o'zbek qissalarida zamonaviy muammolar, hozirgi kun odamining surati va siyratini, ijtimoiy-ma'naviy olamini tadqiq etishga e'tibor kuchayganligini alohida ta'kidlashni istardim. O'zbekiston xalq yozuvchisi Anvar

Obidjonning “Ajinasi bor yo’llar” (“Sharq yulduzi”, 1-2-sonlari), “Oddiy ayriliq haqida ertak” (“Yoshlik”, 12-son), Isajon Sultonning “Onaizorim” (“Sharq yulduzi”, 2,3-sonlar) qissalari o’quvchi qalbini to’lqinlantiradi, uni ham quvontirib, ham mungli o’yg’a toldiradi. “Ajinasi bor yo’llar” qissasi kechagi kunimizning real manzarasini hikoya qilish kinoyali yumor ohangi asosiga qurilgani bilan e’tiborni tortadi. Tajribali adib o’z yo’llarida uchragan “ajina”-to’siqlarni sira g’azablanmay, ehtirosiga berilmay, xolisona tasvir-laydi. Bu bilan muallif o’quvchini “o’tgan o’tdi, bizning qalbimizda undan og’ir jarohatlar qoldi. Endi Siz bunday kunlarga tushmang, ogoh bo’ling! Mustaqillikning qadriga yeting!” deya hushyorlikka da’vat etayotgandek tuyuladi. Yozuvchi har qanday dahshatli, fojiali hodisani ham nim kulgi bilan bayon qiladi, biroq o’quvchi bu kulgining zamirida nechog’lik azobu armon, dardu alam yotganligini, ularni hikoya qilish muallifga oson bo’lmaganligini his qiladi. Qissada o’sha davr tiliga xos atamalar (“*ko’takarava, xaptakach, etik sag’i*”), shevaga xos iboralar (“*bezilloqlanib, sang’i, po’stak-sudrash*”), so’zlarni oltiariqcha talaffuz qilish tarzi asarning badiiy qimmatini benihoya oshirgan.

“Onaizorim” qissasi esa o’zbekning haqiqiy qishloq ayoli qiyofasiga qo’yilgan adabiy haykal desam hamkasblarim meni ayblashmas. Biron joyda ismi berilmay, shunchaki “ona” deb atalgan bu ayol qissaning barcha uzvlarini nurlantirib, chambarchas bog’lab turadi. Muallif ongli ravishda onaga ism bermagan. Natijada uning surati-yu siyratida, xatti-harakatida, imo-ishorasi-yu, ko’z qarashlarida, tashvishu orzusida, tanbehu nasihatlarida men ham, Siz ham o’z onamizni ko’ramiz. O’zbek oyimdan nimasi bilandir farq qiladigan, Oftob oyimdan andisha-yu-iboni (“O’tgan kunlar”), sabr va qanoatlilik, erni hurmat qilish, farzandlariga mehr-muhabbatini goh yashirin, goh oshkora izhor etishni Nigorxonim (“Mehrobdan chayon”), Poshsho oyim (“Dunyoning ishlari”) singari momolarimizdan o’rgangan bu ona o’quvchilarning cheksiz mehrini qozonadi. Isajon Sulton “Onaizorim” qissasi va o’nlab hikoyalari bilan **“Badiiy asar tarbiya vositasimi? Yaxshi kitob ezgulikka, yomoni yovuzlikka yetaklashiga ishonasizmi?”** deya butun adabiy jamoatchilik oldiga qo’yilayotgan dolzarb savolga birinchilardan bo’lib, adabiyotning tarbiya vositasi bo’lishi zarurligini badiiy obrazlar orqali g’oyatda aniq javob berib qo’ydi. CHindan ham qissa o’quvchi ommasini har qanday sharoitda ham ayolning sabr-toqati, mehr-muhabbati, vafo-sado-qati jamiyatni olg’a harakatlantiruvchi, uni pokiza asrovchi qudratli kuch ekanligiga ishontiradi.

Nasrimiz faqat mazmun-mohiyati bilangina emas, balki shakl-shamoyilining rang-barangligi, bayon usullarining yangilanishi bilan ham e’tiborni tortmoqda. Bu jihatdan Abdunabi Boyqo’zievning “Teshikmozor hangomalari” nomli qissasi xarakterlidir (“Sharq yulduzi”, № 2,3). Muallif bayonda o’zini juda erkin tutadi, xuddi tinglovchi bilan yuzma-yuz suhbatlashayotgandek samimiy so’zlashadi, tortishadi, maslahatlashadi. Qissa boshdan-oyoq hazil-mutoyibaga yo’g’rilgan. Unda keltirilgan latifalar har bir hikoyaning mag’zini to’ldirishga, obrazlar tabiatini ochishga, muallifning g’oyaviy niyatini tushunishga ko’maklashadi. Garchi asar sirtidan qaraganda yagona syujet asosiga qurilmagan, voqealar bir ipga tizilmagan, ularni bog’lab turuvchi xarakter yaratilmagandek tuyulsa ham ichki bir

mantiq, hamqishloqlarga buyuk muhabbat unga yaxlitlik kashf etadi va yozuvchi S.Siyoev aytganidek, “Kulgudan yasalgan bu guldasta” o’quvchilar tomonidan maroq bilan o’qiladi hamda o’zbek hajvchilik xazinasidan o’ziga munosib o’rin egallaydi.

Dostonchilikda ijodiy jarayonning qiyinligi va murakkabligi shundaki, badihago’y baxshi bevosita jonli auditoriyada vaqti chegaralangan, asar syujeti bilan qisman xabardor tinglovchi oldida doston kuylashi, badihago’y sanatkorligini ko’rsatib, u yoki bu dostonga jon ato qilishi kerak. Dastlabki jon ato etish turkumga mansub so’nggi dostonlar bilan bog’lanishi, voqea hodisalar takror bo’lib qolmasligi lozim, zero, ijodiy boshlanishi (yaratilishi) ijrochilik bilan organik bog’liq bo’lgan xalq asarlari umumiy spitsefik xususiyatga egadir. Ular asosan qayd etilgan matn asosida ijro etilmaydi, balki yoddan aytiladi. Aytuvchi ko’rgan yoki eshitganini ruhiy holatidan foydalanib yoddan takrorlaydi. Ijroning bunday yoddan aytish usuli ko’rgan va eshitgan asarlariga ongli yoki ongsiz o’zgartirishlar kiritishga olib kirishi tabiiy.

Ma’lum turkumni ijro etishda esa turkumdagi dostonlararo izchillikni, bosh yo’nalishni saqlashni uddalamog’i lozimki, u katta xotira kuchini, bilimni, iqtidorni talab etadi. Dostonlarni turkumlashda, turkum ijrochilari mahoratini belgilashda bunga e’tibor berish zarurdir. O’zbek dostonchiligida dostonlar tasnif qilingan [3]. Biz ushbu tasniflarni muhokama va tahlil qilish fikridan uzoqmiz. Faqat so’nggi o’ttiz yilda yozib olingan va qo’limizda bo’lgan xalq dostonlarining barchasi uchun bu tasnif doirasi yetarli emas deb o’ylaymiz. “Ollonazar Olchinbek”, “Gulax”, “Ota-ona duosi”, “Baxshi”, “Qirq qasamyod” kabi dostonlarida qahramonning axloqiy fazilatlari, axloqiy mavzu yetakchilik qiladi. Shulardan biri “Ollonazar Olchinbek” va “Baxshi” dostoni haqida folklorshunoslar Sh. Qahhorova hamda A.Ergashevlar ayrim fikr- mulohazalarini bayon etishgan. Bugungi kunda faqat respublikamizning janubiy hududida yashab turgan dostonchilik so’nish davrining so’nggi bosqichida ekanligi dostonlarni turkumlashda ham, bir turkumga doir dostonlarni farqlamaslikda ham, baxshilar tomonidan yasama dostonlar yaratishda ham namoyon bo’lmoqda. Epik an’analardagi bunday o’zgarishlar, avvalo, yoshlarning yetarli epik bilimiga ega emasligi, ayni vaqtda o’zini iqtidorli ijodkor ko’rsatishga urinishi yozma badiiy ijodning folklorga ta’siri shuhratga o’chligi bilan izohlanadi. Keyingi yillarda turli nashriyotlarda buyuk qahramonlik eposi “Alpomish” turkumiga nisbat berib aytilgan Chorshanbi Rahmatullaev va Chori Umirovlarning “Xursuna”, “Yo’lchiboy”, “Shoh shayx Mardon bobo”, “Alp Qo’ng’irotbek”, “Alponbek” dostonlarini Alpomish turkumiga aloqasi yo’q. O’zbek folklorshunosligida o’tgan asrning 90-yillari oxirigacha hech qaysi baxshi repertuarida qayd etilmagan. Bular

baxshining o'zlari yaratgan soxta dostonlardir. Shu o'rinda Abdunazar Poyonov, Mamarayim baxshi, Chorshanbi Rahmatullaevlarning nashr ettirgan "Toshbosar", "Hulkarpari", "Davrqul polvon", "Tursun mergan", "Ramazon chovag'on", "Sarvigul" dostonlari goh "Go'ro'g'li" silsilasiga mansub, an'anaviy tarzda aytib kelingan deb da'vo qilinsa ham, zamonaviy mavzudagi yo tarixiy temadagi doston deyilsa ham bu da'volarga qo'shilib bo'lmaydi. Aynan shu tipdagi asarlar g'oyaviy mazmuni,

badiiy xususiyati, epik an'analarga amal qilinmasligi ma'lum bo'lsa-da nashriyotlarda chop etilmoqda. Hatto ular folklor ilmidan yaxshi xabardor bo'lmagan, olimlarning tadqiqotlarida juda yuksak va noo'rin maqtalmoqdaki, bu haqda birgina "O'zbekistonda baxshilik san'atining shakllanishi va taraqqiyoti tarixi" (T.: 2015. "Tafakkur" nashriyoti) monografiyasini ta'kidlash mumkin.

Bugungi kunda dostonchilik haqida gapirganda, ko'pchilik baxshilardagina emas, baxshilarni targ'ib etuvchi ayrim tadqiqotchilarda ommaviy axborot vositalari xodimlarida hamda tinglovchilarda ham epik bilimning yetarli emasligini bu an'anaviy dostonchilikning so'nish jarayonini tezlatayotganini ta'kidlash kerak.

1. Tadqiqotchilar arxiv materiallari bilan mashg'ul bo'lib, yig'ilgan manbalarni tadqiq etish bilan shug'ullangan holda jonli jarayonda barhayot baxshilardan doston va termalar yozib olmasligi, ular bilan ishlamasligi xalq dostonchiligi repertuarini boyitishga monelik qilmoqda. Ayni vaqtda har bir dostonchining epos taraqqiyotdagi va saqlashdagi o'rnini baholashga yetarli imkon bermayotir.

2. Ommaviy axborot vositalari xodimlari dostonchilik haqida baxshilar to'g'risida maqolalar yozganda, ularning sonini oshirib yuborish, ijodkor, ijrochi va havaskor baxshilarni farqlamasdan bir xil olqishlash yo'lidan borishi ko'zga tashlanmoqda.

3. Bugungi kunda auditoriya (ya'ni doston tinglovchilar guruhi) ham qanday dostonlar borligi, ularning syujeti, badiiyatini yaxshi bilmaganidan baxshilardan qaysi dostonni eshitishni ham anglamay qolmoqda. Chunki hozirgi tinglovchilarning o'zi ota-bobolaridek o'n, yigirma dostonning mazmuni, voqealar rivojini yaxshi bilmaydi. Tinglovchi talab qilmasa baxshilar ham o'z repertuarini boyitib bormaydi.

10-11- MAVZU: Hozirgi o'zbek romanchiligi. Mustaqillik davrida yaratilgan o'zbek romaniga xos xususiyatlar. **(4 soat).**

REJA:

1. Hozirgi o'zbek romanchiligiga bir nazar.
2. O'zbek romanchiligidagi muammolar.
3. Mustaqillik yillarida yaratilgan romanlar, ularning mavzusi va o'ziga xoslik.
4. Badiiy asar tilida tasviriy vositalarning ishlatilishi.

Tayanch soʻz va iboralar: badiiy asar tili, dialog, monolog, tasviriy vosita, tasviriylik, emotsionallik, obrazlilik, aforizm, muallif tili, jargonlar, antonim, omonim, metafora, metonimiya, oʻxshatish, sifatlash, allegoriya, mubolagʻa.

Adabiyotimiz yil sayin, oy sayin yangilanib, oʻzgarib, dunyo adabiyoti bilan bellashadigan darajada oʻsib-ulgʻayayotgani badiiyat muxlislarini gʻoyat xursand qilmoqda. Zero, taniqli adabiyotshunos D.Toʻraev toʻgʻri qayd etganidek,

“Bugungi kun adabiyotimizdagi yangicha izlanishlar, unda jahon adabiyotiga xos tamoyillarning paydo boʻlishi, voqelikni tasvirlashning turfa xillari yuzaga kelayotganligi” ayni haqiqatdir [1:169].

Bunday turfa yangiliklarni birgina 2014 yilda nashr etilgan asarlar misolida ham koʻrish mumkin. Bir yilning oʻzida oʻnga yaqin romanlar, oʻttiztacha qissa, yuzdan ziyod turli hajmdagi hikoyalar yaratilganligi fikrimizni isbotlaydi. Gap faqat miqdor haqida borayotgani yoʻq, balki adabiyotimizning badiiy sifati tubdan yaxshilanganligi, yangi tasvir usullari va obrazli fikrlashi jihatidan boyigani, tarbiyaviy roli ortganligi bilan ham muhimdir. Eng quvonchlisi, oldi-qochdi asarlarning nashr etilishi birmuncha kamayganligidir.

2014 yili birgina “Sharq yulduzi” jurnalining oʻzida beshta roman, 9 ta qissa, 10 ta hikoya (jahon adabiyotidan tarjima qilinganlari bu hisobga kirmaydi) eʼlon qilindi.

Eng koʻp qissa va hikoyalar “Yoshlik” jurnalida bosildi. Bu asarlarni mutolaa qilgan oʻquvchi nasrimiz chindan ham jahon adabiyoti maydoniga dadil qadam tashlayotganiga, u bilan bimalol raqobatlasha oladigan darajaga

koʻtarilayotganiga, ***“Bugungi davrda boʻlayotgan yangilanishlar va davr odamlari maʼnaviy dunyosidagi oʻzgarishlarni, ular xarakteridagi turli qirralarni berishda jahon adabiyotidagi har xil oqimlar tasviriga xos falsafiy, ramziy va psixologik talqin koʻzga*** [1:179] tashlanayotganligiga ishonch hosil qiladi.

Eʼtibor berilsa, oʻtgan yili yaratilgan romanlarda tarixiy mavzu ustuvorlik qildi.

M.Alining toʻrt kitobdan iborat “Ulugʻ saltanat”, N.Qobulning “Yetti iqlim xoqoni yoxud ahd va taxt”, “Sultonning soʻnggi kuni yoxud Amir Sohibqiron va

Toʻxtamishxon”, Sh.Isaxonovning “Turon malikasi”, Sh.Nizomning “Toʻqqiz xoqon saltanati” kabi asarlari nomlanishidan tortib ifodalangan voqealari-yu,

qahramonlarigacha toʻla tarixiy voqealar va shaxslarga bagʻishlangan. Ayni chogʻda zamonaviy mavzuda yozilgan A.Ibrohimovning “Ildizim va oʻzim”

(muallifning oʻzi asariga “Tarixiy-hujjatli roman” deb izoh ham bergan),

A.Mirzoning “Kallaxonalik yigitcha”, Otaulining “Afandi yashasin!”,

M.Ergashevaning “Alanga” romanlarida ham tarixga murojaat qilish ustun turadi.

Avvalo, tarixiy mavzuda asar yaratish muallif zimmasiga katta masʼuliyat yuklashi hech kimga sir emas. Chunki tarixiy asar yozish uchun adib qanchadan-qancha

yozma manbalarni, oʻsha zamon turmush tarzini, shart-sharoitini, tilini, urf-odatlarini sinchiklab oʻrganishi, eng muhimi, oʻsha muhit ichiga kirib yashashi

shart. Bunga esa har kimning ham toqati yetavermaydi. Shu maʼnoda, yuqorida tilga olingan romanlardan M.Ali bilan N.Qobulning asarlari oʻquvchida koʻproq

ishonch uygʻotadi. Negaki, har ikki adib ham Sohibqiron Amir Temur hayoti va faoliyati haqida chuqur va keng bilimga egadirlar. Xususan, M.Aliga qariyb yarim

asrdan buyon Amir Temur shaxsi bilan shug'ullanib, ko'plab she'rlar va dostonlar, "Sarbadorlar" dilogiyasini yaratganligi, ko'p yillar mobaynida Xalqaro Amir Temur jamg'armasida ishlaganligi ko'p naf keltirgan bo'lsa, N.Qobulning tarix fani mutaxassisi (u Farg'ona davlat pedagogika institutining tarix fakultetini bitirgan) ekanligi tarixiy voqealarning haqqoniyligiga shubha tug'dirmaydi. Ayrim asarlarda esa tarixiy fakt va raqamlar, ayniqsa, zamon va makon tasviri, o'sha davr nutqi biroz ishonchsizlik uyg'otishi sezilib qoladi. Buning ustiga asarni nomlashda yozuvchi ko'p so'zlilikka ruju qo'ymasligi ham lozim, deb hisoblayman. Sarlavha ko'pi bilan ikki-uch so'zdan tashkil topsa, o'quvchi yaxshi qabul qiladi. Buning ustiga ayrim ijodkorlar o'zidan avval yaratilgan tarixiy asarlar nomidagi so'zlarni bimalol ishlatib, bir xillikka yo'l qo'yayotganligi ham to'g'ri emas.

SHu bilan birga yozuvchilarimiz safi yangi nomlar bilan boyidi. Yangi nomlarning paydo bo'lishi o'z-o'zidan epik tur janrlari imkoniyatlarining yanada kengayishiga, o'ziga xos qiyofaga ega personajlarning kirib kelishiga, til va uslubning rang-barang tus olishiga olib kelayotir. Masalan, bir necha xorijiy mamlakatlarda shaxsiy ko'rgazmalari tashkil etilgan, tasviriy san'at muammolariga bag'ishlangan qator xalqaro anjumanlarda ishtirok etgan O'zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzo, isyonkor she'rlari bilan tanilgan shoira Maqsuda Ergasheva, asosan dramaturgiyada ijod qilgan Shavkat Nizomlarning birdaniga roman yozib yuborishi tasodifdek tuyiladi. Ayni chog'da taniqli jarroh Jumanazar Beknazarning ijodda yanada faollashgani, she'rlardan tashqari qator-qator qissa va hikoyalar yozayotgani ("Yoshlik", "Sharq yulduzi" jurnallarini qarang) o'zbek adabiyotida ham Chexov singari shifokor-adib paydo bo'lganligidan darak beradi. Ularning asarlarini mutolaa qilgan o'quvchi tasvirda tajribali yozuvchidan qolishmasligiga amin bo'ladi.

Yangi ijodkorlarning kirib kelishi badiiy adabiyotimizda yangicha usul va uslublar namoyon bo'layotganligini, asarlarning o'qimishlilik ortayotganini isbotlaydi. So'nggi yillar romanlarida janr qobig'ini yorib chiqishga intilish yaqqol ko'zga tashlanayotganligi ham istiqlool davri adabiyotining muhim fazilatlaridan biri ekanligini ta'kidlash o'rinlidir. Aslida roman barcha adabiy turlar va janrlarni bimalol bag'riga sig'dira oladigan ummon hisoblanadi. Faqat ulardan yozuvchi o'z o'rnida va g'oyaviy-badiiy niyatini ifodalashga bo'ysundirgan holda foydalana olishi shart. Shu jihatdan A.Mirzoning janri roman-esse deb belgilangan "Kallaxonalik yigitcha" nomli asarida Toshkentning ko'hna manzarasi juda tiniq va aniq ko'rsatib berilganligini alohida ta'kidlash zarur. Shu bilan birga, muallifning rassomlik kasbiga xos rang tanlay bilish qobiliyati yozuvchiga Eskishahar qiyofasini chizishda juda qo'l kelgan. Chindan ham Toshkentning 60-yillaridagi Eski-shahar, Chorsu mahallalari qiyofasini aks ettirishda rassom-adib butun mahoratini ishga solgan.

Ammo bu manzaralarni hozirgi avlod qanday tasavvur qiladi? Buning ustiga meni asarning "roman-esse" deb atalishi ham o'ylantirib qo'ydi. Ehtimol, undagi erkin bayon uslubi, o'quvchi bilan suhbatlashgandek olib borilishi esse talabiga javob berar, biroq shu holda bu asarni roman deb taqdim etish o'zini oqlamas deb o'ylayman. Negaki, unda romanbop muammo yetishmaydi, ijtimoiy yuki yengilroq. Birgina muallif Alisherning 5-6 yoshidan (undan oldingi xotiralar kamida 60

yashar muallifga tegishli) to 1966 yilda V.I.Surikov nomidagi Moskva davlat badiiy institutiga jo'nab ketgungacha bo'lgan 12-13 yillik hayot yo'li roman uchun kamlik qiladi. Shu bilan birga roman uchun muhim hisoblangan xarakter ham uchramaydi. Shularni hisobga olganda mazkur asarni roman emas, "biografik qissa" deb atash ma'qul bo'lar? Ehtimol, voqealarning davomi bordir? Har holda birgina muallifning hayot yo'lini aks ettirishga bag'ishlangan asarni roman deb emas, qissa sifati-da tavsiya qilish ulug'larimiz S.Ayniy ("Esdaliklar"), Oybek ("Bolalik"), A.Qahhor ("O'tmishdan ertaklar"), N.Safarov ("Ko'rgan-kechirganlarim")lardan qolgan odat ekanligini unutmaylik¹.

Xususan, bugungi o'zbek yozuvchilari "Qur'oni karim" dagi rivoyatlar (Odam ota bilan Momo havoning uchrashishi, jannatdan yerga badarg'a etilishi; SHaytonning jannatdan quvilishi, Ya'juj va Ma'juj, Qobil va Hobil hikoyati; "Ashobu qahf afsonasi" va boshqalardan) va diniy-mifologik qahramonlar: Shayton, Jin, Suvosti maxlug'i, hukmdor Iskandar, g'orda uxlab qolgan yetti aka-uka va bir it obrazlarini yangicha nigoh, yangicha ruh bilan yaratishdi. Masalan, Sh.Bo'taev "Shox" romanida Ximer, N.M.Raufxon "Shaytoni Buzurg" hikoyasida Shayton Buzurg obrazini yaratishda "Qur'oni karim" va boshqa diniy manbalardagi rivoyat va hikoyatlar motiviga suyanadi.

U.Hamdam "Isyon va itoat" romanida Odam ota bilan Momo havo rivoyatini bugungi kun odamining hayotiga parallel badiiy ramz sifatida foydalanadi.

X.Do'stmuhammad "Qichqiriq", "Beozor qushning qarg'ishi" hikoyalarida yovuz suvosti maxlug'i, muqaddaslashtirilgan Qaldirg'och obrazini yaratishda "Qur'oni karim" rivoyatlariga tayanadi. Mazkur muallifning italyan yozuvchisi Dino Butsatining "Yetti qavat" hikoyasiga nazira shaklida bitilgan "Jimjitxonaga yo'l" hikoyasida esa sharqlik va g'arblik bemor kishining o'lim sari ikki xil dunyoqarash bilan yondoshishini diniy e'tiqod bilan bog'laydi. "Qur'oni karim"dagi yuksak insoniy g'oya, komillik tarannum etiladi. Ya'ni o'limni umidsizlik, qayg'u-alam bilan emas, kulib qarshi olish ham "komillik" belgisi sifatida talqin etiladi.

Sh.Bo'taev "Shox" romanida ikki yosh ishbilarmonlar Hotam va Qulmahmudning g'alati, quloq eshitib, ko'z ko'rmagan sarguzashtlaridan hikoya etadi. Roman strukturasida kuchli sarkazm, parodiyaviy-hajviy ohang, parodiya-obraz, kinoya, niqobli kishilar obrazi, voqealar va qahramonlarni boshqa mamlakat, boshqa millat qiyofasiga ko'chirib tasvirlash priyomi, shuningdek, neomif unsurlari ko'rinish berib turibdi. Asarda ironik badiiy modus bilan neomifologik modus shu darajada qorishiq, professional qalam bilan qo'llanganki, yaqin orada bunday asar o'qimagan edim.

Nemis adibi Gyotening "Faust" tragediyasidan "Egri shox, to'g'ri shox, ahli turfahol" misrasi "Shox" romaniga epigraf sifatida tanlangan. Yuqorida aytganimizdek, I.V.Gyote "Faust" tragediyasini yaratishda nemis xalq afsonasiga suyanadi. Unda aqlli inson (doktor Faust) va shayton (Mefistofel) obrazi aks ettirilgan. Shoyim Bo'taev "Shox" romanida uzoq badiiy genezisga ega bo'lgan

¹ Тўраев Д. Янги ўзбек адабиёти (Ўқув қўлланма) – Т.: "Фан", 2008.

2. Баҳор. Шамол ҳикмати. – Т.: "Шарқ юлдузи" журн. 2014, №5.

Shayton obrazini bugungi kun voqealari va odamlari qatorida “Janob Ximer” qiyofasida qayta jonlantiradi. Bu obrazga berilgan tavsiflar, uning damba-dam mutoala qiladigan ota-bobolari tarixini varaqlashi, barcha-barcha ramziy detallar uning “Shayton” obrazi ekanini tasdiqlaydi.

Romanning yangilangan neomifologemalari sifatida yaratilgan janob Ximer va Doktor Rabinovich mohiyatan Gyotening Mefistofeli bilan doktor Faustini eslatadi. Bu diniy-mifologik, adabiy obrazlar o’rtasida anchayin nozik parallellar kuzatiladi. Kuzatayotganimizdek, Sh.Bo’taev nemis xalq afsonalari ta’sirida yaratilgan “Faust” asaridagi badiiy arxitipdan mahorat bilan foydalanadi. Ammo yozuvchi Sh.Bo’taev tragediyadagi mashhur xalq afsonasida aytilgan syujetni aynan takrorlamaydi. Yozuvchi o’zining shaxsiy fantaziyasi, yuksak badiiy tafakkuri bilan “Shox” romanini yaratadi. Yozuvchi Shayton obrazini yaratishda nafaqat, nemis adibi Gyote asariga tayanadi, balki, turkiy xalqlar mifologiyasidan ham ta’sirlanadi, ulardan unumli foydalanadi. Eng muhim manba sifatida islom dinining muqaddas kitobi “Qur’oni karim”, bundan tashqari, Nosiriddin Rabg’uziyning “Qissas ul-anbiyo” asarlaridagi suralar, afsonalar, hikoyatlar mag’zini roman sahifa-lariga mahorat bilan muhrlaydi. Zero, romanga murojaat qilamiz: “Janob Ximer bobosi Iblis-ning yer yuziga tushishi haqida turli xalqlarda turlicha to’qilgan yuzlab rivoyatlardan yana bittasini shu kitob ichidan topib olib, qiziqsinib ko’zdan kechirmoqda edi...” [1: 109]. Yozuvchi Odam Otaning Sarandib tog’iga tushishi, Momo Havoning Jadda tog’iga tushishi, Iblisning Basraga tushishi haqidagi diniy miflarni romanda Janob Ximer obrazi va uning ota-bobolari o’tmishi sifatida qiziqarli uslubda bayon etadi. Janob Ximer romanda “aql, tadbirkorlik” timsoli bo’lishi bilan birga odamlar o’rtasida “nifoq, aldov, harom-harish, zinokorlik, ko’zbo’yamachilikning doyasi” sifatida ham ramziy talqin etiladi.

Roman qahramonlari Hotam va Qulmahmud uzum biznes qilayotib, noqonuniy ravishda, o’zlari anglab-anglamay yana bir ishga qo’l urishadi. Sayg’oq shoxini biznes qilishadi. “Shox biznesi”, “Oltin shox mukofoti”, “Oltin shox shou” dasturining o’tkazilishi asarda original bir syujet sifatida topilgan. Erkak sayg’oq shoxidagi jinsiy quvvatni oshiruvchi suyuqlik juda qimmat narxda sotiladi.

Ma’lumki, afsonalar va diniy manbalarda Shayton obrazi shoxli, dumli, tuyoqli, jundor maxluq sifatida tasavvur qilinadi. Sh.Bo’taev mazkur obraz haqidagi diniy-mifologik va adabiy qarashlarga suyangan holda Shayton obrazini xuddi shu tarzda va inson qiyofasida tasvirlaydi. Masalan, shaytonni o’z ko’zi bilan ko’rgan Polina bayonida shunday ifodalanadi: “-Ko’chada ortimdan quvib kelgan shoxdor maxluqni anavu yerda ko’rganday bo’ldim, - dedi Polina halizamon Qulmahmud turgan joyni qo’li bilan ko’rsatganicha. – Hammayog’ini jun bosib ketgan, ko’zlari qip-qizil maxluq...” [1:180]. Yoki yana bir qahramon Lo’li qizga ta’rifida Shayton shunday tasvirlanadi: “-Siz qaramang, ko’raman deb ovora bo’lmang, - vaysardi lo’li. – Baribir ko’rolmaysiz. U-u-u, ko’zi yamonakan, ko’zidan man qo’rxdim. Qulog’ini jun bosgan, yelkalari bukchaygan, chixgan” [1:32]; “Haydovchi quvib yuborgan lo’li qiz Hotam bergan pulni uvada-suvada kiyimlarining ichiga tiqar ekan, hadeb:

- Shayton, shayton! – deya g’o’ldirar, qalt-qalt titrardi” [1:24].

Janob Ximerning yana bir alohida xususiyati odamning ichidagi fikrini o'qiydi. Sh.Bo'taev Shayton qiyofasidagi "Janob Ximer"ning aynan shu xususiyatiga urg'u berib boradi. Shu yo'l bilan adib Shayton obraziga ilohiy, mifologik talqin beradi. XX asr zamonaviy o'zbek nasrida Shayton obrazining yangicha badiiy talqini Fitratning "Shaytonning tangriga isyoni" asarida boshlanib, asr adog'i va yangi asr boshida Sh.Bo'taevning "Shox", N.Eshonqulning "Tun panjaralari", N.M.Raufxonning "Shaytoni Buzurg" asarlarida bu obrazga takror murojaat etildi. Har uch yozuvchi Shayton obrazini roman va hikoya janrida yaratar ekan, "Qur'oni karim" va Rabg'uziyning "Qissasi ul anbiyo" asarlaridagi SHayton haqidagi rivoyat-lar mazmuni va bu obrazning zohiriy va botiniy xususiyatlariga birxilda yondoshib, ayni paytda har biri alohida individual badiiy to'qimasi orqali timsolni mukammal neomifologema sifatida yaratish uchun o'zlarining shaxsiy ijodkorlik salohiyatini namoyon etishgan. Biz yuqorida, Shoyim Bo'taevning "Shox" romanidagi Janob Ximer (shayton) obraziga biroz to'xtalib o'tdik.

Sh.Bo'taev shayton obrazining timsoli sifatida Janob Ximer obrazini yaratishda "Qur'oni karim"da yozilganidek, odamning qoni ichiga kirib olgan Iblis rivoyatini asosiy badiiy arxipip sifatida tanlaydi. Bu rivoyat tarixi romanning yettinchi bobida hikoya etiladi. "Qur'oni karim" dagi mazkur rivoyat bilan romanda hikoya etilgan Iblis haqidagi rivoyatlar bitta tomirdan o'sib chiqqan.

Sh.Bo'taevga o'xshab Shayton obrazini inson qiyofasida aks ettirgan yozuvchi N.M.Raufxondir. Xususan, bu diniy-mifologik obraz adibning "Shaytoni Buzurg" hikoyasida uchraydi. N.M.Raufxon ham inson qiyofasiga kirib olib, so'ngra o'z maqsadini amalga oshirish uchun Murda yuvg'uchi ayolning tanasiga kirib olgan Shayton va shaytonni ham yarim yo'lda qoldirgan murda yuvg'uchi hikoyatini xalqona uslubda hikoya etadi. Shaytoni Buzurg har qancha sehru jodusini ishlatmasin, murda yuvg'uchi ayolning makrlari, nafi oldida ip esha olmay qoladi. Mana yozuvchi Shayton Buzurg tilidan nima deydi: "Shaytoni Buzurg o'ylardiki, odamni doim yetaklab yurish kerak, ammo Shaytoni Buzurg bilmasdiki, odamni doim yetaklab yurish shart emas, o'zining ham ko'zi bor, oyog'iyu qo'li bor, bir oborib ko'rsatib qo'ysang bas, yo'lidan adashmaydi. Shaytoni Buzurg faqat men shaytonman deb o'ylardi, odamlar ham o'zidan o'zib ketishi mumkinligini bilmas edi" [2:70].

Sh.Bo'taev bilan N.M.Raufxon SHayton obrazini yaratishda (Janob Ximer va Shaytoni Buzurg) "Qur'oni karim"dagi shaytonning jannatdan quvilishi haqidagi rivoyatni asos qilib oladi. Har ikki yozuvchi asar matniga bu rivoyatlar mazmunini ilova qilishadi. "Shox" romanining yettinchi bobida shu rivoyat hikoya etilgan bo'lsa (Iblis va uning bolasi Hannos haqidagi rivoyat), "Shaytoni Buzurg"da ixcham shaklda hikoya qahramoni Shaytoni Buzurgning xotiralari tarzida tilga olinadi. N.M.Raufxon Shaytonning jannatdan quvilishini qahramonning achchiq, alamli xotira-o'ylari shaklida beradi: "Shaytoni Buzurg astoydil bo'zladi. Haq taolodan qarg'ish olib, yerga surgun qilingan ilk damlarini esladi. Ko'ziga yosh keldi – o'tmishini qo'msadi. La'natlangan, quvg'inga uchragan bo'lsa ham, u paytlar yer yuzida o'zi yakkayu yagona edi, ko'ngli neni tusasa qilardi, ne tirqishga bosh suqsa kirib ketaverardi, na bir to'siq, na bir raqibi bor edi. Endi-chi?" [2:63].

Nazarimizda, yozuvchi Shaytonning jannatdan quvilish tarixini Shaytoni

Buzurgning xotira-xayollari sifatida bayon etishi hikoyaga behad jonlilik, tabiiylik, jaydarilik ato etgan.

Har ikki yozuvchi Sh.Bo'taev va N.M.Raufxon uchun Shayton obrazini yaratishda "Qur'oni karim"dagi rivoyat muhim poydevor bo'lib xizmat qilgan. Buni aslo chetlab o'tib bo'lmaydi.

Xulosa shuki, hozirgi o'zbek nasrida dadil qalam tebratayotgan Sh.Bo'taev, N.M.Raufxon kabi adiblarimiz Shayton obrazini yaratishda bir tomondan "Qur'oni karim" kabi muqaddas kitoblarga, diniy rivoyatlarga suyansa, ikkinchi tomondan xalq og'zaki ijodi va g'arb adabiyotining o'lmas an'ana-lariga sodiq qoladi. Ular qaysi diniy, adabiy manbalarga suyanmasin, Shayton obrazini, unga xos badiiy-g'oyaviy xususiyatlarni ochishda bugungi kunning muhim ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy muammolari bilan bog'laydi. Shayton obrazining ming yillik genezislari bo'lishiga qaramasdan, bugungi o'zbek nosirlari bu obrazni original va o'ziga xos tarzda yaratishga muvaffaq bo'lishdi. Bu sirada Shoyim Bo'taevning Janob Ximer ("Shox" romani qahramoni), N.M.Raufxonning Shaytoni Buzurg ("Shaytoni Buzurg" hikoyasi qahramoni), Nazar Eshonqulning SHayton ("Tun panjaralari" qissasi qahramoni) obrazlarini misol keltirish mumkin. Bu uch yozuvchi Shayton obrazini yaratishda har biri o'z badiiy fantaziyasi va bilimi, turfa adabiy tajribalarga tayanishida farqlanadi. Masalan, Shoyim Bo'taev yunon mifologiyasidagi Ximera obrazini qayta tiriltirdi. Shu bilan birga "Qur'oni karim" va Rabg'uziyning "Qissasul-anbiyo" asaridagi rivoyat va suralarga suyandi. Demak, Shoyim Bo'taev yaratgan Janob Ximer ismli Shayton timsolida sharq va g'arb an'analari va mifologiyasi sintezini kuzatish mumkin. Shu tariqa yozuvchi Shayton obrazini mukammal va betakror badiiy timsol yaratishga muvaffaq bo'lgan. Nurillo Muhammad Raufxon o'zbek xalq og'zaki ijodi, arab xalq ertaklari "Ming kecha" an'analari va "Qur'oni karim" rivoyatlarga sodiq qoldi. Bu adib Shayton obrazini yaratishda an'anaviy realizmdan foydalanadi. Nazar Eshonqul esa Shayton obrazini yaratishda assotsiativ badiiy tafakkur va ramziy-majoziy uslubni qo'lladi. N.Eshonqul tasviridagi Shayton obrazi qiyofasida g'arb adabiyotiga xos modern nasr an'analari ustunlik qiladi.

Адабиётлар

1. Бўтаев Ш. Шох. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2006.
2. Нуруллох Муҳаммад Рауфхон. Этакдаги кулба. – Тошкент: Академнашр, 2014.
3. Дўстмуҳаммад Х. Беозор кушнинг қарғиши. – Тошкент: Шарқ, 2006. Кун Н.А. Қадимги Юнонистон афсона ва ривоятлари. (Қодир Мирмуҳаммедов таржимаси). Тошкент: Ўзбекистон, 2013.
4. Султон И. Бокий дарбадар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
5. Стивенсон Р. Шайтоний шиша // Жаҳон адабиёти. №11. 2009.
6. Эшонкул Н. Ялпиз хиди. – Тошкент: Шарқ, 2008.
7. Эшонкул Н. Шафтоли гули. – Тошкент: Шарқ, Ўзбекистон, 2011.

ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК РОМАНЛАРИДА БАДИИЙ МОДИФИКАЦИЯ

Янги ўзбек романчилиги жаҳон адабиётида рўй бераётган шакл ва мазмун ўзгаришларини ўзида акс эттираётгани билан характерлидир. Бу жиҳат 80-йиллар сўнги 90-йиллардан кейинги янги романларининг модификацион табиати билан белгиланади.

М.М.Дўстга келиб бадиий модификациянинг тамомила кутилмаган ва оригинал шакли кўзга ташланади. Унинг “Лолазор” романи бошқа анъанадаги романлардан сюжет, ривоя услуби, образлар дунёси, воқеликни полифоник талқин қилиши нуқтаи назаридан туб фарқли томонларини намоён этди.

“Лолазор”даги сюжет Ж.Жойс ва У.Фолькнер романлари сюжетини эслатади. Ж.Жойс ўз қаҳрамонини болалигидан бошлаб учта роман доирасида бадиий тасвирлайди. “Санъаткорнинг ёшликдаги сурати”, “Улисс”, “Фенеганнинг маъракаси” каби романларнинг барчаси Стивен Дедалус образини очиб беришга қаратилган. Дедалус ҳаёти роман учун асос бўлиб хизмат қилган. У.Фолькнернинг “Шовқин ва ғазаб” романида эса бир воқеага бир нечта образ муносабатининг бир пайтнинг ўзида параллел берилиши хосдир.

М.М.Дўст мана шундай европа ва америка романчилиги усулларини бир роман қатламига сиғдиришга эришди. Асар бош қаҳрамонлари Назар Яхшибоев ва Ошна ҳаёти биографик тарзда асар сюжети учун асос қилиб олинган. Бунда биз уларнинг болалигини, йигитлигини, ўрта ёшлиги ва умрининг сўнгги йилларини ҳам кўрамыз.

Бундаги воқеаларнинг аксарияти Назар Яхшибоев полифоник дунёси призмасида қабул қилинади. Шу билан биргаликда Яхшибоевга тескари руҳда бўлган яна бир одам – Саидкул Мардоннинг ҳам ўз полифоник дунёси бор. Улар дунёни икки хил қиёфада кўрадилар. Аммо полифоник қабул қилиш борасида бир-бирларига анча яқин турадилар.

“Лолазор”даги ривоя услуби ҳам ўзига хос. Унда биз муаллиф ривоя йўлини қаҳрамонлар ривоя йўлидан бемалол фарқлай оламиз. М.Бахтин

айтадики, полифоник романда ўз ички диалоги, идеяси ва шу асосда шаклланадиган ўзини англаши (самосознания)га кўра ҳар бир образ алоҳидалик касб этади. Ҳатто бу борада муаллифнинг ўзи билан ҳам баҳслаша олади².

Яна М.Бахтин полифоник романнинг муҳим хусусияти сифатида: “Бундай ҳамма нарсани мутлоқ бутунликда кўриш, бир пайтда, гўё бир замонда эмас, ягона маконда қабул қилиш ва кўрсатиш шунга олиб келадики, бир одамнинг шаклланишидаги ички руҳий босқичлар, ички зиддиятлар бир маконнинг ўзида драматиклашади, қаҳрамоннинг ўз эгизаги, ички алтер эгоси, карикатураси билан баҳсига олиб келади”³, деган фикрни илгари суради.

Бир қарашда романдаги Назар Яхшибоев образи билан Саидкул Мардон образлари антиподдек туюлади. Аммо полифоник роман талабидан келиб чиқиб ёндашадиган бўлсак, Саидкул Мардон Назар Яхшибоевнинг эгизаги (двоник) эканлигини аниқ сезамиз. Назар Яхшибоевда фольклор ёки анъанавий ўзбек романчилигидаги образларга хос бирон хусусият кузатилмайди. У том маънодаги совет даври ижтимоий турмуши етиштирган “замонавий одам” образи. Ўз замонасининг оғир-енгил томонларини кўриб улғайган. Даврнинг мураккаб интригалари ичида шаклланган, элитар доираларга киришга уринган, шу жамиятнинг биринчи одамлари билан бирга кадам ташлаб, ўз мавқе-мартабаси, ижтимоий мақомига эришган. Шу сабабли Яхшибоевнинг бир эмас иккита қиёфаси бор, бири идеал совет одами, ёзувчи, иккинчиси Булдуруқ қишлоғининг фуқароси, ўтмишдаги ўсмир. Чунки Яхшибоев ҳали ўсмирлик пайтида Ошна билан бирга шу қишлоқдан Ўзбекистон пойтахтига келган. Мақсади илми олиб, одам бўлиб қишлоғига қайтиш эди. Булдуруқнинг ўша вақтдаги раиси Хотам шўро ҳам уларни шундай “топширик” билан шаҳарга жўнатган. Ҳаёт эса уларга бошқа

² Қаранг: Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Сов.писатель, 1963. – С. 360.

³ Бахтин М. Кўрсатилган аср. – С. 39.

цсенарий тузиб қўйган эди. Улар эндиликда қишлоқнинг эмас бутун Ўзбекистоннинг биринчи одамларига айланадилар.

Аммо бундай ютуқ Яхшибоевни қониқтирмайди. У ўзининг Яхшибоев қиёфасини сунъий тарзда шакллантирган. Кўнглида эса тамомила бошқа одам. Унинг ички дунёси ўзи билан. Бу асл қиёфа бўлиб, уни ҳеч кимга кўрсатмайди. Яхшибоев ўзининг ичидаги эгизагига маслакдош дўстни яқинлари орасидан топа олмайди. “Дўстлар аслида дўст ҳам эмасди. Яхшибоевдан кўрқишарди холос”, деб ифодалайди буни ёзувчи⁴.

Ҳақиқатдан ҳам, Ошна ижтимоий ҳаёт йўлларида илдамлаб кетади, советча турмушнинг олдинги жабҳаларида тугал ишонч билан қадам ташлайди. Яхшибоевни ҳам ўз ортидан эргаштиришга уринади. Яхшибоевга эса мутлоқ ошнанинг соясига айланиши учун ичидаги эгизаги ҳалал беради. У ошна у ёқда турсин, ҳатто Яхшибоевнинг ўзига ҳам бўйинсунмайди.

Яхшибоев учун хотини, бола-чақаси ҳам бегона. Унинг сезишича, улар Яхшибоевга ўз манфаатлари учун, сунъий, зўрма-зўраки муносабат қиладилар. Шогирдларини эса Яхшибоев ҳатто бир-биридан ажратолмайди ҳам. Уларнинг ҳаммасига бир хил – “Чоршанби” деган исм қўйиб олган.

Буларнинг ҳаммаси М.М.Дўстнинг полифоник романида Яхшибоевнинг эгизаги борлиги билан изоҳланади. Саидқул мардон эса Яхшибоевга ўша ўсмирлиги, ёшлигини эсалатади. Яхшибоев Саидқул Мардоннинг йўқолган укасини топиб беради. Булдуруқдан боғ қилиш учун бошқа ҳеч кимни эмас, ўзи билан айнан Саидқул Мардонни олиб кетади. Уни қалбининг тўрида асраб юрган болалик, ўсмирлик дунёсига яқин кўради. Аммо вақти-вақти билан унда қари Яхшибоев феъли бош кўтариб қолади. Шунинг учун Саидқул Мардонни бир томондан ўзи – ўсмир Назарга яқин олади, бошқа томондан Яхшибоев ўлароқ унинг устидан кулади. Барибир асар сўнгигача ҳам Яхшибоев ўзининг асл “мен”ини топа олмайди. Топганда ҳам энди Назар

⁴ Муҳаммад Дўст М. Лолазор. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 5.

бўлиб яшай олмаслигига кўзи етади. Оқибатда Яхшибоевлигича вафот этади⁵.

Маълум бўлмоқдаки, “Лолазор” ўзбек романчилигига оид тамомила янги ҳодиса. Полифониклиги нуктаи назаридан Ф.Достоевский романларига хос айрим шаклий хусусиятлар воситасида миллий роман дунёсида муайян ўзгариш қилган бўлса-да, моҳиятига кўра янги миллий роман ҳисобланади. “Лолазор” совет даври ўзбек кишиси образининг совет мафкураси таъсиридан ҳоли тарзда, холис тасвирлаган биринчи романдир.

Мана шундай бадий модификация жараёнларини ўзида аниқ акс эттирган яна бир роман Тоғай Муроднинг “Отамдан қолган далалар” романи ҳисобланади. Бу роман ҳам ўзбек романчилиги тарихида жанрнинг янги шаклини тақдим этган асар сифатида алоҳида аҳамиятга эга. Т.Мурод бу романи билан ўзбек романчилигига учта муҳим янгилик олиб келди. Биринчидан, романдаги Деҳқонқул образи Т.Муродгача ёзилган роман образларига нисбатан тубдан фарқ қилади. У совет даврида яратилган деҳқон образига ҳеч жиҳатдан ўхшамайди. Унда мустамлака даврида яратилган деҳқон образларга ўхшаб сунъийлик, юзакилик, кўзбўямачилик йўқ. Бу образ совет даври ўзбек деҳқони қандай бўлган бўлса, бор икир-чикирлари, кучли-ю ожиз томонлари, қувончу ташвишлари, кулгили томонлари-ю фожиалари билан бирбутунликда тасвирланган. Иккинчидан, айнан шу романда биринчи бўлиб ўзбек деҳқони ҳаёти ўз тилидан ўзи ҳақида ҳикоя қилдирилган. Содда, танти, меҳнаткаш деҳқон нигоҳи билан ўзининг икки авлоди ҳаёти ва ўз даврининг маиший ва ижтимоий муаммолари сўзлаб берилган. Деҳқон бу романда ровий образи даражасига кўтарилган. Ёзувчи эса гўё тингловчига айланган, Деҳқонқулнинг ўзбек деҳқони қисмати ҳақидаги сўзларини жимгина тинглаган, холос. Шу тариқа ўзининг бадий ғоясини, “Отамдан қолган далалар” романи концепциясини тўлақонли бера олган. Учинчидан, ўзбек романчилиги тарихида илк бор роман тили роман қаҳрамони яшаётган ҳудуд (Сурхондарё) диалекти, фольклор асарлари (“Алпомиш”) тили ва

⁵ Қаранг: Муҳаммад Дўст М. Лолазор. – Тошкент: Шарқ, 1998.

ёзувчининг бадиий маҳорати муштараклигида ўз ифодасини топган. Натижада воқеликни бадиий тасвирлашнинг тамомила янги бир шакли вужудга келган.

Аммо шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, А.Қаҳҳордан эътиборан ўзбек романи бадиий шакл ва ғоявий жиҳатдан илк анъаналардан бир оз чекина бошлаган, М.М.Дўстга келиб эса мутлоқ бошқа шаклий-мазмуний позицияни эгаллаган бўлса, Т.Мурод анъанадаги бадиий ғояни янги шаклда қайта тирилтирди. Миллий дардни ўзбек романи марказига қайтарди. “XX аср ўзбек адабиёти” китобида бу ҳақда шундай фикрлар олға сурилади: “Шуниси таскин берадики, мислсиз миллий зулм, зуғумлар исканжасида ҳам миллий истиқлол, эрк, озодлик ғоялари туғилиб шаклланаверди, XX аср бошларига келиб истибдодга нафрат, истиқлол мотиви адабиётда етакчи мотивга айланди... Истиқлол кунларига келиб эл-юрт йўлида нимаики бўлса – барини тўкиб солиш имкони пайдо бўлди... Қисқаси “Отамдан қолган далалар” истиқлол даврининг илк хайрли самарали асарларидан биридир. Империя сиёсатини, мустабид тоталитар тузум мафкураси моҳиятини бу қадар ошкора, кескин фош этадиган асарнинг бизда бундан ўн, ҳатто беш йил бурун чиқишини тасаввур қилиш қийин. Гарчи муаллиф роман устидаги ишни 1986 йил бошлаган бўлса-да, 1991 – Истиқлол йилларида охирига етказгани, асар 1993 йили дунё юзини кўргани тасодиф эмас”⁶.

Дарҳақиқат, миллий-ижтимоий муаммолар масаласи Т.Муродга келиб қайта кўтарилди, ҳаққоний ёритилди. Собиқ совет тузумининг барча кирдикорлари шу роман асосида очиб берилди. Жамолиддин кетмон, Акраб ва Деҳқонкулдан иборат уч авлод ҳаётининг ёритиб берилиши билан Т.Мурод ўзбек халқининг юз йиллик тарихини қамраб олди. Аммо бошқа романнавислардан фарқли ўлароқ тамомила янги шаклда ҳикоя қилиб берди. Ундаги ўзбек кишиси, унинг нуктаи назари, воқелик радиусидаги ҳаракат дастури ўзгарди. Реал ҳаёт, фолклор, жаҳон модернизм адабиётига хос образларни муштараклаб янги модификациялашган бадиий қиёфа касб этди.

⁶ Н.Каримов ва бошқ. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б. 532-533.

Совет даври ўзбек халқи ҳаётини ўзгача, модификациялаштирилган шакл-шамойилда тасвир этиш анъанаси яна икки романда ўз аксини топди. Буларнинг бири Н.Эшонкулнинг “Тўрўғли”, иккинчиси Л.Бўрихоннинг “Жазирамадаги одамлар” романларидир. Н.Эшонкул совет тузумининг ботиний моҳияти, мақсад-муддаолари, антигуманистик сиёсати, унинг ичидаги ёлғон-алдовлар, лоқайдликлар, ноҳақлик, адолатсизликларни рамзий усулда тасвирлаш йўлидан боради. Бош қаҳрамон Н.нинг кўрган-кечирганлари, қисмати, тақдири, босиб ўтган интиригаларга тўлиб-тошган йўл-чизиқлари, воқеалар давомида бошини урган идора-ю ташкилотлари, буларнинг ҳамма-ҳаммаси рамзий маънода тоталитар тузумнинг муайян чегаралари, модернизм усулида модификациялаштирилган тасвирлари эди. Н.Эшонкул асари ташқаридан қараганда модернистик рамзлар билан ўраб ташланган, модернистик рамзлар қоришмасидан иборат кафкаёна бадий қурилма бўлиб кўринади. Аммо рамзлар тўғри ечиладиган бўлса, унинг ички ғояси, мазмун-моҳиятида Т.Муродниқидан кам бўлмаган ижтимоий, миллий дард яширинлиги маълум бўлади. Шундагина биз асар қаҳрамони Н.нинг том маънода советлар тузumi ичида ўзлигини йўқотаётган миллат вакили эканлигини сезгир англаймиз. Муҳими Н.Эшонкул мана шу бир образ, кўпчизиқли сюжет (ёки моденистик) воситасида совет даври ўзбек кишиси – унинг барча тоифа ва табақаларини қамраб олган типик образни тақдим этди⁷.

Адабиётшунос Саъдулла Мирзаевнинг ёзишича: “Бу янги давр романчилиги ҳақида гап борар экан, аввало, унинг мавзу доираси кенгайгани, ҳаққонийлик чуқурлаша борганини алоҳида қайд этиш лозим... романларнинг аксариятида айрим тарихий шахсларгина эмас, балки, умуман халқ тарихи янгича талқин этилди”⁸. Ўзбек романчилигидаги бундай доимий ўзгаришлар жараёни В.Г.Белинскийнинг “Адабиёт – ҳаракатдаги эстетика”, деган машҳур афоризмига тўлиқ маънода мос келади.

⁷ Қаранг: Эшонкул Н. Тўрўғли //Шарқ юлдузи... ???

⁸ Мирзаев С. XX аср ўзбек адабиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 85.

Худди юқоридаги икки роман каби Л.Бўрихонинг “Жазирамадаги одамлар” романи ҳам собиқ совет тузуми исканжасида турмуш кечирган ўзбек халқи турмуши, ундаги мураккабликлар, фожиаларни кўрсатишга қаратилган. Асар мазмунан А.Ориповнинг “Аёл” шеъридаги мазмунга бадийий антитезани намоён этади. Агарда “Аёл” шеърида урушда ҳалок бўлган ёри учун умрини қурбон этган ўн тўққиз ёшли дилбар бир аёлнинг қарори, қатъияти, садоқати мадҳ этилса, эри Афғон урушида нобуд бўлган Лолахон қисмати башқачароқ ракурсда бадийий тасвирлаш “Жазирамадаги одамлар” романи бадийий ғояси ҳисобланади. Аммо бу асарда аёлнинг нақадар нозик ва ҳимояга муҳтож яратик эканлиги, унинг устига оғир ижтимоий вазифаларни юклаш алал-оқибатда фожиага олиб келиши мумкинлиги ҳақида сўз боради. Л.Бўрихон талқинича, аёлнинг бахт-саодати оила билан. Ижтимоий ҳаётнинг фаол жабҳаларига кўтарилган аёл ташқаридан қанчалик бахтли кўринмасин, қалби ўксик бўлади. У юқори минбарлардан туриб ҳам ўз жуфтини, ёрсиз хазон бўлган ёшлиги, ўтиб кетаётган гулдек умрини ўйлаб эзилади.

Совет даврининг мудҳиш мустамлакаси даврида ўзбек халқи бир эмас, икки жафали урушни бошдан ўтказди. Дастлабки иккинчи жаҳон уруши, иккинчиси Афғон уруши. Афғон урушида ҳам бу халқ иккинчи жаҳон урушидан кам жафо чекмади. Нордек ўғилларини қурбон берди, уларнинг айрилиғига куйик кўкси билан бардош берди. “Жазирамадаги одамлар”да ўзининг сўлим гўшасидан, киндик қони тўкилган тоғли диёридан кўчирма қилинган аҳолининг чўлу биёбонда жон сақлаш ва айниқса совет давлати елкасига юклаган пахта режасини уддалаш учун чеккан азоб-уқубатлари ҳақида гап боради. Юзаки қараганда бир кичик посёлкада бўлиб ўтгандек тасаввур берувчи роман воқеалари теран мазмунига кўра бутун ўзбек халқи турмушини рамзий ифодалайди. Ҳақиқатдан ҳам, бобо-ю бобокалонлари анъанасига кўра сўлим боғларда, маънан юксак бир муҳитда яшаб келаётган ўзбек халқи, мустамлака сиёсати, кейинги советлар инқилоби натижасида ҳам маънавий, ҳам моддий нуқтаи назардан советлар кашф этган чўлу

биёбонга ташланди. Жазирама ҳаётига маҳкум қилинди. Бу шундай бир жазирама эдики, унда барча маънавий қадриятлар бой берилиши эҳтимоли бор эди. Аёл, она қадрияти эса мислсиз хавф остида жони узилиш арафасида ҳилвираб турарди. Асардаги Лолахоннинг ўз қайниси, ўз қавмининг эркаги томонидан ўлдирилиш воқеаси шунчаки тасодиф бўлмай, қадриятларини унутиб “манқурт” (Ч.Айтматов)га айланаёзган халқ муаммосини бадий талқин этади⁹. Мана шу жиҳатлари билан “Жазирамадаги одамлар” романи “умуман халқ тарихи янгича талқин этил”ган асарлар сирасидан жой эгаллайди.

Т.Рустамовнинг “Капалаклар ўйини” номли романи ҳам модернистик рамзлар орқали ўзбек халқи турмуш тарзининг умумий манзарасини бериши нуқтаи назаридан шу умумий сирага киради. Тўғри, асардаги умумий киноя руҳи, образларнинг модернлаштирилган портретлари ва характерлари, модернча услуб унинг ўзгачароқ ракурсда намоён бўлиши масала моҳиятини мураккаблаштиради. Аммо асардаги рамзлар тўғри ечилса, Т.Рустамовнинг европа модернистик романини модификациялаш йўли билан миллий ижтимоий ҳаётга хос руҳий, маънавий, иқтисодий, сиёсий муаммоларни бадийлаштириб талқин этгани аниқ бўлади. Ёзувчи ўзи тасвирлаган маконни “Бақаҳовуз” деб атайди: “Бақаҳовуз вақти билан соат роппа-роса ўн олти-ю қирқ тўртда тайёрагоҳ биқинидаги гавжум бекатга троллейбус пишиллаб келиб тўхтади. Тўхтади-ю эшигини “шарқ” эткизиб очиб, ҳаммадан бурун ташқарига зироат ва зираворшунослик куллийётининг толиби Бадал Армонни итқитди”¹⁰.

Биринчи жумлалардаги киноя, рамзлар уйғунлиги, образлар метафориклиги асарнинг сўнгги жумласигача қизил ип бўлиб тизилиб боради. Ёзувчи Бақаҳовуз рамзи орқали совет тузумининг биқик, нафас олиб бўлмас даражада диққанафас муҳитига ишора қилади. Унингча бутун Ўзбекистон мана советлар ташкил этган “лойқа ҳовуз” (А.Орипов)да яшашга

⁹ Бўрихон Л. Жазирамадаги одамлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 2004.

¹⁰ Рустам Т. Капалаклар ўйини. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 3.

махкум этилган. Асарда роман воқеалари содир бўладиган тарихий вақт очик тасвир этилмаган бўлса-да, ундаги баъзи ишоралардан 70-йилларнинг охири, 80-йилларнинг бошидаги совет даври руҳи сезилиб туради. Дарвоқе, бу асарда ҳам “Жазирамадаги одамлар”даги каби Афғон уруши билан боғлиқ эпизодлар бор. Фақат Т.Рустам буларнинг ҳаммасини Бақаҳовузда кечаётган диққанафас ижтимоий турмуш рамзига сингдириб юборади. Асар бош қаҳрамонининг исми ҳам рамзий маъно ташийди. Бадал Армон ғайриинсоний тузум бадалига миллий армонга айланган тоза ҳаво, эрк ва озодликни ифодалайди. Унинг бир издан чиқмай юрадиган техника воситаси – троллейбусда тасвирланиши ҳам якранг совет турмушига репликани билдиради. Бадал Армон “зироат ва зираворшунослик куллийётининг толиби” ҳисобланади. Бу эса миллий илм толиби – миллат келажагининг майда-чуйда, ўткинчи мақсадларга банд қилиб қўйилганини билдиради. Асар сўнгида муаллиф Бадал Армон тилидан шундай жумлани беради: “Барибир бош олиб чиқиб кетаман”¹¹. Бу жумла уйғоқ қалбли миллатнинг бундай муҳитда яшай олмаслиги, муқаррар ҳолатда озодликка интилавериши, бир кун келиб эркка эга бўлишини бадий ифодалайди.

Хуллас, М.М.Дўстга келиб ўзбек романчилигида бадий модификациянинг тамомила кутилмаган ва оригинал шакли кўзга ташланади. Унинг “Лолазор” романи бошқа анъанадаги романлардан сюжет, ривоя услуби, образлар дунёси, воқеликни полифоник талқин қилиши нуқтаи назаридан туб фарқли томонларини намоён этди. Т.Мурод, Э.Аъзам, Н.Эшоқул, Л.Бўрихон, Т.Рустамов, У.Ҳамдам романларида эса бадий модификациянинг турли кўринишларини намоён бўлди.

¹¹ Рустам Т. Кўрсатилган асар. – Б. 255.

12- 13-MAVZU: Hozirgi dramaturgiyaning umumiy ko'rinishi. Dramatik asarlarda davr va shaxs muammosi. . (2 soat).

REJA:

TAYANCH IBORALAR: Adabiyotshunoslik. Dramaturgiya. Romantizm. Realizm. Klassisizm. Ijodiy uslub. Ijodiy usul. Metod. Ijodiy metod. Obraz. Shakl.

Adabiy turlar ichida dramatik tur o'z imkoniyatlari bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, lirik tur asosan inson hissiyotlarini ifoda etish bilan cheklansa, epik tur voqea-hodisalarni kuzatuvchilik xususiyatiga egadir. Dramatik asarlarda, ya'ni sahnaga qo'yish uchun mo'ljallab yozilgan asarlarda voqea va xarakterlarso'z va harakatlarda ifoda etilishi bu tur imkoniyatlarining kengayishiga zamin yaratadi. Bunday asarlar mutolaasi jarayonida kitobxon qahramonlar bilan birga harakatda bo'ladi, tomoshasi chog'ida voqea-hodisalarni jonli sahnada ko'rib, mutolaa jarayonidagidan ko'proq ma'naviy zavq oladi. SHu bois XX asr avvalida Behbudiy, Avloniy, Hamza, Cho'lpon, Qodiriy, Fitrat kabi jadid ma'rifatparvarlari sahna asarlari yaratishga alohida e'tibor qaratdilar. Bu bilan chalasavod holatga solib qo'yilgan millatdoshlarimiz qalbiga ma'rifat urug'ini ekishga urindilar. Ular sahna tomoshalari savodliyu savodsizga birdek ta'sir o'tkazish kuchiga ega ekanligini yaxshi bilardilar. Keyinchalik bu ish Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Uyg'un, Usmon Nosir va boshqa o'nlab ijodkorlar tomonidan izchil davom ettirildi. Mustaqillik yillarida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Hamid G'ulom, Abduqahhor Ibrohimov, Shukrullo, Said Ahmad, Hamid G'ulom, Turob To'la, Haydar Muhammad, Shukur Xolmirzaev, Erkin Xushvaqto'v kabi qator dramaturgalar sahna asarlarini yaratdilar.

Jamiyatdagi keskin o'zgarishlar dramatik asarlarga ham o'z nafasi va qahramonlarini olib kirdi. O'tgan davrlar illatlarini fosh qiluvchi pafosda yozilgan Abduqahhor Ibrohimovning "Puch", Shukrulloning "Unsiz faryod", Hamid G'ulomning "Bir million fojiasi", Haydar Muhammadning "Xotinlar "gapi"dan chiqqan hangoma" kabi drama va komediyalari nafaqat mavzu va muammo mushtarakligiga, balki badiiy saviya (u esa anchagina past) mushtarakligiga ham ega.

Butun bir xalqning timsoliga aylangan siymolar ko'hna tarixda kam topiladi.

Buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur turkiy ulusning, o'zbek xalqining ramzi sifatida nafaqat islom olamida, shuningdek, insoniyat tarixida yorqin shaxs bo'lib yashab kelmoqda, umrguzaronlik qilmoqda.

Ulug' sarkarda, donishmand davlat arbobining hayoti va faoliyatiga bag'ishlab adabiy, ilmiy, tasviriy san'at va monumental haykaltaroshlik asarlari, tarjima kitoblari yuzaga kelmoqda. Jahon xalqlari madaniyatining, ilmiy-badiiy hamda ijtimoiy-siyosiy tafakkurining yorug' fasli hisoblangan "Buyuk Temurnoma" yangi-yangi sahifalar bilan boyib bormoqda.

XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari o'zbek she'riyati taraqqiyotida alohida o'rin tutgan Abdulla Oripovning besh pardali “Sohibqiron” dramasi “Buyuk Temurnoma” silsilasiga yangi bob bo'lib qo'shildi.

“Sohibqiron” dramasida, birinchidan, “Kuch adolatda!” degan gumanistik – insonsevarlik kontseptsiyasini o'z faoliyatiga asos qilib olgan buyuk bobomizning donishmand davlat arbobi, insoniyat tarixida sakkiz yuz yillar hukm surgan ulug' sarkardaning hayoti yoritilsa; ikkinchidan, ilm-fan, madaniyat, adabiyot, san'at, arxitektura, irrigatsiya va boshqa o'z davridagi ijtimoiy hayotning ko'plab sohalarida amalga oshirilgan benazir, mislsiz bunyodkorliklarning homiysi, rahnamosi; ayovsiz kurash olib borgan, islomiy ma'naviy-axloqiy madaniyat tantanasi yo'lida o'zligini safarbar etgan adolat himoyachisi ekanligini jahon xalqlariga tanitish, bildirish maqsad qilib qo'yilgan. Abdulla Oripov talqinida buyuk bobomiz Amir Temur o'rta asrlar islohotchisi, jamiyatdagi ozodlikka va taraqqiyotga bo'lgan intilishlarni o'zida mujassamlashtirgan yo'lboshchi, xaloskor, donishmand timsolida gavdalanadi.

*Shoir ahli g'azallarini qog'ozga yozsa,
Men she'rimni o'chmas qilib shamshirga o'ydim.
U bitikning mazmuni shul:
“Kuch – adolatda!”
Yosh boshimdan qismat menga qilich tutqazdi.
Chingiziylar mo'r-malaxday bosgan bir paytda,
Necha-necha sher yurakli barlos yigitlar
Yovlariga yem bo'lganda boshi birikmay,
Tog'u toshda sang'ib yurgan erksevarlarni
O'z tegramga to'pladimu
Yalov ko'tardim. [1:10]*

“Kuch – adolatda!” shior Amir Temur saltanatining cheksiz hududlarida axloqiy va ma'naviy mezonga aylangan edi. Kuch birlikka asoslangan taqdiridagina adolat qaror topadi, haqiqat yuzaga chiqadi, degan g'oya asardagi badiiy talqinlardan sizib chiqadi. Shu ma'noda, u shoirning ijtimoiy-estetik ideali mehvarini ham tashkil qiladi. Birinchi sahnadagi Amir Temur, Mir Said Baraka, Amir Husayn o'rtasida kechgan suhbat o'zining teran falsafiy mazmuni, ijtimoiy mohiyati bilan Kuch – Birlik - Adolat kontsepsiyasining yana bir muhim qirrasini shu'lalantiradi. Ilmda ma'lumki, Xoja Ahmad Yassaviy adolatni, insonning axloqiy poklanish va komillikka erishish g'oyalarini targ'ib etguvchi so'fiylikning “yassaviya” tariqati asoschisi edi. Amir Temur Xoja Ahmad Yassaviyni o'zining piri deb bilar, dinga kishilarni ma'naviy va axloqiy kamolotga yetaklovchi, mamlakat kuch-qudrati va

ulug'vorligini mustahkamlovchi kuch sifatida yondoshardi. Ana shu g'oya birinchi sahnada kechgan mazkur suhbat mazmunidan anglashilib turadi.

Xususan, islomiy madaniyat Amir Temur shaxsiyati va faoliyatini nurlantirib turgan ma'naviy-axloqiy printsiplari asosini tashkil etadi. Buyuk sohibqiron axloqiy qarashlarining mag'zini belgilaydi.

Amir Husayn o'z nafsining qurboniga aylanganligi uchun ham iroda erkinligini yo'qotgan. U shunchalik tubanlikka, boylik orttirishga mukkasidan ketganki, singlisi Uljoy Turkonga sovg'a qilgan uzugini ham qaytadan o'zlashtirishdan tap tortmaydi ("Elga solgan solig'ingning katta qismini Uljoy bilan ikkalamiz qoplagan edik. O'z singlingga o'zing hadya qilgan ziraklar o'z qo'lingga qaytib borsa, olding, noinsof" [1:21]).

Amir Husayn o'z erkini, ko'ngil izmini nafs deb atalgan iroda erkinligini boshqarish haqqi-huquqidan mahrumdek go'yo. Odillik Xudoning asosiy sifatlaridan biri. Shunday ekan, u bandasining haqqiga xiyonat qilmaslik, o'zgalarning halol luqmasiga ko'z olaytirmaslikdek xolis halollik tuyg'ulari bilan ko'nglini ziynatlagan. Va lekin, banda–noshukur-da. Odillik, halollik, pokdomonlik singari bandaning shaxsini bezovchi xislatlarni ko'nglidan quvib, gunohi azimga botadimi?!

Alloh taoloning yo'riqlari hamisha adolatli. Gunoh ishlar esa inson faoliyati bilan bog'liq. Banda iroda va faoliyat erkinligiga ega esa-da, nafsining quli bo'lganligi bois o'zligini yo'qotgan.

Shuning uchun ham u gunoh chohiga toyib yiqilaveradi. Amir Husayn ko'rguligi buning tiniq tasdig'i. Allohning irodasiga shak keltirgan bandaning yozug'i alamli, achinarli, fojialidir, degan fikr Amir Temurning quyidagi e'tirofidan balqib turadi.

*Men hamisha shukur aytdim parvardigorga,
Qodir Alloh oydin qildi yo'limni doim.
Zabt aylasam qay bir zamin,
Qay mamlakatni
Xudoyimning xohishiga tayandim mudom.
Hatto yiroq yulduzlarning fe'li qandoq deb,
Tinglaganman qur'achiyu munajjimplarni.
Turfa dinu e'tiqodga ibodat qilgan
Necha-necha qavmlarni hukmimga oldim.
Muhammadning yalovini ko'tardim baland. [1:23]*

Zero, Amir Temur e'tiqodiga ko'ra bandaning ko'nglini islomiy shuur yog'dulari ila nurlantirish poklanishning eng muhim belgisi. U, shubhasiz, komillikka yetishdagi xal qiluvchi bosqich.

To'g'ri, inson fe'li-faoliyatidagi qusurlar bilan qadim – qadimdan kurashib kelinadi. Sohibqiron Amir Temur ham o'z fuqarolari ko'nglini komillik shu'lalari

ila yoritish orqali jamiyatni, demakki, mamlakatni tozalashni islomiy burchi, Alloh tomonidan zimmasiga yuklangan oily mas'uliyat, deb biladi. Shu boisdan bandasining ma'naviy-axloqiy qusurlardan forig' etish masalasiga saltanat manfaatlari nuqtai nazaridan yondoshadi.

*Agar hayot pardasini ko'tarib boqsang
Orasida ikki holat ko'ringay ro'y-rost:
Biri Rahmon qiyofasi,
Unisi – Shayton.
Bu g'alati jarayonda adolat bormi?
Yayrab yurar nega shayton korandalari?
Necha ko'pdir nayrangbozu kazzob kimsalar?
Nega bosgan yer yuzini buncha ko'p illat?
Men zaminni tozalashim kerak ulardan. [1:27]*

Buning uchun ellaru elatlarni yaxlit va yagona davlatga birlashtirish zarur. Birlik, birdamlik va ittifoq odamlarni komillikka yetkazishda g'oyat muhim omil. SHu bilan barobar, mamlakat va jamiyatni ham tozalash uchun oliy maqom asos yaratiladi. Raiyat boshini bir maslak, yagona e'tiqod atrofida qovushtirishning ijtimoiy-axloqiy asoslari faqat ezgulikka xizmat qiladi.

Ko'rinadiki, moziy – olamgir bir ko'zgu. Unda shu yerda yashab o'tgan ajdodlar kechmishi, ota-bobolarimiz hayoti namoyon bo'ladi. Shoir sohibqiron Amir Temur shaxsiyati va faoliyatidan bugungi nasllar tabiatida komillik xislat-fazilatlarini tarbiyalash hamda shakllantirish zarur, deb biladi. Zero, yangi zamon odami – mustaqillik nasllarining ma'naviy-intellektual dunyosini shakllantirish uchun tarix betimsol bir maktab. Inson kamoli, xalqning ma'naviy-axloqiy yuksakligi uchun kurashda moziy voqeligi, ulug' ajdodlar hayoti va taqdiri hamisha ibrat, saboq bo'lib xizmat qiladi. Abdulla Oripov o'z dramasida sohibqiron bobomiz ijtimoiy-siyosiy faoliyatidan, shaxsiyati va axloqiy fazilatlarini orasidan, ayniqsa, millatparvarlik, vatansevarlik, adolatpeshalik xususiyatlarini alohida ta'kidlab ko'rsatadi.

“Xalqimizning shonli tarixini hali yuz-ikki yuz yilda yozib ado qilish qiyin”, – deydi Abdulla Oripov “Ko'rgan-bilganlarim” xotira essesinde. Lekin yozuvchining oddiy tarixnavisdan farqi bor. U ko'proq o'z muayyan g'oyalariga mos keluvchi mavzularni izlaydi. Shu ma'noda, asrlar bo'yi kamsitilgan, haqoratlangan Amir Temur bobomizning obrazi mening uchun xalqning obro'-e'tiborini, qadrini belgilovchi obraz bo'lib ko'rinadi. “Sohibqiron” asarimni o'tmishga boqib, bugun uchun yozganman” [2:3]

Darhaqiqat, shoirning o'zi “Nazarkarda yurt” maqolasida ta'kidlaganidek, bobolar bizga muhtoj emas, aksincha, bizning o'zimiz bobolar madadiga ehtiyojmandmiz; ularning ruhan ko'magiga, daldasiga hamisha muhtojlik sezamiz. SHu ma'noda,

“Sohibqiron” dramasi bugungi kunda millat ma’naviy hayoti rivojida o’ziga xos ahamiyatga ega asarlardan hisoblanadi.

Bugungi adabiy jarayonda qalam tebratayotgan munaqqidlarning aksariyati adabiyotshunoslik ilmi bilan shug’ullanishgan. Ammo adabiyotshunoslik sohasida nomzodlik, doktorlik dissertatsiyasini yoqlab ulgurishgan ko’plab kasbdoshlarimizning adabiy jarayondan uzoqlashib ketganligini qanday izohlash mumkin? Shunga qaramasdan, respublikamiz viloyatlaridan adabiy hayotimizda faol ishtirok etayotgan Y. Solijonov, D. Qurinov, A. Sabirdinov, O. Karimov, Z. Rahimov, Q. Yo’lchiev kabi adabiyotshunoslar qatorida qashqadaryolik professor D. To’raev nomini alohida tilga olgan bo’lar edim. Filologiya fanlari doktori, professor D.To’raev adabiy jarayonga o’tgan asrning 80-yillarida kirib keldi. “Hayot va syujet”(1984), “O’zbek adabiyotida realizm masalalari”(1988), “Badiiy talqin yo’llarida”(1994), “O’zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi” (2001), “Davr va ijod mas’uliyati”(2004), “Rangin tasvirlar jilosi”(2014) kitoblari bilan adabiyotshunoslik rivojiga salmoqli hissa qo’shdi. Xususan, istiqldan keyingi yillarda munaqqid ijodida badiiy – estetik tafakkurning yangilanish jarayonlarini kuzatamiz. Munaqqidning “Romanchiligimizning yangi ufqlari” maqolasida milliy romanlarimizning tarixiy taraqqiyot yo’llari, roman janri strukturasidagi o’zgarishlar, romanlarda adabiy-badiiy tasvir shakllari davr taraqqiyoti bilan, shu davrga xos obrazli tasvirlar bilan rang-baranglashib borayotganligi ta’kidlanadi. Bugungi adabiy jarayonda ko’plab bahsmunozaralarga sabab bo’layotgan modern adabiyotining o’ziga xos xususiyatlari, tasvirlash yo’llari, uslubiy yo’nalishlari haqida fikr bildirib, modernizmning milliy adabiyotimizda nash’u namo topayotganligini e’tirof etadi:”Modernizm adabiyotining tasvir usullari realizmga zid emas, aksincha, u o’ziga xos noan’anaviy realistik tasvirda yuz ko’rsatadi. Bu tasvirdagi ijtimoiy-psixologik va falsafiy-psixologik talqin ham uning o’ziga xos xususiyatini inkor etmaydi...Xullas, modernizm biz o’ylaganchalik oddiy narsa, ustoz Ozod Sharafiddinov aytganidek, “jo’n hodisa...emas” [1:20].

Adabiyotshunos fikrini dalillash uchun milliy adabiyotimizda noan’anaviy uslubda yozilgan A. Saidning “Besh kunlik dunyo”, X. Do’stmuhammadning “Bozor”, T. Rustamning “Kapalaklar o’yini”, U. Hamdamning “Muvozanat”, “Isyon va itoat” romanlarini tahlil e’tiboriga tortadi. Ayniqsa, U.Hamdami romanlaridagi personajlarning ma’naviy-ruhiy qiyofasi bugungi ijtimoiy hayot bilan uyg’unligi munaqqid tomonidan asosli tahlil qilingan. D.To’raevning hozirgi adabiy jarayon muammolariga bag’ishlangan “Rangin tasvirlar jilosi” kitobi keyingi yillar izlanishlarining mevasidir. “Ijodiy an’analar samarasi” nomli ilkmaqolada jahon ta’siri masalalariga e’tibor qaratiladi. Munaqqid o’rinli e’tirof etganidek:”...bugungi yosh ijodkorlarimiz zamonaviy G’arb adabiyotini, xususan,

Lotin Amerikasi, Fransiya modernistik adabiyotini chuqur bilgani uchun ham ular yaratgan asarlar hozirgi o'zbek badiiy nasrining falsafiy-psixologik va ma'rifiy yo'nalishini chuqurlashtirmoqda". X.Do'stmuhammad, E. A'zam, N. Eshonqul kabi nosirlarimiz ijodiga U. Folkner, J.P. Sartr, J.Joys, D. Butsati, F. Kafka, A. Kamyu kabi jahon adabiyoti namoyandalari ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. X.Do'stmuhammadning "Jajman", E.A'zamning "Yozuvchi", N. Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyalarida jahon adabiyotidagi tajribalarning qo'llanilayotganligi fikrimizni tasdiqlaydi. Ijodiy ta'sir masalasiga tabiiy jarayon sifatida qarash kerak. Chunki ijodkor ahli hamisha yangilikka intilib yashaydi. Tanqidchining "Uslub jilolari, poetik g'oya va ruhiy tahlil" maqolasi istedodli yozuvchi, bugungi o'zbek nasrida shakliy-uslubiy, o'ziga xos tasviriy izlanishlar olib borayotgan X. Do'stmuhammad hikoya va qissalari tahliliga bag'ishlangan. Maqolani yozuvchi haqidagi adabiy portret deb ham atash mumkin.Yozuvchining "Beozor qushning qarg'ishi" kitobiga kirgan hikoyalari keng tahlil e'tiboriga tortiladi. Adib hikoyalarida tasvirlangan ijtimoiy ma'naviy-axloqiy muammolar, individual uslub va mahorat masalalari talqin qilinadi. Shuningdek,yozuvchining "Panoh", "So'roq", "Nigoh", "Oromkursi", "Hijronim mingdir mening" qissalarida adibning obraz, xarakterlar yaratishdagi o'ziga xos mahorati yoritib beriladi.

"Adabiy tanqid va ilmiy-badiiy tafakkur uyg'unligi" maqolasida bugungi adabiy jarayonda tanqid taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan atoqli munaqqid U. Normatov, N. Karimov,N. Rahimjonov, T. Shermurodovning ijodiy izlanishlari tahlil nazaridan o'tkaziladi. U. Normatov istiqloldan keyingi yillarda adabiy tanqidchilikda adabiy suhbat janrini rivojlantirib ma'lum bir tizimga soldi. D. Quronov, U. Hamdam, R. Qo'chqor, R. Rahmat kabi yosh munaqqidlar bilan qilgan suhbatlarida adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari xususida nazariy qarashlarini bayon qildi. Adabiy tanqidchilikda emotsional-estetik tahlil uslubini yaratdi. Shuningdek, maqolada N. Karimovning "XX asr adabiyoti manzaralari", N. Rahimjonovning "Mustaqillik davri o'zbek she'riyati", T. SHermurodovning "Jozib izhor aylab" kitoblarining adabiy jarayondagi o'rni va ahamiyati xususida mufassal fikr-mulohazalar bayon qilingan. "Rangin lahzalar jilosi"dagi eng xarakterli maqolalardan biri iste'dodli yozuvchi A. Yo'ldoshevning voqea darajasiga ko'tarilgan hikoyasi "Puankare" haqida yozilgan. "Koinot formulasi"ni kim kashf etgan?" nomli maqolada munaqqid adibning g'oyaviy-badiiy kontseptsiyasini aniq talqin qilgan. Hikoyada tasvir etilgan yosh o'zbek olimining qalb kechinmalari, "koinot formulasi"ni kashf etish yo'lidagi mashaqqatlarini tasvirlashda adibning o'ziga xos mahorati tadqiqotchi tomonidan asosli dalillangan.

Adabiyotlar

1. Д. Тўраев. Давр ва ижод масъулияти. Тошкент. “Янги аср авлоди”, 2004
2. Д. Тўраев. Рангин тасвирлар жилоси. Тошкент. “Akademnashr”, 2014.

Mustaqil ish MAVZULARI

1. Diniy ma'rifiy masalalarning bugungi she'ryatimizdagi badiiy talqini
2. Zebo Mirzayeva she'riyatida tasavvuf ohanglari. U. Azim she'riyatida baxshiyona ohanglar.
3. 90-yillar she'riyatiga xos modern yo'nalish belgilari.
4. Istiqlol davri o'zbek adabiyotida hajviy hikoyachilikning o'rni.
5. Sh.Bo'taevning «Qurg'onlangan oy», «Kayvonining mangu makoni» to'plamidagi (T, O'zbekiston-2011) romani taxlili
6. T. Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romonida milliy xarakter talqini.
7. Bugungi dostonchiligimiz taraqqiyoti.
8. Erkin A'zam uslubi haqida. “Shovqin” romani misolida
9. Said Ahmad va Sh.Boshbekovlarning dramatik asarlari
10. B.Karimovning «Qodiriy qadri» asari tahlili,
11. U.Normatov, Matyoqub Qo'shjonov va Baxtiyor Nazarovlarning adabiy-badiiy qarashlari
12. A.Rasulovning “Badiiylik-bezavol yangilik”(T, “Sharq”NMAK,2007) to'plamidagi adabiy etyud-maqolalar tahlili

GLOSSARIY

Adabiy jarayon – muayyan davrda yaratilgan badiiy merosning o'ziga xos xususiyatlarini qamrab oladi.

Yangi o'zbek adabiyoti – ko'p asrlik o'zbek adabiyotining muhim bosqichi. Bu adabiyotning tinimsiz yangilanib borishi adabiyotning oldingi bosqichlaridan o'zining yangicha xususiyatlari bilan ajralib turuvchi bosqich.

Tamoyillar – yangi o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi tadrijiy yo'nalish, qoida tusini olgan xususiyatlar.

Omillar – yangi o'zbek adabiyotining yuzaga kelishidagi sabablar, turtkilar.

An'ana – badiiy ijodda davrdan davrga o'tib keluvchi tajribalar va ayni paytda yangilanib boruvchi ijodiy hodisa.

Adabiy asar – ma'lum ijodkor qalamiga mansub bo'lgan badiiy ijod mahsuli.

Adabiy maktab – badiiy ijodda milliy adabiyotda mahorat nuqtai nazardan maktab darajasini o'taydigan kashfiyotlar yig'indisi.

Adabiy janr – yozuvchi va shoirlarning voqelikni tasvirlash yo'nalishidagi adabiy turlarning ichki guruhi.

Adabiy qahramon – badiiy asardagi voqealar ishtirokchisi, yyetakchi qahramon, yozuvchi va shoir ijodiy idealini tashuvchi obraz.

Adib – badiiy ijod bilan shug'ullanuvchi ijodkorlarga nisbatan ishlatiladigan keng ma'nodagi atama.

Didaktik adabiyot – ta'limiy, tarbiyaviy yo'nalishdagi asarlar.

Detektiv adabiyot – sujetdagi sarguzasht va jinoyatlar tasvirini bayon qiluvchi asarlar.

Dilogiya – sujet tuzilishi, umumiy personajlar, mavzu va ijodiy niyatning yaxlitligidan tashkil topgan, nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan badiiy asar.

Dramatizm – barcha janrlarda qahramon hayotidagi ichki kechinmalar, ziddiyatlar, o'ylarning badiiy tasvirlanishi.

Yozuvchi ideali – muallifning o'z asarida kitobxon uchun aytmqchi bo'lgan estetik qarashlari yig'indisi, ijodiy niyati.

Klassika – mumtoz, eng yaxshi, eng namunaviy deya e'tirof erilgan asar.

Lakonizm – kichik janrga, xususan, hikoyaga aloqador bo'lib, lo'nda va ixcham tasvirlash, yangi o'zbek adabiyotida A.Qahhor hikoyalari lakonik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Lirik qahramon – shoir qarashlarini, qalb kechinmalarini, o'y-fikrlarini o'zida mujassam etgan obraz.

Mavzu – asarda tasvirlanmoqchi bo'lgan ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy-axloqiy muammolarni badiiy talqin etish uchun tanlab olingan hayot materiali.

Realizm – hayotni va undagi voqealarni haqiqat asosida tasvirlash, hayotni real voqelik va real obrazlar asosida aks ettiruvchi yo'nalish va ijodiy metod.

Sotsialistik realizm – XX asrning boshlarida sobiq sovet adabiyotida yuzaga kelgan adabiy yo'nalish, ijodiy metod. Sotsialistik realizm sobiq sovet adabiyoti tarixining ma'lum bosqichida tabiiy ravishda vujudga kelgan bolsa-da, u hozirgi adabiyotshunoslikda soxta metod sifatida e'tirof etildi.

Modernizm – zamonaviy ma'nosida bo'lib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida norealistik tasvir tamoyiliga asoslangan oqim. XX asr oxirlariga kelib yangi o'zbek adabiyotda ham modern adabiyotining xususiyatlari ko'zga tashlana boshlanadi.

Badiiy to'qima – badiiy asar muallifining asarda olg'a surmoqchi bo'lgan g'oyani yuzaga chiqarishda boqea va ba'zi obrazlarning ijodiy xayol mahsuli.

Zamonaviylik – adabiy asarning g'oyaviy-badiiy yo'nalish va o'sha asar yaratilgan davr muammolarining uyg'unligini belgilovchi tushuncha.

Ijodiy metod – ijodkorning hayotiy materialni tanlash, estetik o'zlashtirish, badiiy ifodalash usuli.

Ijodiy obraz – kitobxon muhabbatini qozongan, uni o'z isidan ergashtiradigan, yozuvchining estetik g'oyasini tashiydigan obraz.

Ilmiy-fantastik adabiyot – badiiy faraz hayot haqiqatiga juda yaqin, fan va taraqqiyot istiqbolini, uning inson va tabiat sirlarini ochib berishga qaratilgan badiiy asarlar yig'indisi.

Kolorit – badiiy asarda milliy urf-odatlar, tarixiy sharoit belgilari, mahalliy xususiyatlarning o'ziga xos tarzda ifodalanishi.

Muallif – adabiy asarni yaratgan odam.

Muallif nutqi – adabiy asardagi bevosita muallif tilidan berilgan bayon, tavsif, izoh.

Muallif obrazi – badiiy asar matnida anglashilib turuvchi muallif shaxsi.

Poetika – ijod san'ati haqidagi fan. Poetika adabiyot so'z san'ati, yozuvchi mahorati haqida ham tushuniladi.

Trilogiya – sujet kompozitsiya jihatidan nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan uchta asar.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar Asosiy

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma'naviyat”, 2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. “Sharq yulduzi” jurnali, 2009 yil, 3-son.
3. “Ta'lim to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi qonuni. T.: 1997.
4. Adabiyot nazariyasi. II tomlik. T.: “Fan”, 1978-1979.
5. Adabiyotimizning yarim asri. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot. I kitob, 1975.
6. Absamiyev.F. Hozirgi adabiy jarayon. Samarqand. 2001-yil.
7. Adabiy tur va janrlar. Uch jildlik . Toshkent 1991-yil.
8. Sarhisob. Davra suhbatlari. Jahon adabiyoti. 1998-yil 1-son.
9. Hozirgi adabiy jarayonning aktual problemalari. Tosh. 1984-yil.
10. H. Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. T. 2010 Y

Qo'shimcha

1. Aliyev A. Istiqlol va adabiyot. T.: O'zbekiston, 1997.
2. Mirzayev S. Hayot va adabiyot. T.: Sharq, 2001.
3. Absamiev.F. An'ana va tanqid. O'zAS, 1997yil 25 iyul.
4. Rahimov.A. Muttasil yangilanayotgan janr. O'z AS. 1997yil 6 iyun.
5. Karimov N., Mamajonov S., NazarovB., NormatovU., Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi darslik. T.: O'qituvchi, 1999.
6. Mirvaliyev S. XX asr o'zbek adabiyoti. Darslik. T.: Yangi asr avlodi, 2005.
7. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. T. Sharq, 2004.
8. Mustaqillik davri adabiyoti. To'plam. T., G'.G'ilom nomidagi Adabiyot va sana'tnashriyoti, 2006.
9. Rormatov U. Tafakkur yog'dusi. T.: Universitet, 2005.
10. Sanjar Sodiqov. So'z san'ati jozibasi. T.: O'zbekiston 1996.
11. Sanjar Sodiq. Ijodining o'ttiz lahzasi. T.: Sharq, 2005.
12. To'rayev D. Davr va ijod mas'uliyati. T.: Yangi asr avlodi, 2004.

- 13.Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy – nazariy asoslari. T.: O'qituvchi, 1996.
- 14.Pardayeva Z. O'zbek romani. T.: Xalq merosi, 2003.
- 15.Qosimov B., Ernazarova G. Milliy badiiy tafakkur. T.: Universitet, 2004.
- 16.Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi. T.: Fan, 1994.
- 17.Imomova G. Ma'furaviy sintezning go'zal namunasi. "Til va adabiyot ta'limi" j, 2006, 6 – son.
- 18.Meli S. Asl adabiyot – ezgulikka xizmat qiladi. "O'zAs", 2000 yil, 14 avgust.
- 19.Modernizmni qanday tushunamiz? Bahs. "O'zAs", 1995 yil, 6 oktabr.
- 20.Normatov U. Bugungi nasrimizning yiyetakchi tamoyillari, "O'zAS, 2001 yil, 3 – son.
- 21.Sanjar Sodiq. Prust izidan. "O'zAS", 2002 yil, 29 noyabr.
- 22.Sarimsoqov B. Absurd manisizlikdir. "O'zAS", 2002, 24 avgust.
- 23.Solijonov Y. Nasrimizdagi izlanishlar. "O'zAS", 2001 yil. 16 mart.
- 24.SultonovI. Qayta tug'ilish arafasi. "O'zAS", 1999 yil, 19 mart.
- 25.Solijonov Y. Romanningoydin yo'li. "Sharq Yulduzi" 2004 y. 1-fasl.
- 26.Solijonov Y . Nutq va uslub. 2002.
- 27.Solijonov Y. Olimning olami.
- 28.Solijonov Y . Shoir ko'p, ammo she'r-chi? "O`zAS". 18.07.2003 y.
- 29.Ochilov E. Siz she'r aytasizmi? "O`zAS". 17.09.2004 y.
- 30.N.Rahimjonov. Mustaqillik davri o`zbek she'riyati. 2007
- 31.J.Kamol. Lirik she'riyat. T., 1980
- 32.H.Karomatov. Qur'on va o`zbek adabiyoti. T., 1993
- 33.B.Norboev. Istiqlol va iste'dod. T., 1996
- 34..Qosimov, Uyg`oyanish sadolari. T., 1991
- 35.I.G`afurov. Lirikaningy uuragi. 1982
- 36.B.Norboev. Istiqbol va istehdod tarbisi. T., 1996
- 37.Ergash Ochilov, Muborak sarchashmalari. T., 1997
- 38.N.Rahimjonov. O`zbek sovet adabiyotida poema. T.1986
- 39.N.Rahimjonov Ilmiy tafakkur jilolari. T., 1991 y.
- 40.O`zbek adabiyotida janrlar tipologisi va uslublar rang-barangligi. T. , 1998.
- 41.Karimov X. Istiqlol davri adabiyoti. T.: "Yangi nashr", 2010 y.
- 42.Mustaqillik davri adabiyoti. T.:2006 y.
- 43.Rahimjonov N. Bugungi davr o`zbek adabiyoti. T.: "Sharq", 2012 y.

INTERNET MAʼLUMOTLARI

1. <http://www.google.ru>
2. [http:// www.klassika.ru](http://www.klassika.ru)
3. <http://www.ziyonet.uz>
4. <http://www.natlib.uz/>
5. <http://library.samdu.uz/>
6. <http://www.faak.uz/>
7. <http://www.literature.uz/>